

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

O‘ZBEK FILOLOGIYASI YO‘NALISHI

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH METODIKASI
KAFEDRASI**

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA‘LIMIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK
TEXNOLOGIYALAR**

FANIDAN

MA‘RUZA MATNLARI

Bilim sohasi:	100000	– gumanitar
Ta‘lim sohasi:	120000	– gumanitar fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi:	5120100	– filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)
	5111200	– o‘zbek tili va adabiyoti

Samarqand – 2019

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ **A.SOLEYEV**
“_____” _____ 2019-yil

Filologiya fakulteti

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrası

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI O‘QITISHDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**
fanidan

MA‘RUZA MATNLARI

Samarqand – 2019

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

“Tasdiqlayman”
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor
_____ **A.SOLEYEV**
“_____” _____ 2019-yil

Filologiya fakulteti

O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi kafedrası

**O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISHDA ZAMONAVIY
PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR**

fanidan
(II mutaxassislik)

ISHCHI-O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar
Ta‘lim sohasi: 120000 – gumanitar fanlar
Ta‘lim yo‘nalishi: 5120100– Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili)

4-kurs filologiya fakulteti talabalari uchun

Jami o‘quv yuklamasi: 132 soat

Ma‘ruza: **12** soat

Amaliy mashg‘ulot: 12 soat

Mustaqil ish: **108**soat

Samarqand – 2019

“Adabiyot o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” tanlanma fanining ishchi o‘quv dasturi ishchi o‘quv reja va o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqildi.

Tuzuvchi:

Ubaydullayeva M.A. – SamDU o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrası oqituvchisi

Taqrizchilar:

Turobov A. – SamDCHTI dotsenti, f.f.n.

Boltayev M. – SamDU o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrası dotsenti

“Adabiyot o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” tanlanma fanining ishchi o‘quv dasturi o‘zbek tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi kafedrası a‘zolarining 2019-yil __-iyuldagi yig‘ilishida muhokama etilgan va fakultet ilmiy va uslubiy kengashida muhokama qilish uchun tavsiya etilgan(__-bayonnoma).

Kafedra mudiri:

prof.I.Mirzayev

“Adabiyot o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” tanlanma fanining ishchi-o‘quv dasturi filologiya fakulteti ilmiy kengashida muhokama etilgan va foydalanishga tavsiya qilingan(2019-yil __-iyuldagi __- bayonnoma).

Fakultet ilmiy kengashi raisi:

prof.Eltazarov J.D.

Fakultet o‘quv-uslubiy kengashi raisi

prof.M.Abdiyev

Kelishildi:

**Universitet o‘quv-uslubiy
boshqarmasi boshlig‘i:**

dots.Aliqulov B.

Fanning dolzarbligi

Mamlakatimiz ijtimoiy-ma'naviy hayotining barcha sohalarida bo'lganidek, ta'lim tizimida ham keng qamrovli islohotlar yo'lga qo'yildiki, bunda ta'lim-tarbiya tizimiga, oliy ta'limning o'quv-tarbiya jarayoniga axborot texnologiyalarini olib kirish orqali ta'lim sifatini uzluksiz ravishda takomillashtirib borish, samaradorligini ortirish talab etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari oldiga "zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning yangi va samarali metodlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish" borasida ulkan vazifalarni qo'ydi. "O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari" fani bo'yicha tuzilgan mazkur dastur o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish metodikasi haqida ma'lumot beriladi.

Fanning o'quv rejasidagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviyligi

"Adabiyot o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" fani 1-semestrda o'qitiladi. Dasturni amalga oshirish o'quv rejasida rejalashtirilgan "Umumiy pedagogika", "Dasturlash asoslari va axborot texnologiyalari", "O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar" hamda "Mutaxassislik fanlarini o'qitish metodikasi", "O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi" kabi fanlar bilan bog'liqdir.

Fanning ilm-fan, iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi o'rni

Bugungi kunda istalgan fan o'qituvchisining pedagogik dasturiy vositalarni yarata olishi va ularni mashg'ulotlarda unumli qo'llay olishi davr talabidir. O'zbek tili va adabiyoti darslarida foydalaniladigan elektron materiallarning sifati, samaradorligini oshirish yo'llarini o'rgatadigan mazkur fan ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tili va adabiyoti darslarining yanada yuqori saviyada tashkil etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Fanni o'qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalar hamda o'quv mashg'ulotlarini loyihalash

"Adabiyot o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" fanini o'qitish jarayonida asosan quyidagi pedagogik texnologiyalar va o'qitish metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq: o'qitishning interfaol metodi; muammoli o'qitish texnologiyasi; shaxsga yo'nalganlik asosidagi pedagogik texnologiyalar; o'quv jarayonini samarali boshqarish va tashkil qilish asosidagi pedagogik texnologiyalar; o'qitishni differentsiyalash; o'qitishni individuallashtirish texnologiyasi; dasturiy o'qitish texnologiyasi; o'qitishning kompleks metodlari (loyihaviy metod, tarmoqli rejalashtirish metodi, aqliy hujum va h.k.).

Fan modulining dasturi (module syllabus)

O'quv kursining to'liq nomi	O'zbek tili va adabiyotini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar	
Kursning qisqacha nomi	Adab. o'qit.zam. ped.texn.	
Kafedra	O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi	
O'qituvchi haqida ma'lumot	Ubaydullayeva Maftuna Azamatovna	
Semestr va o'quv kursining davomiyligi	7-semestr	
O'quv soatlari hajmi	Jami: 132 Shuningdek: Ma'ruza – 12 Amaliy – 12 Seminar: – Mustaqil ta'lim – 108	
O'quv kursining statusi		
Dastlabki tayyorgarlik	“Mutaxassislikka kirish”, “O'zbek tili va adabiyotini o'qitish metodikasi”, “Dasturlash asoslari va axborot texnologiyalari” fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarga asoslanadi	
Fanning predmeti va mazmuni: “Adabiyot o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” fani o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish metodikasini talab darajasida o'rgatishga yo'naltirilgan.		

Fanni o‘qitishdan maqsad - Fanni o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilarini dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Fanning vazifasi talabalarga o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar haqida, aynan o‘zbek tili va adabiyoti darslari uchun tayyorlanadigan resurslarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida, bu boradagi chet el tajribasi haqida ma‘lumot berish hamda talabalarda axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko‘nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat.

“Adabiyot o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” o‘quv fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida talaba:

- ta’limda axborot texnologiyalari bo‘yicha tayanch tushuncha, atama va vazifalar;
- axborot-ta’lim muhitining tarkibi va tuzilishi;
- axborot texnologiyalari bilan ishlash ko‘nikmasining shakllanishida jahon tajribasi;
- axborot texnologilar dunyosida ilmiy va ta’limiy tadqiqot ishlarning reformasi **haqida tasavvurga ega bo‘lishi lozim;**

- ta’limda axborot texnologiyalarini tatbiq etishning ahamiyati;
- axborot texnologiyalari sohasida innovatsion baholash;
- masofaviy ta’limni rivojlantirish sohasida asosiy loyihalar;
- axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyati;
- ta’lim jarayonida interaktiv doska;

bilishi va ulardan foydalana olishi kerak;

- zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga tatbiq etgan holda pedagogik faoliyatni tashkil etish;

- multimedia darsliklarining turlari va tuzilishini bilish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak;**

- o‘quv jarayonini tashkil etish va samarali boshqarish;

- elektron ta’lim resurslaridan oqilona, samarali foydalanish **malakalariga ega bo‘lishi kerak.**

Kursning tematik tarkibi va mazmuni

T/r	Mavzu	Jami	Ma’ruza	Amaliy mashg‘ulot	Seminar mashg‘uloti
1.	Kirish. Ta’limda axborot texnologiyalarining o‘rni		2		
2.	Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo‘yiladigan talablar				
3.	O‘zbek tili va adabiyoti ta’limida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari		2	2	
4.	Jahon miqyosida til ta’limida qo‘llanadigan ta’limiy resurslar				
5.	Taqdimot texnologiyasi va uni o‘zbek tili darslarida qo‘llash		2	2	

	metodikasi				
6.	O'zbek tili multimedia darsliklari JORIY NAZORAT (JN)			2	
7.	O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda AKTning ahamiyati				
8.	Til sathlarini o'rganishda AKTdan foydalanish metodikasi				
9.	O'zbek tilini masofadan o'qitish masalalari				
10.	Kompyuter vositasida nazorat ishlarini tashkil qilish metodikasi				
11.	Til ta'limida integrativ yondashuvni ta'minlashda AKTning o'rni				
12.	Kirish. Adabiyot nazariyasiga oid mavzularni o'tishda slaydlardan foydalanish ORALIQ NAZORAT (ON)		2		
13.	Shoir va yozuvchilar hayoti va ijodini o'rganishda maxsus saytlarning imkoniyatlari		2		
14.	Adabiy ta'limda virtual muzey, kutubxona va ensiklopediya materiallaridan foydalanish usullari				
15.	Folklorga oid dars mashg'ulotlarida audio-vizual multimedia vositalarini yaratish usullari		2		
16.	Mumtoz adabiyot namunalari o'rganishda elektron jadvallar va gipermatn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish			2	
17.	Jadidchilik va yangi davr adabiyotiga oid ma'lumotlarni interaktiv sinf doskasi yordamida o'rganish.			2	
18.	Istiqloq davri adabiyotiga bag'ishlangan videokonferensiya O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy axborot maydoni (kasbiy kompetentlik) JORIY NAZORAT (JN)			2	

	Jami:		12	12	
	Ta'lim berish va o'qitish uslubi		Ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar, mustaqil ishlar, "Keys stadi", "Aqliy hujum", "Klaster" va b.		
	Mustaqil ishlar		O'quv loyiha ishlari, guruhlarda ishlash, keyslar, taqdimotlar va b.		
	Maslahatlar va topshiriqlar vaqti		Kunlar: Vaqti: Aud.		

Bilimlarni baholash usullari, mezonlari va tartibi:

JN va ONning ballari	JN:35+ON:35+YaN:30=Jami:100ball
Baholash usullari	Og'zaki so'rov, taqdimotlar, yozma topshiriqlar, testlar, loyiha ishlari
Fan bo'yicha talabalar bilimni nazorat qilish va baholash	Nazorat shakllari Baholash turlari fan xususiyatidan kelib chiqqan holda so'rovlar, testlar, og'zaki savol-javob, yozma ish, loyiha ishlari taqdimot ko'rinishida o'tkazilishi mumkin

Reyting nazoratlari va baholash mezonlari
Reyting nazorati jadvali

No	Reyting nazorati shakli/Maksimal ballar	1-JN	2-JN	1-ON	2-ON	YaN	Ballar yig'in disi
1	Maksimal ball	17	18	17	18	30	100
2	Shakli	Yozma-Og'zaki	Yozma-Og'zaki	Yozma-Og'zaki	Yozma-Og'zaki	Yozma-Og'zaki	
3	Muddati (haftalarda)	6	16	10	18	20	

Fan bo'yicha talabalar bilimni baholash mezonlari

Ball	Talabaning bilim darajasi
86-100	-talaba mashg'ulotlarga doimo tayyorlagan, juda faol, dasturiy materiallarni juda yaxshi biladi, xulosa va qarorlar qabul qila oladi, ijodiy fikrlaydi, bilimlarni amaliyotga qo'llay oladi; -talaba ijodiy masalalarni hal qilish mobaynida tegishli bilimlarni qo'llash doirasini maqsadga muvofiq tanlab, yechimini topishga xizmat qiluvchi yangi usul va yo'nalishlarni topa oladi, o'quv materialini mohiyatini tushunadi; -talaba taqdim etilgan o'quv masalalarini yechish yo'llarini izlaydi, dasturiy materiallarni biladi va aytib bera oladi hamda tasavvurga ega

	bo'lad;
71-85	<p>-talaba o'rganilayotgan hodisalar aloqadorligini bilish hamda ob'ektni tavsiflay olish ko'nikmasiga ega bo'lishi bilan birgalikda, qo'yilgan masalalarni sabab-oqibat aloqadorligini ochib bergan holda yecha oladi, o'rganilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lay oladi va mustaqil mushohada qila oladi;</p> <p>-bilim va ko'nikmalar mazmunini tadbiiq qila olish mahorati, bir ishdagi masalalarni yecha olish, yozib olish va eslab qolish faoliyatini amalga oshiradi, bilimlarni amaliyotga qo'llay oladi;</p> <p>-talaba mashg'ulotlarga tayyorlangan, dasturiy materiallarni biladi, mohiyatini tushunadi va tasavvurga ega;</p>
55-70	<p>-talabaniing eshitganlari, ularga berilgan namunalar, taqdim etilgan algoritm va ko'rsatmalar asosida topshiriqlarni bajara oladi, mohiyatini tushunadi;</p> <p>-talaba qator belgilar asosida ma'lum ob'ektni farqlash bilan birgalikda unga ta'rif bera oladi va o'quv materialni tushuntirib bera oladi va tasavvurga ega;</p>
0-54	<p>-o'zbek tili va adabiyotidan bilimdonlik darajasi yuqori emas;</p> <p>- o'quv materialini anglamaydi va tushuntirib berolmaydi;</p> <p>-kompyuter savodxonligi etarli emas;</p> <p>-texnik vositalar bilan tillasha olmaydi;</p> <p>-talaba tasavvurga ega emas;</p> <p>-talaba dasturiy materialni bilmaydi.</p>

Asosiy qism

O'quv fanining nazariy mashg'ulotlari mazmuni

1-modul. "Adabiyot o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar" faniga kirish.

Ta'limda axborot texnologiyalarining o'rni

Fanning maqsadi va vazifalari, ahamiyati. Ta'limni axborotlashtirishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. Elektron pedagogika tushunchasi. Axborot-ta'lim muhitining tarkibi va tuzilishi. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati, muammolar va yechimlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, blits-so'rov, keys stadi, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 2, 3, 4; Q: 1, 5, 8; S: 2, 3, 4.

2-modul. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo'yiladigan talablar

Ta'limiy resurslarga qo'yiladigan didaktik talablar, psixologik talablar. Metodik talablar. Texnik talablar. Axborot texnologiyalari bilan ishlash

madaniyati. Filologik ta'limda AKT ni qo'llashda me'yor masalasi. Til va adabiyot o'qituvchilariga qo'yiladigan yangi talablar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, klaster, keys stadi, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 1, 3, 4; Q: 1, 4, 8; S: 2, 3, 4.

3-modul. O'zbek tili va adabiyoti ta'limida axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari

Pedagogik dasturiy vositalarning turlari (o'rgatuvchi dasturlar, test dasturlari, mashq dasturlari, virtual o'quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar). Matn muharrirlari, elektron jadvallar. Namoyish etuvchi dasturlar va boshqalar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, insert, blits-so'rov, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 2, 3, 5; Q: 2, 5, 8; S: 1, 3, 4.

4-modul. Jahon miqyosida til ta'limida qo'llanadigan ta'limiy resurslar "CALL" (Computer Assisted Language Learning) va "Byki" tizimlari haqida. Yevropa davlatlari va AQShda til ta'limida keys-stadini loyihalashtirishda ATning o'rni ("Global Simulation" dasturi). Osiyo mamlakatlarida filologik ta'limda AKTdan foydalanish tajribasi. "Edmodo" onlayn o'qitish tizimi va boshqalar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, venn diagrammasi, insert, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 1, 2, 4; Q: 1, 5, 7; S: 2, 3, 4.

5-modul. Taqdimot texnologiyasi va uni o'zbek tili darslarida qo'llash metodikasi

MS Power Point dasturi. Taqdimot yaratish qoidalari. Taqdimot nutqi va slaydlar mutanosibligi. Epizodik slaydlar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, klaster, BBB texnologiyasi, keys stadi, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 1, 3, 4; Q: 1, 5, 6; S: 2, 3, 4.

6-modul. O'zbek tili multimedia darsliklari

O'quv adabiyotining elektron shakli. Multimedia darsliklarining turlari, tarkibiy qismlari. O'zbek tili darslarida multimedia darsliklaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari. Interaktiv sinf doskalari. O'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'qitishda AKTning ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Rezyume texnologiyasi, blits-so'rov, keys stadi, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 2, 4, 5; Q: 1, 2, 8; S: 2, 3, 4.

7-modul. O'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini o'stirishda AKTning ahamiyati

Ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda kompyuter

dasturlaridan foydalanish yo'llari. Audio-vizual materiallar va ularning yozma nutqni o'stirishdagi ahamiyati.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Kichik guruhlarda ishlash, blits-so'rov, keys stadi, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 1, 3, 4; Q: 1, 5, 8; S: 1, 2, 4.

8-modul. Til sathlarini o'rganishda AKTdan foydalanish metodikasi

O'zbek tilidan o'rgatuvchi audiodasturlar. Elektron lug'atlar. "O'zbekim dasturlari" va boshqa resurslar. Sintaktik **iyerarxiya** metodini qo'llashda kompyuterdan foydalanish. Nutq madaniyati va stilistikani o'rganishda virtual dasturlarning o'rni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, klaster, insert, blits-so'rov

Adabiyotlar: A: 1, 3, 4; Q: 1, 2, 8; S: 2, 3.

9-modul. O'zbek tilini masofadan o'qitish masalalari

Masofaviy ta'lim va uning o'ziga xosliklari. O'zbek tili va adabiyoti fani bo'yicha masofaviy ta'limni rivojlantirish sohasidagi asosiy loyihalar.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, zanjir usuli, BBB texnologiyasi, keys stadi, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 2, 4, 5; Q: 1, 5, 6; S: 2, 3, 4.

10-modul. Kompyuter vositasida nazorat ishlarini tashkil qilish metodikasi

Bilimlarni baholashning elektron shakllari. Turli xil nazoratlarni o'tkazishda axborot texnologiyalarining imkoniyatlari. Universal test dasturlari. O'zbek tilidan interaktiv testlarni tuzish va qo'llash yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Muammoli o'qitish texnologiyasi, insert, blits-so'rov, keys stadi,

Adabiyotlar: A: 3, 4, 5; Q: 4, 5, 7; S: 2, 3.

11-modul. Til ta'limida integrativ yondashuvni ta'minlashda AKTning o'rni

Til ta'limida **integrativ** yondashuv. Kommunikativ kompetentlikka erishishda autentik (elektron) materiallar. Tilni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish va til sathlari integratsiyasini ta'minlashda AKT imkoniyatlari. Noan'anaviy darslarni AKT yordamida tashkil etish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: O'rgimchak to'ri texnologiyasi, muammoli o'qitish texnologiyasi, insert

Adabiyotlar: A: 2, 3, 4; Q: 1,3, 5; S: 1, 3, 4.

12-modul. Adabiyot nazariyasiga oid mavzularni o'tishda slaydlardan foydalanish

Adabiyotshunoslik atamalari va ularning turlari bo'yicha bilimlarni shakllantirishda taqdimotdan foydalanish. Fanning dolzarb muammolariga

qaratilgan ilmiy-nazariy tafakkurni taqdimot shaklida o'rganish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Muzyorar usuli, klaster, insert, blits-so'rov

Adabiyotlar: A: 2, 3; Q: 1, 2, 4; S: 2, 3.

13-modul. Shoir va yozuvchilar hayoti va ijodini o'rganishda maxsus saytlarning imkoniyatlari

Umumta'lim bosqichida adabiyot darslarida ta'lim tizimini axborotlashtirishga oid saytlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish. Adiblar hayoti va ijodiy faoliyatiga oid internet portali. Maxsus saytlarning afzalliklari, yutuqlari, kamchiliklari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Rolli o'yin texnologiyasi, krossvord usuli, keys stadi, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 1, 3, 4; Q: 1, 5, 7; S: 2, 3, 4.

14-modul. Adabiy ta'limda virtual muzey, kutubxona va ensiklopediya materiallaridan foydalanish usullari

Adabiyot darslarida virtual muzeylarga sayohat. O'rta maxsus bosqichning adabiy ta'limida elektron kutubxona fondlaridan foydalanishni o'rgatish. O'quvchilarning adabiyot fanidan mustaqil ishlartini tashkil etishda ensiklopediyalarning o'rni.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Krossvor usuli, blits-so'rov, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 2, 3, 4; Q: 1, 3, 5; S: 1, 2, 3.

15-modul. Folklorga oid dars mashg'ulotlarida audio-vizual multimedia vositalarini yaratish usullari

Xalq og'zaki ijodiga bag'ishlangan darslar uchun audio materiallar tayyorlash. Folklorshunoslikka oid video materiallar uchun ssenariy yaratish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Lug'at usuli, aqliy hujum, keys stadi, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 1, 3, 4; Q: 3, 5, 8; S: 2, 3, 5.

16-modul. Mumtoz adabiyot namunalarini o'rganishda elektron jadvallar va gipermatn bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirish

Adabiyot darslarida xronologik jadval tuzish ko'nikmasini shakllantirish. Gipermatn va undan adabiyot darslarida foydalanish yo'llari.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Charxpalak usuli, aqliy hujum, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 3, 4; Q: 4, 5, 6; S: 1, 3, 4.

17-modul. Jadidchilik va yangi davr adabiyotiga oid ma'lumotlarni

interaktiv sinf doskasi yordamida o'rganish.

Jadidlar ijodini o'rgansishda interaktiv doska imkoniyatlari. O'quvchilar bilimini nazorat qilishda interaktiv doskadan foydalanish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Aqliy hujum, klaster, insert, blits-so'rov, keys stadi, muammoli o'qitish texnologiyasi

Adabiyotlar: A: 2, 3, 5; Q: 3, 5, 6; S: 2, 3, 4.

18-modul. Istiqlol davri adabiyotiga bag'ishlangan videokonferensiya. O'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisining shaxsiy va kasbiy axborot maydoni.

Adabiyot darslariga oid videokonferensiyani loyihalashtirish, rejalashtirish va boshqarish jarayoni. Istiqlol davri adabiy ta'limida masofaviy ta'limning o'rni.

Filolog o'qituvchining elektron portfoliosi va uning tarkibiy qismlari. Shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish.

Qo'llaniladigan ta'lim texnologiyalari: Yelpig'ich usuli, aqliy hujum, klaster, muammoli o'qitish texnologiyasi. FSMU texnologiyasi, aqliy hujum, SWOT tahlil usuli, muammoli o'qitish texnologiyasi.

Adabiyotlar: A: 1, 2, 3, 5; Q: 4, 5, 7; S: 1, 2, 3, 4, 5.

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalar darslarni tashkil qilishda foydalaniladigan ta'limiy resurslarni tayyorlash, ularni rejalashtirish hamda bevosita amaliyotda qo'llash bo'yicha topshiriqlarni bajaradilar, mavjud pedagogik ta'limiy vositalarni tahlil qiladilar.

Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari ro'yxati:

1. Filologik ta'limda AKTning ahamiyati.
2. Ta'limiy resurslarga qo'yiladigan talablar.
3. O'zbek tili va adabiyotiga oid dasturiy vositalar.
4. Xorijdagi til ta'limida AKTdan foydalanish tajribasi.
5. O'zbek tili darslarida PowerPoint dasturidan foydalanish metodikasi.
6. O'zbek tilidan elektron multimedia darsliklari.
7. Og'zaki va yozma nutqni o'stirishga qaratilgan dasturiy vositalar.
8. Til sathlarini o'rganishda AKTdan foydalanish metodikasi
9. O'zbek tilini masofadan o'qitish dasturi uchun material tayyorlash.
10. Bilimlarni baholashning elektron shakllari.
11. O'zbek tilini integrativ yondashuv asosida o'qitishda AKTning o'rni.
12. Adabiyot darslari uchun taqdimot yaratish qoidalari.
13. Shoir va yozuvchilar hayotiga oid manbalarni internet saytlaridan topish va o'rganish.
14. Adabiy ta'limda virtual muzey, elektron kutubxona, ensiklopediyalar majmuasidan unumli foydalanish usullari.

15. Folklorshunoslikka oid video materiallar, ssenariylar yaratish.
16. Excel dasturi asosida xronologik jadval tuzish va adabiyot darsida qo'llash yo'llari.
17. Jadidchilar ijodini o'rganishda interaktiv doskadan foydalanish.
18. Zamonaviy videokonferensiya rejasini ishlab chiqish. Elektron portfolio yaratish va u bo'yicha taqdimot qilish. Axborot texnologiyalari tatbiq etilgan mashg'ulotlar taqdimoti.

Laboratoriya ishlarini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha laboratoriya ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Kurs ishini tashkil etish bo'yicha ko'rsatmalar

Fan bo'yicha kurs ishlari namunaviy o'quv rejada ko'zda tutilmagan.

Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakli va mazmuni

Mustaqil ta'lim mazmuni ma'ruza va amaliy mashg'ulotlar mavzulari asosida shakllantiriladi. Biroq mustaqil ta'lim ko'proq ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda o'rganilmagan masalalarni o'z ichiga qamrab oladi. Mustaqil ta'lim asosida o'qib-o'rganilgan masalalar fan bo'yicha oraliq va yakuniy nazorat ishlari savollarida o'z aksini topadi.

Mustaqil ta'limni tayyorlashda muayyan fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish tavsiya etiladi:

- darslik va o'quv qo'llanmalar boyicha fan mavzularini o'rganish;
- adabiyotlar asosida referat va o'quv loyihalar yozish;
- mavzularga oid taqdimotlar tayyorlash;
- Internet tarmog'idan axborot izlash va tahlil etish;
- muayyan mavzular uchun ma'lumotlar bankini tayyorlash;
- ma'lumotlar banki asosida elektorn o'quv-metodik materiallar yaratish.

Tavsiya etiladigan mustaqil ishlarning mavzulari:

1. Zamonaviy axborot texnologiyalari kadrlar tayyorlash milliy modelini metodik va didaktik ta'minlash vositasidir.
2. Zamonaviy axborot texnologiyalarning shakllanishi va tadrijiy rivojlanish tarixi.
3. "Language Learning & Technology" jurnali maqolalarining tahlili.
4. "CALL" laboratoriyasi yangiliklari.
5. Keys-stadi va axborot texnologiyasi.
6. Loyiha ta'lim texnologiyasini amalga oshirishda axborot tehnologiyasi
7. Til ta'limida interaktiv doskalar.
8. Ta'limda AKT – foydali va zararli tomonlari.
9. O'zbek tili multimedia dasturi.
10. Adabiy ta'limda AKT ning ahamiyati.

Dasturning axborot-uslubiy ta'minoti

Mazkur fanni o'qitish jarayonida interaktiv usullardan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining taqdimot, multimedia va elektron-texnologik

vositalardan foydalaniladi. Amaliy mashg'ulotlarda "Aqliy hujum", klaster, insert, blits-so'rov, keys stadi kabilardan foydalaniladi.

Foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati **Asosiy adabiyotlar**

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch".–T., 2008. -176 b.
2. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.
3. Adilova S. O'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
5. Yusupova Sh., G'oziyeva O. Ona tili o'qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013. -134 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T., 1994.
2. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug'ati. – T.: TDPU, 2002. – 27 b.
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2007.
4. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. – 145 b.
5. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi.– T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
6. A.Okal. A Global Simulation. The University of Arizona. -Tucson, CERCLL. 2012. -87 p.
7. Jim Burke. The English Teacher's Companion. -Heinemann; 4th edition. - 2012. –392 p.
8. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Internet saytlari

1. www.Lex.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.bimm.uz
4. www.twipx.com
5. www.yazikoznanie.ru

1-MODUL: KIRISH. TA'LIMDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARINING O'RNI

REJA

1. Fanning maqsadi va vazifalari, ahamiyati.
2. Ta'limni axborotlashtirishga oid huquqiy-me'yoriy hujjatlar.
3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari.
4. Elektron pedagogika tushunchasi.
5. Axborot-ta'lim muhitining tarkibi va tuzilishi.
6. Ta'lim jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llashning ahamiyati, muammolar va yechimlar.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganidek: “Bugun o'tgan davr mobaynida amalga oshirgan ishlarimizni xolisona baholar ekanmiz, ta'lim-tarbiya sohasida hali qiladigan ko'pgina vazifalarimiz borligini, o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolarni hal qilish, eng muhimi, bu borada boshlagan islohotlarni mantiqiy yakuniga yetkazish, ularning yarim yo'lda qolib ketishiga, o'zibo'larchilikka yo'l qo'ymaslik zarurligini hammamiz yaxshi tushunamiz. Avvalambor, barcha ta'lim muassasalari, xususan, umumta'lim maktablari va akadem litsey va kasb-hunar kollejlari davr talablariga mos holda rivojlantirish, zamonaviy jihoz va uskunalari, o'quv laboratoriyalari va ustaxonalar bilan ta'minlashni davom ettirish, yangi ta'lim standartlari, dastur va qo'llanmalarni joriy etish masalasini eng muhim vazifamiz sifatida ko'rishimiz darkor”.¹

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning 2016-yil 13- maydagi “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida”gi Farmoni o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchilari oldiga “zamonaviy ta'lim texnologiyalarini chuqur o'zlashtirgan, davr talablariga javob beradigan yuksak malakali ilmiy va pedagog kadrlar tayyorlash, umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari, oliy ta'lim muassasalarida o'zbek tili va adabiyoti fanini o'qitishning yangi va samarali metodlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, ilg'or pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish” borasida ulkan vazifalarni qo'ydi. “O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari” fanida o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish metodikasi haqida ma'lumot beriladi.

Fanning maqsadi va vazifalari, ahamiyati. “O'zbek tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari” fani o'zbek tili va adabiyotini o'qitishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish metodikasini talabalarga o'rgatishga yo'naltirilgan.

¹ Karimov I.A. “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch”.-T., 2008. -76 b

Fanni o‘qitishdan maqsad - Fanni o‘qitishdan maqsad – bo‘lajak o‘zbek tili va adabiyoti o‘qituvchilarini dars jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga oid bilim, ko‘nikma va malakalar bilan qurollantirish.

Fanning vazifasi talabalarga o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida qo‘llaniladigan pedagogik dasturiy vositalar haqida, aynan o‘zbek tili va adabiyoti darslari uchun tayyorlanadigan resurslarga qo‘yiladigan talablar to‘g‘risida, bu boradagi chet el tajribasi haqida ma‘lumot berish hamda talabalarda axborot asri sharoitida pedagogik jarayonni samarali tashkil etish uchun zarur ko‘nikmalarni, ijodiy va texnologik madaniyatni shakllantirishdan iborat.

2. Ta’limni axborotlashtirishga oid huquqiy-me’yoriy hujjatlar

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining palatalari, O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilish huquqiga ega bo‘lgan organlar yoki mansabdor shaxslar hisoblanadi. Me’yoriy-huquqiy hujjatlarning turlariga quyidagilar kiradi:

- 1.Ozbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- 2.O‘zbekiston Respublikasining qonunlari;
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari;
- 4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari;
- 5.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- 6.Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari;
- 7.Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari. Me'yoriy-huquqiy hujjatlar qonun hujjatlaridir va ular O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari majmuini tashkil qiladi. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari qonunlardir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarning buyruqlari hamda qarorlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari qonunosti hujjatlaridir.

“O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASI”DA AXBOROTLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA NIMA DEYILGAN?

O‘zbekiston Respublikasining “TA’LIM TO‘G‘RISIDA”GI QONUNI 1997-yil 29- avgustda qabul qilingan bo‘lib ushbu qonun 5 bo‘lim va 34 moddadan iborat.

Respublikada axborot kommunikativ texnologiyalari bo'yicha yagona milliy tarmoqning ishga tushirilishi ta'lim tizimining turlari va yo'nalishlari bo'yicha axborot resurslari bilan ta'minlanishiga olib keldi.

XXI asrning birinchi o'n yilligida mamlakatimizda ta'lim, fan va madaniyat yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan barcha o'quv muassasalari Ta'lim portali va Internet xalqaro aloqa tarmog'iga ulanishiga erishildi. Shu sababli pedagog va o'qituvchilar ta'lim jarayonida masofadan turib o'qitish (masofaviy ta'lim)ni samarali tashkil etish imkoniyatiga ega bo'lmoqdalar.

Elektron axborot ta'lim resurslari ta'lim sifatini ta'minlashning omili sifatida. Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan hozirgi davrda ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'limda foydalanishga mamlakatimizda ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida «Elektron ta'lim» milliy tizimini yaratish» investitsiya loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012- yil 16- apreldagi PQ–1740-son qarori ta'lim sohasida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga zamin yaratadi.

Ta'lim tizimiga elektron ta'limni joriy etish birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining axborotlashuviga, axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqishga bog'liq. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirish, shu jumladan elektron ta'limni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Elektron ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan.

Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida elektron ta'limdan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O'quv jarayonini elektron ta'lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'l hisoblanadi.

2. Ta'lim tizimiga elektron axborot ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, takomillashtirishdagi asosiy vazifalari va muammolar

Ta'lim tizimiga elektron axborot ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish, ta'lim muassasalarining moddiy texnik bazasini holatini tanqidiy baholash va takomillashtirishdagi asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- elektron ta'limni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun lozim moddiy-texnika bazasini yaratish;

- o‘quv jarayoni uchun elektron ta’limga mo‘ljallangan ta’lim texnologiyalarini yaratish va qo‘llash;
- talabalarni zamonaviy elektron ta’lim texnologiyalari sohasida bilim va ko‘nikmalarini shakllantirish;
- elektron ta’limni joriy etish orqali ta’lim tarbiya va o‘qitish jarayonining samaradorligini oshirish.

Elektron axborot resurslari ta’limga oid axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usul va vositalari majmuidan iborat bo‘lib, u ta’limga oid turli axborotlarning yaratilishini belgilovchi ichki va tashqi omillarga bog‘liq:

- ichki omillar – bu axborotlarning yaratilishi, turlari, xossalari, axborotlar bilan turli amallarni bajarish, ularni jamlash, uzatish, saqlash va h.k.
- tashqi omillar – bu elektron ta’limning texnika-uskunaviy vositalari orqali axborotlar bilan turli vazifalarni amalga oshirishni bildiradi.

Elektron ta’limdan foydalanish esa, ular bilan muloqotda foydalanuvchilarning ko‘nikma va malakalariga bog‘liq. Shuning uchun, dastlab zamonaviy telekommunikatsiya vositalarining o‘zi nimaligini bilib olish muhim sanaladi.

Zamonaviy telekommunikatsiya vositalari imkoniyatlari juda keng tizim bo‘lib, unga ma’lum bo‘lgan kompyuter, multimedia vositalari, kompyuter tarmoqlari, Internet kabi tushunchalardan tashqari qator yangi tushunchalar ham kiradi. Bularga axborot tizimlari, axborot tizimlarini boshqarish, axborotlarni uzatish tizimlari, ma’lumotlar ombori, ma’lumotlar omborini boshqarish tizimi, bilimlar ombori kabilar misol bo‘lishi mumkin. “XXI asr - axborotlashtirish asri”da ta’lim sohasiga elektron ta’limni joriy etish, har bir ta’lim muassasasida:

- o‘qitish va o‘qish jarayonining;
- ta’lim muassasasi boshqarilishining;
- ta’lim muassasasi bo‘linmalarining;
- ta’lim muassasasi faoliyati muhitining axborotlashtirilishini talab qiladi.

Ta’lim muassasida elektron ta’lim muhitini tashkil etish bosqichlari psixologik axborot muhitini yaratishdan boshlanadi. Texnologik va ilmiy natijalar, yaratilgan dasturiy mahsulotlar asosida zamonaviy vositalar va metodlardan foydalanishga ehtiyoj shakllantiriladi. Bunda har bir ta’lim muassasida individual va maslahat mashg‘ulotlar asosida pedagoglarni mustaqil va kompyuter ta’limi tizimini tashkil etish kerak.

Respublikamizda boshqa ilg‘or mamlakatlar qatori zamonaviy axborot texnologiyalaridan ta’limda faol foydalanishga kirishildi. Lekin, **elektron ta’limni joriy etishda qator qiyinchiliklar mavjud bo‘lib, u quyidagilardir:**

- elektron ta’limni joriy etishga pedagogik jamoalarning yetarli tayyor emasligi;
- elektron ta’lim imkoniyatlari haqida tasavvurlarning ozligi, ularni qo‘llash bo‘yicha metodik ishlanmalarining kamligi;
- elektron ta’limda foydalaniladigan kompyuter texnologiyalari vositalarining qimmatligi;
- elektron ta’lim bo‘yicha mutaxassislarning yetishmasligi.

Elektron ta'limni joriy etish keng ma'noda ta'lim sohasini metodologiya, o'qitish maqsadlarining psixologik-pedagogik tadbig'iga yo'naltirilgan yangi axborot texnologiyalari vositalarini samarali foydalanish va qayta ishlash amaliyoti bilan ta'minlash sifatida qaraladi. Bundan tashqari, elektron ta'lim masofali o'qitish tizimining taraqqiyoti uchun baza bo'lib xizmat qiladi. Elektron ta'lim jarayonida ta'lim tizimida yangi axborot texnologiyalari vositalaridan keng ko'lamda foydalanish amalga oshiriladi.

TA'LIMDA AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI

Texnologiyaning rivojlanishi bilan texnik vositalardan foydalanib o'qitish uchun birgina kompyuterning mavjudligi kifoya bo'lib qoldi. Avvallari televizor, videomagnitofon, kinoproektor, diaproektor va boshqalar bajargan funksiyalarni kompyuter muvaffaqiyat bilan o'z zimmasiga oldi. Qolaversa, axborotni uzatish, saqlash, tasvirlash sifati sezilarli darajada ortdi. ²

Hozirgi kunga kelib, kompyuter savodxonligi madaniyatning muhim belgisiga aylanib ulgurdi, kelajakda esa u har bir insonga qaerda, qaysi uchastkada ishlamasin zaruratga aylanadi. Demak, kompyuter ishi, kompyuterdan foydalanishga o'rgatish eng yaqin vaqt ichida umumiy ishga aylanishi shubhasiz.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining *vositalari* qatoriga: kompyuter, skaner, videoko'z, videokamera, LCD proektor, interaktiv elektron doska, faks modem, telefon, elektron pochta, multimedia vositalari, Internet va Intranet tarmoqalari, mobil aloqa tizimlari, ma'lumotlar omborini boshqarish tizimlari, sun'iy intellekt tizimlarini kiritish mumkin.

Axborot texnologiyasi vositalari muayyan amallarni ongli va rejali amalga oshirishda o'zlashtiriladi. Bu jarayon quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- kompyuter, shuningdek, printer, modem, mikrofon va ovoz eshittirish qurilmasi, skaner, raqamli videokamera, multimedia proektor, chizish plansheti, musiqali klaviatura kabilar hamda ularning dasturiy ta'minoti;

- uskunaviy dasturiy ta'minot;

- virtual matn konstruktorlari, multiplikatsiyalar, musiqalar, fizik modellar, geografik xaritalar, ekran protsessorlari va h.k.;

- axborotlar majmui – ma'lumotnomalar, entsiklopediyalar, virtual muzeylar va h.k.;

- texnik ko'nikmalar trenajyorlari (tugmachalar majmuidan tugmachalarga qaramasdan ma'lumot kiritish, dasturiy vositalarni dastlabki o'zlashtirish va h.k.).

Axborot texnologiyalari vositalarining markazida turuvchisi kompyuterdir.

Hozirgi kunda **kompyuterlar** ta'lim tizimida asosan to'rt yo'nalishda:

² Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 35 p.

- o‘rganish ob‘ekti sifatida;
- o‘qitishning texnik vositalari sifatida;
- ta‘limni boshqarishda;
- ilmiy-pedagogik izlanishlarda foydalanilmoqda.

O‘quv-tarbiya jarayonida kompyuterlar asosan to‘rt tartibda:

- *passiv qo‘llash* – kompyuter oddiy hisoblagich kabi;
- *reaktiv muloqat* – kompyuter imtihon oluvchi sifatida;
- *faol muloqat* – kompyuter talabaga yo‘l – yo‘riq berish va imtihon olishda;
- *interfaol muloqat* – kompyuter sun‘iy intellekt sifatida, ya‘ni talaba bilan muloqat qilishda foydalaniladi.

Ta‘limda zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etilishi:

- fan sohalarini axborotlashtirishni;
- o‘quv faoliyatni intellektuallashtirishni;
- integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishni;
- ta‘lim tizimi infratuzilmasi va uni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirishga olib keladi.

Pedagogik ta‘lim jarayonlarini zamonaviy axborot texnologiyalari asosida samarali tashkil etish:

- masofaviy o‘quv kurslarini va elektron adabiyotlarni yaratuvchi jamoaga pedagoglar, kompyuter dasturchilar, tegishli mutaxassislarning birlashuvini;
- pedagoglar o‘rtasida vazifalarning taqsimlanishini;
- ta‘lim jarayonini tashkil qilishni takomillashtirish va pedagogik faoliyatning samaradorligini monitoring etishni taqozo etadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta‘lim jarayonlariga joriy etilishi:

- talabaga kasbiy bilimlarni egallashiga;
- o‘rganilayotgan hodisa va jarayonlarni modellashtirish orqali fan sohasini chuqur o‘zlashtirilishiga;
- o‘quv faoliyatining xilma-xil tashkil etilishi hisobiga talabaning mustaqil faoliyati sohasining kengayishiga;
- interaktiv muloqot imkoniyatlarining joriy etilishi asosida o‘qitish jarayonini individuallashtirish va differentsiyalashtirishga;

- sun'iy intellekt tizimining imkoniyatlaridan foydalanish orqali talabaning o'quv materiallarini o'zlashtirish strategiyasini egallashiga;
- axborot jamiyati a'zosi sifatida unda axborot madaniyatining shakllanishiga;
- o'rganilayotgan jarayon va hodisalarni kompyuter texnologiyalari vositasida taqdim etish, talabalarda fan asoslariga qiziqishni va faollikni oshirishga olib kelishi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Portal – bu foydalanuvchiga axborotlarni oddiy navigatsiya va keng ko'lamli qulay interfeys orqali yetkazish uchun turli axborot resurslarini birlashtiruvchi telekommunikatsiya tarmog'i tuguni bo'lib, u:

- ko'p sonli foydalanuvchilarga xizmat ko'rsatishi;
- axborotlar ko'lamining kengligi;
- asosiy tarmoq formatlarini qo'llashi;
- oson va samarali qidirish tizimining joriy etilishi;
- axborot resurslari integratsiyasi;
- axborot xavfsizligini ta'minlashi;
- axborotlarni tabaqalashtirishi;
- bilimlarni boshqarish-tahlil etishi bilan tavsiflanadi.

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch".–T., 2008. -176 b.
2. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.
3. Adilova S. O'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
5. Yusupova Sh., G'oziyeva O. Ona tili o'qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013. -134 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Yo'ldoshev Q. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T., 1994.
2. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug'ati. – T.: TDPU, 2002. – 27 b.
3. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2007.

4. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. – 145 b.
5. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.– T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
6. A.Okal. A Global Simulation. The University of Arizona. -Tucson, CERCLL. 2012. -87 p.
7. Jim Burke. The English Teacher's Companion. -Heinemann; 4th edition. - 2012. –392 p.
8. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

2-MODUL. PEDAGOGIK DASTURIY VOSITALAR YARATISHGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Reja:

1. Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha.
2. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo‘yiladigan talablar.
3. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish.
4. Dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi.

1. Pedagogik dasturiy vositalar haqida tushuncha

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta‘lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta‘minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- o‘rgatuvchi dasturlar – o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;
- test dasturlari – egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;
- mashq qildirgichlar - avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- o‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar.

2. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishga qo‘yiladigan talablar

Pedagogik dasturiy vositalarni yaratish texnologiyasini amalga oshirish maqsadida ularning an‘anaviy vositalardan ustunligini tasdiqlovchi qator ijobiy omillar mavjud. Mazkur omillar didaktik, psixologik, iqtisodiy, fiziologik guruhlarga ajratildi.

Pedagogik dasturiy vositalarga qo‘yiladigan didaktik talablarga quyidagilar kiradi: ilmiylik, tushunarli, qat‘iy va tizimli bayon etilishi bilan birgalikda (pedagogika, psixologiya, informatika, ergonomikaning asosiy tamoyillarini, zamonaviy fanning fundamental asoslarini hisobga olib, o‘quv faoliyati mazmunini qurish imkoniyatini ta‘minlash), uzluksizlik va yaxlitlik (ilgari o‘rganilgan

bilimlarning mantiqiy oqibati hamda to'ldiruvchisi hisoblanadi), izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish (o'qitish mustaqilligi hamda faollilik xususiyatining mavjudligi), o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Metodik talablarga quyidagilar kiradi: aniq o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish, ma'lum bir fanning o'ziga xosligini hisobga olish, axborotni zamonaviy metodlari o'zaro bog'liqliligi, o'zaro aloqadorligi, turli-tumanligi, amalga oshirilishi.

Psixologik talablarga idrok etish (verbal-mantiqiy, sensor-pertseptiv), tafakkur (tushunchaviy-nazariy, ko'rgazmali-amaliy), diqqati (qat'iyiligi, boshqaga ko'chishi), motivatsiya (ishlashda faol shakllari, yuqori darajada ko'rgazmalilik, o'z vaqtida qayta aloqa yordamida o'quvchilarning yuqori darajadagi motivatsiyalarini doimiy ravishda rag'batlantirish), xotira, tasavvuri, yoshi va individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish (egallagan bilim, ko'nikma va malakalarini hisobga olib, o'quv fani mazmuni hamda o'quv masalalari murakkablik darajasi o'quvchilarning yosh imkoniyatlari va individual xususiyatlariga mos kelishi, o'quv materialini o'zlashtirishda ortiqcha hishayajonli, asabiy, aqliy yuklamalardan ta'sirlanishdan himoyalash) kiradi.

Texnik talablarga zamonaviy universal shaxsiy kompyuterlar, tashqi qurilmalari, test o'tkaziladigan manbalar kiradi.

Tarmoq talablariga «mijoz-server» arxitekturasi, Internet-navigatorlar, tarmoq operatsion tizimlari, telekommunikatsiya, boshqaruv vositalari (o'qitish jarayonini individual va jamoaviy ishlari, tashqi qayta aloqa) kiradi.

Estetik talablarga quyidagilar kiradi: tartiblilik va ifodalilik (elementlari, joylashishi, o'lchami, rangi), bezashning funktsional vazifasi va ergonomik talablarga mosligi.

Maxsus talablarga quyidagilar kiradi: interfaollik, maqsadga yo'nalganlik, mustaqillik va moslashuvchanlik, audiolashtirish, ko'rgazmalilik, kirish nazorati, intellektual rivojlanish, differentsiatsiyalash (tabaqalashtirish), kreativlik, ochiqlik, qayta aloqa, funktsionalilik, ishonchlilik.

Ergonomik talablarga quyidagilar kiradi: do'stonalik, foydalanuvchiga moslashish, ekran shakllarini tashkil etish.

Metodik talablar pedagogik dasturiy vositalar asosida o'qitishga mo'ljallangan o'quv fanining o'ziga xos xususiyatlarini, uning qonuniyatlarini, izlanish metodlari, axborotga ishlov berishning zamonaviy usullarini joriy qilish imkoniyatlarini hisobga olishni ko'zda tutadi. Fanlardan yaratiladigan pedagogik dasturiy vositalar quyidagi metodik talablarga javob berishi kerak:

1. Pedagogik dasturiy vositalar – o'quv materialini taqdim etishning tushunchali, obrazli va harakatli komponentlarining o'zaro bog'liqligiga tayangan holda qurilishi.

2. Pedagogik dasturiy vositalar o'quv materialini yuqori tartibli tuzilma ko'rinishida ta'minlashi. Fanlararo mantiqiy o'zaro bog'liqlikning hisobga olinishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalarda ta'lim oluvchiga o'quv materialini bosqichma-bosqich o'zlashtirganligini turli xildagi nazoratlarni amalga oshirish

asosida aniqlash imkoniyatlarining yaratilishi.

3. Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olish

Pedagogik dasturiy vositalarni qo'llash asosida o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishda o'quvchilarning funktsional va psixofiziologik imkoniyatlari inobatga olinishi shart. Pedagoglarning pedagogik dasturiy vositalar asosida imkon qadar ko'proq ma'lumotlarni yoritishga intilishi o'quvchini ortiqcha toliqtirishga olib kelishi mumkin. O'z navbatida ma'lumotlarni uzatish tezligini oshirish esa ma'lumotlarni o'zlashtirish sifatiniing pasayishiga, xatoliklar sonining ortib borishiga, o'quvchining o'zini his qilishi va sog'ligiga salbiy ta'sir qiladi.

Fiziologik-gigienik sohada amalga oshirilgan tadqiqotlar kompyuterda ishlashda bilim oluvchilarning aqliy ish qobiliyati o'zlashtiriladigan ma'lumotlar hajmiga teskari proportsional ravishda o'zgarib borishini e'tirof etadi. Bu quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

- ko'rish organlariga tushadigan yuklamaning ortib borishi;
- yangiliklarni qabul qilishda yuzaga keluvchi dastlabki ruhiy ko'tarinkilikning tinib qolishi;
- yuzaga kelishi mumkin bo'lgan noaniqlik va xatoliklar tufayli salbiy hissiyotlarning yig'ilib borishi;
- katta miqdordagi ta'limiy resurslarni qabul qilish undan keyingi axborot resurslarini faol o'zlashtirishga to'sqinlik qiladi.

Bu holat ta'lim jarayonida pedagogik dasturiy vositalarni ishlab chiqish va joriy etishda zarur didaktik, psixofiziologik hamda metodik talablarni hisobga olgan holda ishlab chiqilishi zaruratini yuzaga chiqaradi.

Pedagogik dasturiy vositalarning psixofiziologik jihatdan samaradorligi birinchidan: talabalarning o'quv materiallarini o'zlashtirishi, tarbiyalanganlik va intellektual rivojlanganligi, ishchanlik ko'rsatkichlari, motivatsion barqarorlik darajalari bilan belgilanadi. Ikkinchidan, o'qituvchi faoliyati bilan bog'liq bo'lib, o'qitish kontseptsiyalari, pedagogik texnologiyalari va ta'lim vositalaridan ratsional foydalanish ko'rsatkichlari, o'qituvchining mehnat faoliyatiga nisbatan barqaror motivatsiyasi, ish qobiliyati bilan belgilanadi.

4. Dasturlash tillarida pedagogik-dasturiy vositalar yaratish texnologiyasi

Pedagogik dasturiy vositalarning gipermatn hujjatlarini ishlab chiqishda Microsoft Front-Page (HTML-Hyper Text Markup Language), Alliare Home Site (HTML), Microsoft Power Point, Microsoft Word kabi dasturiy vositalardan foydalaniladi.

Mavzuning asosiy tushunchalariga oid o'quv materiallarini yaratishda rastri yoki vektorli rasmlar bilan ishlovchi dasturlardan foydalanish zarur bo'ladi. Ular qatoriga Corel Draw, Corel Xara, Corel Photo Paint, Adobe Photo Shop, Adobe

Illustrator kabilarni kiritish mumkin.

Dinamik illyustratsiyali o'quv materiallari yaratishda Disreet 3D Studio MAX, Alais Wave Front, Maya, Light Wave, SoftImage 3d, Adobe Image Ready, Gif Animator, Macromedia Flash, Adobe Premier kabi maxsus dasturlardan foydalaniladi.

Ovozli jarayonlarni taqdim etish va ovozni tahrir qilish SonicFoundry SoundForge, Wave Lab, Sound Recorder va boshqa dasturlar yordamida amalga oshiriladi.³

Ma'lumotlar bazalarini yaratishda Microsoft Excel, Microsoft Access kabi dasturlar qo'llaniladi.

1.1-rasmda pedagogik dasturiy vositalar yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar tizimining bog'lanishi aks ettirilgan. Rasmdan ko'rinib turibdiki, matnli protsessorlar va maxsus dasturlar yordamida pedagogik dasturiy vositalarni yaratishda, foydalanuvchi undan qisman foydalana olmaslik bilan bog'liq muammolar tug'ilishi mumkin. Foydalanuvchi pedagogik dasturiy vositalar yaratilgan dasturiy ta'minotga ega bo'lishi shart.

³ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 18 p.



Pedagogik dasturiy vositalar yaratishda qo'llaniladigan dasturiy vositalar tarkibi

Pedagogik dasturiy vositalarni Internet tarmog'iga joylashtirishda HTML gipermatn hujjatlaridan foydalaniladi, chunki u Internet tizimining gipermatnli tili hisoblanadi hamda unda yaratilgan hujjatlarni o'qish dasturi Microsoft Windows ning operatsion tizimi tarkibiga kiradi. Shuni ta'kidlash joizki, bunda pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlari va mukammalligi faqat dasturchining qobiliyat darajasi bilan chegaralanadi. Multimedia dasturiy mahsulotlarini yaratish uchun juda katta tayyorgarlik zarur. Bo'lg'usi mutaxassis nafaqat ko'plab dasturlash tillarini, balki o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturlar yaratishning metodik tamoyillari bo'yicha bilimlarni egallashi lozim. Bu yerda tayyorgarlikni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- informatikaning umumiy asoslari;
- grafika bilan ishlash;
- ovoz bilan ishlash;
- integratsiyalashgan muhitda ishlash;
- o'rgatuvchi dasturlarni yaratish metodikasini egallash.

Bu bosqichlar o'zida multimediali o'rgatuvchi dasturlar yaratish ko'nikmasini shakllantirishda muhim hisoblanadi. Biror bosqichni o'zlashtirmaslik o'rgatish jarayonini to'liq bo'lishini ta'minlay olmaydi. Agarda biror bosqich bo'yicha bo'lg'usi o'qituvchida bilimlar avvaldan mavjud bo'lsa, unda malakasini oshirish bo'yicha qo'shimcha imkoniyat paydo bo'ladi.

Odatda o'rgatuvchi multimediali dasturiy vositalar yaratish bilan kompyuter dasturchilari shug'ullanadilar. Ammo bu dasturchilar o'zlari yaratayotgan mahsulot sifati bo'yicha yetarli bilimga ega bo'lsalarda, ko'p hollarda o'qitish metodikasini yetarlicha o'zlashtirmagan bo'lishlari mumkin. Bu esa o'rgatuvchi dasturiy vositaning metodik talablarga to'liq javob berishini ta'minlay olmaydi. Shu sababdan, dasturiy multimedia mahsulotlarni yarata olish malakasini shakllantirishda ko'p bosqichli tayyorgarlikni amalga oshirish zarur.

Ushbu tayyorgarlikning dastlabki bosqichi informatika fanini o'rganish bilan bog'liq bo'lib, informatikaning umumiy asoslarini o'rganish ommabop dasturlar bilan tanishishni ta'minlaydi. Boshlang'ich bosqichda albatta MS Windows qobig'i va MS Office dasturiy paketi o'rganilishi lozim. Bu dasturlarni o'zlashtirish zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning dastlabki qo'nikmalarini shakllantiradi. Bunda grafik qobiqlar bilan ishlash ko'nikmasining shakllanishi oddiy va tushunarli dasturlar kompyuter texnologiyalarining amaliy metodlarini o'rganishni dastlabki bosqichida muhim ahamiyat kasb etadi. MS Office komponentlari ma'lum ma'noda universal sanalgani uchun talabalarni axborot texnologiyalarini o'zlashtirishlarida mustahkam asos bo'ladi.

Tayyorgarlikning ikkinchi bosqichi – grafika dasturlari bilan ishlashga o'rganishdan iborat. Bu bosqich grafikaning turlariga mos ravishda bir qancha kichik bosqichlarga bo'linadi:

- rastrli;
- vektorli;
- uch o'lchamli;
- animatsiyali.

O'rganish ketma-ketligi juda muhim emas, ammo animatsiya asoslari bilan tanishishni statik grafikaning barcha turlarini o'zlashtirgandan keyin amalga oshirish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi bosqichdagi kabi grafikani o'rganishni eng ommaviy dasturlardan boshlash kerak. Adobe PhotoShop rastrli grafika dasturlari orasida keng ommalashgan bo'lib, bu dasturda rastrli rasmlar bilan ishlashning samarali metodlari mujassamlashgan. Bundan tashqari, mazkur dasturning oxirgi versiyalari vektorli jarayonlarning ma'lum bir imkoniyatlariga ega. Agarda boshlang'ich ko'nikmalar zaruriyati bo'lsa, u holda Windows va Office ning standart dasturlari MS Paint va MS Photo Editor dan foydalanish mumkin. Bu ikki dastur ma'lum bir doirada PhotoShop ning imkoniyatlari va metodlarini takrorlaydi. Rastrli grafika vositalarini o'rganishda urg'uni yangi tasvirlarni yaratishga emas, balki tayyor tasvirlarni tahrirlashga qaratmoq darkor. Chunki, talaba o'rgatuvchi dasturlarni yaratishda rassom sifatida emas, balki tahrirchi, korrektor sifatida kasbiy faoliyat olib boradi. Rastrli dasturlar birinchi navbatda skaner yordamida olingan yoki Internetdan olingan tasvirlarni tahrirlashda yordam beradi.

Ommaviyligi jihatdan Corel Draw dasturi ham keng tarqalgan. Adobe firmasining yanada sodda dasturlaridan biri – **Illustrator** sanaladi. Bu ikki dastur vektor grafikasining keng imkoniyatli vositasini tashkil qiladi. Vektorli dasturlar turli grafiklarni va chizmalarni yaratish, tahrirlash uchun samarali vositalardir.

Uch o'lchamli grafika umumiy dasturning majburiy qismiga kirishi shart emas, chunki u faqat real ob'ektlarni modellashtirishda ishlatiladi. Ammo, 3D ni o'rganishni aniq va tabiiy fanlar yo'nalishlari bo'yicha o'qituvchilar tayyorlash ta'lim mazmuniga kiritishni tavsiya etish mumkin. Eng ko'p tarqalgan uch o'lchamli redaktorlar sifatida 3D Studio Max va Maya larni qarash mumkin. Ular uncha murakkab bo'lmagan interfeysga ega. Rastrlil va vektorli grafika bilan ishlash bilimlariga ega bo'lib, uch o'lchamli grafikada ishlash ko'nikmasini tezda o'zlashtirish mumkin.

Animatsiyali grafikani yaratishni bir-biriga yaqin interfeysga ega yuqorida keltirilgan dasturlarda amalga oshirish imkoniyati mavjud. Ular asosan grafika turlari bilan farqlanadi: rastrlil grafika uchun Adobe ImageReady , vektorli grafika uchun – Corel R.A.V.E., uch o'lchamli grafika uchun esa – 3D Studio Max o'rinlidir.

Navbatdagi bosqichda ovoz bilan ishlash metodlari o'rganiladi. Bu yerda ovozlarni yozish, tahrirlash va qayta yaratish masalalari muhim hisoblanadi. Bu masalalarni Sound Forge dasturi yordamida hal etish mumkin. Bu dastur ovozni yozish, fayllarni asosiy ovoz formatlariga o'tkazishni amalga oshiradi. Undan tashqari, mazkur dastur yordamida ovozlarni tahrirlash, ovozga maxsus effektlarni qo'shish imkoniyatlari ham mavjud. Ovozlarni eshitish uchun ommabop bo'lgan Winamp dasturidan foydalanish mumkin. Ammo multimedia mahsulotlarida ovoz namoyish etiladigan dastur bilan integrallashgan bo'lib, eshitish uchun maxsus vositalarni talab etmaydi.

Grafika yaratish va ovoz bilan ishlash bilimiga hamda metodlariga ega mutaxassis keyingi navbatda multimedia mahsulotlarini namoyish etish va yaratish vositalarini o'rganadi. Bunga birinchi navbatda HTML-dasturlash, ya'ni WYSIWYG dasturlari guruhiga mansub MS Word, MS FrontPage, Macromedia Dreamweaver bilan ishlash, MS PowerPoint da namoyishlar tayyorlash kiradi. SHuningdek, murakkabroq bo'lgan multimediali interaktiv namoyish yaratish dasturi bo'lgan Macromedia Flash, grafika va ovozni qayta ishlash, shuningdek, animatsiya yaratish dasturi bo'lgan Adobe AfterEffect va boshqa dasturlarni tavsiya etish mumkin. Bu bosqichda talaba o'zi o'rgatuvchi multimedia ilovalarini yaratishni bilishi zarur.

Metodik bosqich bo'lg'usi mutaxassisga «qanday va qaysi vositalar bilan o'quv materiallarini o'quvchiga yetkazish kerak?» degan savolga javob berishi zarur. Bu bosqichda ular o'zlarining grafika bo'yicha bilimlari asosida va kompyuterning audio imkoniyatlarini bilgan holda, qaysi vaziyatlarda axborotlarni qanday uzatish maqsadga muvofiqligini aniq bilishlari shart.

Tayanch so'zlar: PDV, namoyish qilish dasturlar, test dasturlari, o'rgatuvchi dasturlar, mashq qildirgichlar, Pedagogik dasturiy vositalarga qo'yiladigan didaktik talablar: ilmiylik, tushunarli, qat'iy va tizimli bayon etilishi bilan

birgalikda, uzluksizlik va yaxlitlik, izchillik, muammolilik, ko'rgazmalilik, faollashtirish, o'qitish natijalarini o'zlashtirish mustahkamliligi, muloqotning interfaolliligi, o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish va amaliyotning yaxlit birligi.

Nazorat savollar:

1. PDV fani haqida ma'lumot bering.
2. PDV turlari va tavsifi.
3. Mualliflik dasturlari deganda nimani tushirasiz?
4. PDV yaratish uchun keng foydalaniladigan dasturlarni sanab bering.
5. PDV yaratishga qo'yiladigan talablar haqida gapirib bering.
6. Pedagogik dastruriy trenajyorlar deganda nimani tushirasiz?
7. PDV yaratish jarayonida programmistlarning, metodik o'qituvchilarning va o'qituvchilarning ma'nosi.
8. Multimediya va gipermedia dasturlash vositalarning instrumental yaratish vositalari haqida gapirib bering.

Adabiyotlar:

1. Begimkulov U.S., Djuraev R.X., Isyanov R.G., Sharipov Sh.S., Adashboev Sh.M., Tsoy M.N. Pedagogik ta'limni axborotlashtirish: nazariya va amaliyot, Toshkent: – 2011.
2. To'raxonov F.B., Xamidov V.C. Simulyatorlardan foydalanilgan holda fizik jarayonlarni modellashtirish". Ta'lim muassalarida elektron axborot-ta'lim muhitini shakllantirishning dolzarb masalalari. O'zMU. – Toshkent: 2011.
3. Xamidov V.S. Fizikani masofali o'qitishda virtual laboratoriyasidan foydalanish. Yosh olimlar va iqtidorli o'quvchilarining ilmiy ishlari to'plami. (Fizika, mexanika-matematika, kompyuter texnologiyalari), Toshkent: 2005. – 204 b.
4. Xamidov V.S., Tigay O.E. Fizikani o'qitishda simulyatorlardan foydalanish. Fizika va astronomiya muammolari. O'qitish metodikasi. Respublika ilmiy va ilmiy-metodik konferentsiya materiallari to'plami, 2010- yil 12-13 - mart. Toshkent: 2010. – 294-496 b.
5. Dehkanov Sh. Simulatorlar: o'quv yurtlarida qo'llash perspektivalari, <http://uz.infocom.uz/>
6. <http://www.ispringsolutions.com>
7. <http://Fizik.uz> , <http://vakhid.zn.uz>

3-MODUL: O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA’LIMIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

REJA

1. Pedagogik dasturiy vositalarning turlari (o‘rgatuvchi dasturlar, test dasturlari, mashq dasturlari, virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar).
2. Matn muharrirlari,
3. Elektron jadvallar.
4. Namoyish etuvchi dasturlar va boshqalar.

I. Pedagogik dasturiy vositalarning turlari (o‘rgatuvchi dasturlar, test dasturlari, mashq dasturlari, virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar).

Pedagogik dasturiy vositalar – kompyuter texnologiyalari yordamida o‘quv jarayonini qisman yoki to‘liq avtomatlashtirish uchun mo‘ljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning o‘qitish vositasi sifatida ishlatiladi. **Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga:** o‘quv fani bo‘yicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yo‘naltirilgan *dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qo‘shimcha yordamchi vositalar* kiradi.

Pedagogik dasturiy vositalarni quyidagilarga ajratish mumkin:

- **o‘rgatuvchi dasturlar** – o‘quvchilarning bilim darajasi va qiziqishlaridan kelib chiqib yangi bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltiradi;
- **test dasturlari** – egallangan bilim, malaka va ko‘nikmalarni tekshirish yoki baholash maqsadlarida qo‘llaniladi;
- **mashq qildirgichlar** – avval o‘zlashtirilgan o‘quv materialini takrorlash va mustahkamlashga xizmat qiladi;
- **o‘qituvchi ishtirokidagi virtual o‘quv muhitini shakllantiruvchi dasturlar** (Virtual borliq tizimlari).

Pedagogik dasturiy vositalarning gipermatn hujjatlarini ishlab chiqishda Microsoft Front-Page (HTML –Hyper Text Markup Language), Alliare Home Site (HTML), Microsoft Power Point, Microsoft Word kabi dasturiy vositalardan foydalaniladi.

Mavzuning asosiy tushunchalariga oid o‘quv materiallarini yaratishda rastrli yoki vektorli rasmlar bilan ishlovchi dasturlardan foydalanish zarur bo‘ladi. Ular qatoriga Corel Draw, Corel Xara, Corel Photo Paint, Adobe Photo Shop, Adobe Illustrator kabilarni kiritish mumkin.

Dinamik illyustratsiyali o‘quv materiallari yaratishda Disreet 3D Studio MAX, Alais Wave Front, Maya, Light Wave, SoftImage 3d, Adobe Image Ready, Gif Animator, Macromedia Flash, Adobe Premier kabi maxsus dasturlardan foydalaniladi.

Ovozli jarayonlarni taqdim etish va ovozni tahrir qilish SonicFoundry SoundForge, Wave Lab, Sound Recorder va boshqa dasturlar yordamida amalga oshiriladi.⁴

Ma'lumotlar bazalarini yaratishda Microsoft Excel, Microsoft Access kabi dasturlar qo'llaniladi.

Pedagogik dasturiy vositalarni Internet tarmog'iga joylashtirishda HTML gipermatn hujjatlaridan foydalaniladi, chunki u Internet tizimining gipermatnli tili hisoblanadi hamda unda yaratilgan hujjatlarni o'qish dasturi Microsoft Windowsning operatsion tizimi tarkibiga kiradi. Suni ta'kidlash joizki, bunda pedagogik dasturiy vositalarning imkoniyatlari va mukammalligi faqat dasturchining qobiliyat darajasi bilan chegaralanadi.

Til ta'limida foydalaniladigan amaliy dasturiy vositalar sirasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

Microsoft Word; Microsoft Power Point; Ispring; MtestX; Microsoft Office Publisher; HotPotatoes; Excel; Adobe Photoshop va b.

Kompyuterda qo'shimcha qo'llab-quvvatlovchi apparat: analogli-raqamli va raqamli-analogli o'zgartirgich videoprotsessorlar, dekoderlar, fayllarni siqish uchun maxsus integral sxemalar va boshqalarning bo'lishi taqozo qilinadi. Bugungi kunda ana shu texnik-dasturiy vositalar bilan deyarli barcha o'quv muassasalari ta'minlangan. Yuqorida sanab o'tilgan amaliy dasturiy vositalar har qanday kompyuter tizimida (Windows-2003, Windows-2007, Windows-2010 v.b.) amal qilishi u bilan ishlash jarayonida hech qanday qiyinchiliklarni yuzaga keltirmaydi.

Quyida biz yuqorida sanab o'tilgan amaliy dasturiy vositalarning ayrimlariga to'xtalib o'tmoqdamiz.

O'rgatuvchi dasturlar.

Test dasturlari.

Mashq dasturlari. Ta'lim jarayoni samaradorligi interfaol didaktik o'yinlar va mashq qildirgichlardan foydalanishni taqozo etadi. Ular o'quvchilarning jamoa bo'lib yoki individual faoliyatida malaka va ko'nikmalarini shakllantirish, rivojlantirishga yordam beradi. Aynan didaktik o'yinlar va mashq qildirgichlarni yaratish elektron o'quv-metodik majmualar yaratishda katta qiyinchiliklar tug'diradi. Bu dasturiy-texnik va metodik qiyinchiliklardir.

II. Matn muharrirlari.

Micrasoft Word dasturi matn muharrirlaridan biri bo'lib, uning yordamida mukammal hujjatlar va ilovalar yaratishimiz mumkin. Word hujjat yaratish va uni yetarlicha samarali qilish imkonini beradi.⁵

⁴ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 18 p.

⁵ Qarang: Shoymardonov T., Xamidov V., Fayziyeva M., Obidov A. Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash (O'quv-uslubiy majmua). T.: 2015. – 16-bet.

Ishni yangi hujjat yaratish yoki mavjud hujjatni ochishdan boshlaymiz. Yangi hujjat yaratishda biz tayyor andozalardan birini tanlashimiz yoki bo'sh (toza) hujjat hosil qilishimiz mumkin.

Word dasturini ishga tushirganimizda u bizga turli andozalar ro'yxatini taklif etadi. Ish jarayonida bu ro'yxatni ko'rish uchun, fayl menyusidan **создат** buyrug'ini tanlash kerak bo'ladi.

III. Elektron jadvallar.

IV. Namoyish etuvchi dasturlar va boshqalar. Elektron taqdimotlardan darsda namoyish va ko'rgazmali material sifatida foydalanish pedagogga katta yordam beradi. O'quv materialining elektron taqdimotda animatsiyalar shaklida berilishi o'tilayotgan mavzuni tushunishni yengillashtiradi va ko'rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o'quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga nisbatan o'quvchilar o'zlarining fikrlarini yozadi va bu orqali ular axborotlar bilan ishlashning quyidagi malakalariga ega bo'ladilar:

- grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki teskarisi;
- muhokama etilayotgan mavzu bo'yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- o'zining o'quv-bilish faoliyatini rejalashtirish.

Bunday metodika o'qituvchiga yangi axborotlarni ko'paytirib borish, o'quvchilarning tayyorgarlik darajasi o'zgarishi bilan ma'lum bir mavzuga mo'ljallangan slaydlarni takomillashtirib borish imkoniyatini beradi.

Metodik jihatdan o'qituvchi va o'quvchining o'zaro muloqoti ikki turdagi ta'sirdan iborat. Birinchisi – o'qitishning ma'lum bosqichida o'quvchiga shu bosqichdagi masalani tushunishga yordam beruvchi yo'naltiruvchi savollar. Ikkinchisi – masalani aniqlashtiruvchi fikrlar va harakatlar usulini ko'rsatish.

Savollar va ko'rsatmalar soni nazariy va amaliy materiallarning o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi hamda malakaning shakllanishiga bog'liq ravishda beriladi.

EAT resurslarini yaratishda keng ishlatilib kelinayotgan dasturiy ta'minotlardan biri Ispring dasturi hisoblanadi [<http://www.ispringsolutions.com>]. Odatda, taqdimotni o'tkazishga tayyorlanish jarayonida aksariyat hollarda Microsoft PowerPoint dasturiy ta'minotidan foydalaniladi. Ammo bunday taqdimotlar faqat mazkur mahsulot formatidagina bo'lishi mumkin (ppt, pptx). Hozirgi vaqtda internet texnologiyalarining rivojlanishi va o'z navbatida, masofali ta'lim turining paydo bo'lishi natijasida taqdimot fayllarini internet brauzerining o'zida onlayn ravishda to'g'ridan-to'g'ri ko'rish uchun flash (swf) formatida yoki HTML 5 texnologiyasi asosida yaratilgan fayl bo'lishi kerak. Hozirga kelib, PowerPoint dasturida tayyorlangan taqdimotdan flash-rolik shakllantirish imkoniyatini beruvchi dasturlar yaratilgan. Mahsulot iSpring deb nomlanadi va iSpring QuizMarker, iSpring PRO va iSpring Kinetics kabi variantlarga ega [<http://www.ispringsolutions.com>]. Mustaqil ekspertlarning fikriga ko'ra, bugungi kunda mazkur mahsulot tezligi, bir formatdan boshqa formatga konvertatsiyalash sifati va opsiyalar soniga ko'ra eng mukammali hisoblanadi. iSpring nafaqat flash-taqdimotlarni yaratishga, balki ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan

rolklar tayyorlashda, xususan, ularga turli shakldagi so‘rovlar, elektron testlarni ham kiritgan holda o‘zaro interaktiv bog‘lanish imkoniyatini ham beradi.

iSpring Suite – bu PowerPoint dasturida elektron o‘quv kurslarini yaratuvchi professional vosita hisoblanadi. iSpring dasturi yordamida foydalanuvchi bir nechta bosqichdagi o‘quv kurslarini yaratishi va nashr qildirishi mumkin:

- a) Power Point- taqdimotlar bazasida o‘quv kurslarini yaratish;
- b) Audio va video fayllarni birlashritish;
- c) Interaktiv testlar yaratish;
- d) Interaktiv bloklar yaratish;
- e) Masofaviy ta’lim tizimi uchun ma’lumotlar tayyorlash.

iSpring Suite dasturi o‘zida iSpring Pro, iSpring QuizMaker va iSpring Kinetics dasturlarini jamlagan. iSpring dasturini uskunalari PowerPoint dasturining menyular satriga sozlanadi.

*iSpring*ning o‘rnatilishi muvofaqqiyatli bajarilgandan so‘ng, *Power Point* ga *iSpring* instrumental qatori qo‘shiladi. *iSpring*ning funksiyalaridan tayyorlangan fayli Flash formatga o‘ziga xos playback (boshqarilish)ni yuzaga keltiradi. Audio va videolar bilan Flahta tayyorlangan fayl yaxshiroq bo‘ladi. Eslatma, aytish kerakki iSpring Proga qo‘shiladigan har bir ma’lumot Windows uchun o‘ziga xos ahamiyatga ega.

iSpring Pro yordamida:

- Windowsda Flashni muomalaga chiqarish;
- Prezentatsiyani tadqiq etish;
- Window bilan bog‘lanish;
- Windowni taqdim etish;
- Windowda audio yozish;
- Windowda vidio yozish;
- Windowda sinxron qilish;
- Windowga so‘rovlar qo‘yish;
- Windowni Flashga kiritish mumkin.⁶

<Quick Publish> tugmasini bir marta bosish orqali yuqori darajadagi *Flash movie* o‘rnatiladi. *iSpring Quick Publish*ning o‘ziga xos xususiyatlaridan biri taqdim etiladigan prezentatsiyada ortiqcha o‘zgarishlarga yo‘l qo‘ymaydi.

Nazorat savol va topshiriqlari:

Mustaqil ish topshiriqlari. “Language Learning & Technology” jurnali maqolalarining tahlili.

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari

⁶ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 17 p.

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”.–T., 2008. -176 b.
2. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.
3. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
5. Yusupova Sh., G‘oziyeva O. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013. -134 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. Yo‘ldoshev Q. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T., 1994.
7. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T.: TDPU, 2002. – 27 b.
8. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. – 145 b.
10. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.– T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
11. A.Okal. A Global Simulation. The University of Arizona. -Tucson, CERCLL. 2012. -87 p.
12. Jim Burke. The English Teacher's Companion. -Heinemann; 4th edition. - 2012. –392 p.
13. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Internet saytlari

1. www.Lex.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.bimm.uz
4. www.twipx.com
5. www.yazikoznanie.ru

4-MODUL: JAHON MIQYOSIDA TIL TA'LIMIDA QO'LLANADIGAN TA'LIMiy RESURLAR


1. "CALL" (Computer Assisted Language Learning) va "Byki" tizimlari haqida.
2. Yevropa davlatlari va AQShda til ta'limida keys-stadini loyihalashtirishda ATning o'rni ("Global Simulation" dasturi).
3. Osiyo mamlakatlarida filologik ta'limda AKTdan foydalanish tajribasi.
4. "Edmodo" onlayn o'qitish tizimi va boshqalar.

1. "CALL" (Computer Assisted Language Learning) va "Byki" tizimlari haqida.

Ta'limda axborot texnologiyasi – bu **"o'quvchi – kompyuter"** o'rtasidagi muloqotdir, o'qituvchi esa – uni boshqaruvchi. Zamonaviy axborotlarga boy materiallar, vositalar bilan darsni boshqarish o'qituvchi mehnatini samarali qiladi.

2. Yevropa davlatlari va AQShda til ta'limida keys-stadini loyihalashtirishda ATning o'rni ("Global Simulation" dasturi).
3. Osiyo mamlakatlarida filologik ta'limda AKTdan foydalanish tajribasi.
4. "Edmodo" onlayn o'qitish tizimi va boshqalar.

Technology-assisted Language Learning





Nazorat savol va topshiriqlari:

Mustaqil ish topshiriqlari. “CALL” laboratoriyasi yangiliklari. Keys-stadi va axborot texnologiyasi.

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”.–T., 2008. -176 b.
2. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.
3. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
5. Yusupova Sh., G‘ozdiyeva O. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va komyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013. -134 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. Yo‘ldoshev Q. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T., 1994.
7. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T.: TDPU, 2002. – 27 b.
8. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. – 145 b.
10. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.– T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
11. A.Okal. A Global Simulation. The University of Arizona. -Tucson, CERCLL. 2012. -87 p.
12. Jim Burke. The English Teacher's Companion. -Heinemann; 4th edition. - 2012. –392 p.
13. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Internet saytlari

1. www.Lex.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.bimm.uz
4. www.twipx.com
5. www.yazikoznanie.ru

5-MODUL: TAQDIMOT TEXNOLOGIYASI VA UNI O‘ZBEK TILI DARSLARIDA QO‘LLASH METODIKASI

REJA

1. MS PowerPoint dasturi.
2. Taqdimot yaratish qoidalari.
3. Taqdimot nutqi va slaydlar mutanosibligi.
4. Epizodik slaydlar.

Power Point prezentatsion (taqdimot) grafikli dasturlar qatoriga kiradi. Bunday dasturlar o‘zida matnlar, rasmlar, sxemalar, grafiklar, animatsiya effektlari, ovoz videokliplar va boshqalardan iborat bo‘lgan slaydlar hosil qilish imkonini beradi. Slaydlar ketma-ketligidan hosil bo‘lgan prezentatsiyani (taqdimotni) kompyuter ekranida, videomonitorlar va katta ekranlarda namoyish qilish mumkin. Bu dastur bilan ishlashdan avval prezentatsiya, slayd, animatsiya tushunchalari haqida ma’lumotga ega bo‘lish lozim.

POWER POINT asosiy menyusi darchaning yuqori qismida joylashgan bo‘lib u 10 ta bo‘limdan iborat: **Fayl, Glavnaya, Vstavka, Dizayn, Perexodi, Animatsiya, Pokaz slaydov, Retsenzirovanie, Vid va Nadstroyka**. Bu bo‘limlar yordamida biz taqdimot, slayd va ularda joylashgan har xil matn, rasm hamda boshqa istalgan obyektlar ustidan turli xil amallarni bajarishimiz mumkin.

Power Point dasturining asosiy tezkor tugmalari ro‘yxati:

- **CTRL+N** - Yangi taqdimot faylini yaratish;
- **CTRL+M** - Taqdimotga yangi bo‘sh slayd qo‘shish;
- **CTRL+D** - Taqdimotga aktiv slayd nusxasini qo‘shish;
- **CTRL+ENTER** - Slaydning keyingi elementini tahrirlash;
- **CTRL+O** - Ilgari yaratilgan taqdimot faylni qayta ochish;
- **CTRL+W** - Ekranda ochiq bo‘lgan taqdimot faylni berkitish;
- **CTRL+P** - Taqdimotni qog‘ozga bosmaga chiqarish;
- **CTRL+S** - Taqdimot faylni saqlash;
- **F5** - Taqdimot namoyishini ishga tushirish;
- **ALT+F4** - Microsoft PowerPoint dasturidan chiqib ketish;
- **CTRL+F** - Matn qismini qidirish;
- **CTRL+H** - Topilgan matnni boshqa matn bilan almashtirish;
- **CTRL+K** - Giperyo‘llanma qo‘shish;
- **F7** - Imlo xatolarni tekshirish;
- **ESC** - Oxirgi o‘zgarish yoki tugallanmagan harakatni bekor qilish;
- **CTRL+Z** - Oxirgi harakatni bekor qilish;
- **CTRL+Y** - Bekor qilingan harakatni qaytarish;
- **CTRL+SHIFT+F** - Slaydning tanlangan obyekt harflar shaklini o‘zgartirish;
- **CTRL+SHIFT+P** - Slaydning tanlangan obyekt harflar kattaligini o‘zgartirish;

- **CTRL+SHIFT+>** - Slaydning tanlangan obyekt harflar kattaligini bitta qadamga kattalashtirish;
- **CTRL+SHIFT+<** - Slaydning tanlangan obyekt harflar kattaligini bitta qadamga kamaytirish;
- **CTRL+T** - Slaydning tanlangan obyekt harflar tashqi ko‘rinishini (Format menyusidagi Shrift buyrug‘i) o‘zgartirish;
- **SHIFT+F3** - Harflar registrini o‘zgartirish;
- **CTRL+B** - Qalin harflar rejimiga o‘tish;
- **CTRL+U** – Tagi chiziqli harflar rejimiga o‘tish;
- **CTRL+I** - Yotiq harflar rejimiga o‘tish;
- **CTRL+PROBEL** - Harflar o‘zgartirilgan tashqi ko‘rinishini bekor qilish;
- **CTRL+SHIFT+C** - Harflar tashqi ko‘rinishini xotiraga olish;
- **CTRL+SHIFT+V** - Harflar tashqi ko‘rinishini xotiradan chiqarish;
- **CTRL+E** – Xat boshini o‘rtadan tekislash;
- **CTRL+J** - Xat boshini ikkala tomon bo‘yicha tekislash;
- **CTRL+L** - Xat boshini chap tomon bo‘yicha tekislash;
- **CTRL+R** - Xat boshini o‘ng tomon bo‘yicha tekislash.⁷

1. Taqdimot yaratish qoidalari

M.Najmiddinova ta’limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirishning ahamiyati haqida fikr yuritarkan, slaydlarni ishlab chiqarish yo‘llariga to‘xtaladi va quyidagilarga ahamiyat qaratadi:

Slaydlarni tayyorlashda shriftlarga, shriftlarning minimal balandligiga, ranglarning didaktik funksiyasiga va ranglarni ishlatishga, rang ta’siriga, slaydlarni ishlatish usullariga va slaydlarning mantiqiy harakatlarga mosligiga taalluqli eslatmalar o‘ziga juda katta diqqat-e’tibor qaratishni talab etadi. Chunki slaydlar ta’lim beruvchi uchun eng yuqori darajadagi taqdimot imkoniyatini beradi. Zamonaviy o‘quv jarayonini bu usulsiz tasavvur qilish mumkin emas. Asosiy qulayligi shundaki, slaydlarni kompyuterda yoki qo‘lda professional darajada tayyorlash mumkin. Ulardan istalgan vaqtda foydalanish va ish o‘rni o‘zgarganda, oson ko‘chirish imkoniyati mavjud⁸.

2. Taqdimot nutqi va slaydlar mutanosibligi

multimediya vositalari orqali taqdimotlardan foydalanib dars tashkil qilish yuzasidan tavsiyalarni keltirishni ma’qul deb hisobladik:

- Ortiqcha tovushlardan voz keching. Masalan, cho‘ntakdagi kalitlarni shaqillatmaslik yoki ruchkani o‘ynamaslik va hokazo.
- “Ko‘rsatkich”larga berilib ketmang – ruchka, ko‘rsatkich, ko‘zoynak .

⁷ Qarang: Shoymardonov T., Xamidov V., Fayziyeva M., Obidov A. Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash (O‘quv-uslubiy majmua). T.: 2015. – 40-44-betlar.

⁸ Najmiddinova M. Ta’limning sifat va samaradorligini oshirishda vizuallashtirishning ahamiyati. // *Talim texnologiyalari*.-Toshkent: 2006. -№ 1. – B. 18-21.

- Tasodifiy harakatlardan voz keching. Masalan, o‘zingizning sochingiz, yuzingiz, tana a‘zolaringizga teginishingiz.
- Vizual diqqat bo‘linishidan voz keching. Masalan, kuchli imo-ishoralar, nomuvofiq holat, yuz ifodasi.
- Parazit so‘zlarni qo‘llashda ehtiyotkor bo‘ling, “OK!”, “Siz bilasiz...”, “Va hokazo”, “Shunday qilib...” kabi iboralarni qo‘llashdan voz keching.
- Noloyiq iboralarni qo‘llamang, “qiyin” terminlardan voz keching.
- “yopiq” yoki tarang holatlardan voz keching.
- Tovushdan foydalaning: balandligini, tempi, talaffuzning aniqligini to‘g‘rilang.
- O‘zingizni dadil tuting.
- Do‘stona munosabatda bo‘ling, bajarayotgan ishingizga nisbatan samimiy qiziqishingizni ko‘rsating: hattoki ushbu masalada eng zo‘r ekspert bo‘lsangiz ham kibrli, takabburona ohangga o‘tmang.
- Auditoriyada sizni eshitayotganliklari va tushunayotganliklariga ishonch hosil qiling.
- Auditoriya savollariga nazar tashlang.
- Auditoriya bilan ko‘z aloqasini o‘rnating: Devor yoki derazaga qaramang; har soniyada bitta ishtirokchidan boshqa ishtirokchiga ko‘zingiz bilan “yugurmang”, auditoriyadagi har bir ishtirokchiga 2-3 sekunddan birma-bir ko‘z yugurtiring; barcha ishtirokchilarga qarashni yodingizdan chiqarmang.
- Auditoriya tomonidan yuborilayotgan noverbal belgilarni kuzating – tana, qo‘l, oyoq va hokazolarning holati.
- O‘zingizning yozuvlaringizga ha deb qarayvermang. Sitatalardan tashqari qolgan narsalarni o‘qib bermang.
- Tez-tez pauzalar qiling – auditoriyadan ko‘ra siz uchun sukunat uzunroq bo‘lishi mumkin. Hazilni oshirib yubormang.
- Eshitish kuchni talab etadi. So‘zlayotgan insonga diqqatingizni qarating.
- Sabrli bo‘ling: inson 1 minutda o‘rtacha 125 ta so‘z aytadi, ammo ushbu vaqtda ko‘proq narsani eshitishi mumkin. Qandaydir muddatga shaxsiy fikr va qarashlaringizdan voz keching.
- So‘zlayotgan insonga yuzlaning.
- Aloqani ko‘z orqali qo‘llab quvvatlang, ma‘qullab bosh qimirlating.
- Vaqti-vaqti bilan “Ha”, “Tushunaman” iboralarini ishlating.

Savollar bering:

Faqatgina aytilgan so‘zlarga aniqlik kiritish, tafsilotlarni aniqlash lozim bo‘lsa, savol bering.

- ***Boshqacha ifodalash:***
- O‘z so‘zingiz bilan aytgan so‘zlaringizni qaytaring.
- Asosiy iboralarni, gaplarni aynan aytganingizdek qaytaring.
- “Siz...” muomalasidan foydalaning.
- Dalillar va hissiyotlarni ham ishga soling.
- Xulosa qilayotganda simpatiya bildiring, hukm chiqarmang, baholamang va qarorlar taklif qilmang.
- Sizning obzor aniq va to‘la ekanligiga ishonch hosil qiling.

• **Faol eshitishda rag‘batlantirish:**

“*Verbal* *Noverbal*”

- “Tushunaman” – Maqullab bosh qimirlatish
- “Ha, ha” – Ko‘z orqali doimiy aloqa
- “Bu juda qiziq!” – Oldinga egilish
- “Haqiqatdan ham?” – Chetga o‘tish
- “Davom ettiring!” – Qoshlarni ko‘tarish
- “Bu haqda menga to‘liqroq so‘zlab bering”
- – So‘zlayotganingizda o‘zingizni tinglovchi o‘rniga qo‘yib ko‘ring.
- Tinglayotganingizda, so‘zlovchining gapini bo‘lmang, unga fikrini bildirishiga imkon bering.
 - Aytilayotgan so‘zlarga diqqatingizni qarating, muhim so‘zlar, g‘oyalar, hissiyotlarni nazardan qoldirmaslikka harakat qiling. Asosiy g‘oya, mag‘zini anglab eting.
 - Gapirilayotgan fikrlarga umuman qo‘shilmasangiz ham o‘z hissiyotlaringizni nazorat qiling. Xayolan so‘zlayotgan inson bilan baxslashmang.
 - Aytilmay qolgan fikrlarni ilg‘ab olishga harakat qiling, ayrim hollarda aytilgan so‘zlarga qaraganda ular juda muhimroqdir.
 - Eshitishga quyidagi munosabatni ishlab chiqing: sabr bilan aytiladigan so‘zlarni kuting.
 - Eshitishga ko‘maklashing: suhbatdoshga yuzlaning, ko‘z aloqasini o‘rningiz, chehrangiz ifodasi manfaatdor bo‘lishi kerak.
 - – Diqqatni alahsitadigan omillarni bartaraf eting (qo‘ldagi qalam, qog‘ozlarni ko‘zdan kechirish).
 - yodingizda bo‘lsinki, diqqat bilan tinglamaslik suhbatdoshga beparvolikni anglatadi.
 - Barcha guruhga savol bering.
 - Guruhga o‘ylash uchun vaqt bering.
 - Javobga munosabatingizni bildiring va haqiqatni aniqlagunga qadar muzokarani olib boring.
 - Agar hech kim javob bermasa, auditoriya tomonidan noverbal signallarga murojaat qiling: ko‘zlar orqali aloqa, turish holati – kimdir balki javob berishni xohlar.
 - Agar savolga hech kim javob bera olmasa, savolni boshqacha qo‘ying yoki savol tushunarli bo‘ldimi? deb so‘rang.
 - Savol berganda, ushbu savol negiziga o‘z-o‘zidan ko‘rinib turadigan javobni qo‘ymang.
 - Javobni baholashda ehtiyotkor bo‘ling.
 - **Yopiq savollar** “Kim aytadi, qaysi kuni...?” “Bu sizga yoqadimi...?”
 - O‘zingizni qanday his etdingiz?
 - Ushbu qaror sizga qanday ta‘sir ko‘rsatdi?
 - Ushbu g‘oyani siz qanday baholagan bo‘lardingiz?
 - Sizning kuzatuvlaringizdan qaysi biri xulosalarga tasir ko‘rsatdi?
 - Qaysi yo‘l bilan natijaga erishish mumkin?
 - haqida” – “Bu haqda siz nima deb o‘ylaysiz...?”

- Taxminiy – “Siz o‘zingizni ... bilan noqulay his etayapsizmi?”
- Gipotezaga asoslangan – “Sizningizcha, agar ... bo‘lganda, nima sodir bo‘lishi mumkin edi?”
- Ta’riflovchi – “Menga ushbu narsaga mosligini anglashga yordam bering?”
- So‘zsiz – ?
- Tasdiqlovchi – “... nimadir demoqchisiz, shekilli?”
- “*Nega*” *degan savoldan boshlanuvchi*- ushbu savollar himoya qilishga majbur qiladi.
- *Boshqaruvchi* – – “Bunday qilsak, yaxshiroq bo‘ladi deb hisoblamaysizmi ...?”
- *Guruhga*: “Guruh nima deb o‘ylaydi?” “Yana kimdadir shunga o‘xshash muammo bormi...?”
- *Ushbu savol egasiga* “Siz, balki ... haqida o‘ylagandirsiz?”
- “Siz bunga qanday qaraysiz ...?” “Men sizni to‘g‘ri tushungan bo‘lsam, siz ... haqida so‘radingiz?”

Darsning ko‘rgazmaliligi quyidagilarga:

- O‘qituvchining nutqi, hatti-harakati;
- Darslik, o‘quv qurollar;
- Darsni o‘qitishdagi uslub, usullar;
- O‘qituvchi va o‘quvchining hamkorlikdagi faoliyati;
- Dars jarayonida qo‘llaniladigan jihozlar: texnik vositalar, ko‘rgazmali va tarqatma materiallarga bog‘liqligini unutmagan holda elektron ko‘rgazmalilikning har qachon o‘qituvchi shaxsi bilan aloqadorligini hisobga olish zarur. Bizning tavsiyalarimiz esa darslar sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

3. Epizodik slaydlar

ISpring dasturi va uning imkoniyatlari:

Multimediali elektron o‘quv kurslarni yaratish imkoniyatini beruvchi pedagogik dasturiy vositalar ichida yuqori reytingga ega bo‘lgan iSpring dasturi haqida to‘xtalib o‘tamiz. **iSpring Free** dasturi PPT, PPTX, PPS, PPSX formatdagi fayllarni Flash (SWF) va HTML5 formatiga konvertatsiyalash imkoniyatini beradigan mualliflik dasturi hisoblanadi. **iSpring Suite** dasturlar paketiga **iSpring Pro**, **iSpring QuizMaker**, **iSpring Kinetics** kabi bloglar jamlangan. Dastur orqali foydalanuvchilar Flash-rolklar va YouTube-video resurslarni PowerPoint taqdimot slaydlariga joylashtirishlari mumkin. Interaktiv testlarni **iSpring QuizMaker** dasturi yordamida tuzish uchun kompyuterga **iSpring Suite** dasturi bilan Adobe Flash (operatsion tizim razryadiga ko‘ra 32 va 64 bitli) dasturi o‘rnatilishi talab etiladi. Dastur o‘rnatib bo‘lingach **Pusk** menyusidan **Vse programmi** bo‘limida **iSpring Suite** tanlanadi va natijada quyidagi rasmdagi oyna hosil bo‘ladi⁹:

⁹ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 55 p.

Mana shu rasmda ko'rsatilgan oynadan *iSpring QuizMaker* dasturi tanlanishi bilan quyidagi oyna ochiladi:

Test tuzishda ana shu testlar turini tanlab, unga mos savollar berib, javobini ham kiritish kerak bo'ladi. Birinchi qadam – biz ko'rib turganimizdek dasturda hamma so'zlar rus tilida berilgan. Ularni o'zbek tiliga o'tkazib olishimiz ham mumkin. Dasturning ishchi oynasidagi **Test** bo'limidan **Nastroyki** bandini tanlaymiz, hamda quyidagi oyna ochiladi:

Oynaning chap bo'limidan **Nadpisi** tugmasini tanlaymiz. **Soobshenie/knopka** ustuniga tegmagan holda **Nadpis** ustuniga birinchi ustunga berilgan so'zlarning mosiga o'zbekcha so'zlarni kiritib tahrirlashimiz mumkin. Natijada testimiz o'zbekcha ko'rinishga keladi.

Ushbu oynaning **vopros** oynachasiga savol kiritib, unga ko'ra **otvet** oynasiga ikkita javob kiritib, savolga mos to'g'ri javobni tanlab qo'yiladi. Dastur oynasining o'ng qismida **Izobrajenie, Zvuk, Video** yozuvlari mavjud. Siz shular yordamida fayllardan tasvir, formula, ovoz, videolar tanlab savollar ham tuzish imkoniyati mavjud. Shu tarzda har xil test turlaridan tanlab testlarni yaratish mumkin.

Uchinchi qadam. Test tuzib bo'lingandan so'ng uni sozlash kerak bo'ladi. Umumiy ball berish, har bir savolga necha ball berish, testning davomiyligi va h.k. Buning uchun yana **Nastroyki** bo'limiga kiramiz. Bu oynaning chap oynasidagi bo'limlarga kirib testerimizni sozlab olamiz.

To'rtinchi qadam dastur oynasining **Test** bo'limidan **Publikovat** bandini tanlaymiz va natijada oyna ochiladi:

va elektron pochta orqali yo'llab yuborish imkoniyatlari mavjudligi hozirgi zamonaviy ta'lim talablariga ham javob bera oladi.

Bundan tashqari ushbu dastur ko'pgina imkoniyatlarga ham ega¹⁰. Xususan:

➤ Yaratiladigan elektron o'quv kontentlarni SCORM va TinCan tizimlarga o'tkazish imkoniyatini beradi, bu esa ixtiyoriy LMS (Learning management system) bilan integratsiyalashtirish mumkin degani.

➤ Power Point dasturida yaratilgan taqdimot faylining xajmini 97% gacha siqish imkoniyati mavjud.

➤ Power Point dasturida yaratilgan taqdimot faylining himoyalanihini ta'minlaydi.

➤ *iSpring Free* dasturi mutloq tekin hisoblanadi. *iSpring Free* dasturidan tashqari imkoniyati ko'proq bo'lgan *iSpring Suite* dasturi ham mavjud bo'lib, bu dastur orqali yuqori darajada sifatli elektron o'quv kontentni yaratish mumkin. *iSpring Suite* asbob uskunalari orqali (*QuizMaker*, *iSpring Visuals*, *iSpring DialogTrainer*) elektron darsliklar, videoma'ruzalar, *QuizMaker* orqali elektron nazorat testlari, so'rovnomalar, *iSpring DialogTrainer* – tarmoqlangan dialogli elektron kurslarni va onlayn-prezentatsiyalarni yaratish mumkin.

***iSpring Suite* dasturi orqali yaratilgan videoma'ruza:**

Yaratilayotgan elektron kursga audio va video fayllarni qo'shish, audio va

¹⁰ Qarang: Shoymardanov T.T., Xamidov V.S., Fayziyeva M., Obidov A.E. "Elektron pedagogika va pedagogning shaxsiy, kasbiy axborot maydonini loyihalash" (o'quv-uslubiy majmua). T.: 2015.

videolarni yozish, taqdimot slaydlari bilan sinxronizatsiyalash, elektron kursning har xil pleerlarini tanlash, tahrirlash, SCORM va TinCan standartlarida chop etish, mp4 videoformatida eksport qilish imkoniyatlarini beradi.

iSpring Suite dasturi orqali yaratilgan elektron nazorat testlari:

Shu bilan bir qatorda iSpring Visuals orqali 3D kitoblar, vaqt shkalasi, glossariylar yaratish imkoniyati ham mavjud. iSpring dasturi orqali yaratilgan kurslarni LMS lar bilan integratsiyalash imkoniyati mavjud.

SCORM paketlari. SCORM (ingliz. *Sharable Content Object Reference Model* – birgalikda foydalanish uchun obyekt tarkibidagi namunali model). Bu o‘quv materiallari orqali bilim oluvchining o‘rganilayotgan o‘quv kontent ustida bajaradigan harakatlarini o‘qitishni boshqaruvchi tizim (LMS, bizning misolimizda Moodle)ga hisobot ko‘rinishda yuborib turadi. Masalan, bilim oluvchi kontentda mavjud bo‘lgan slayd(bet)larning hammasi bilan tanishgan yoki tanishmaganligi, har bir slayd(bet)ni talaba qancha vaqt davomida o‘rganganligini, bu standartda (yani SCORM yoki AICC) yaratilgan o‘quv kontentni boshqa LMS tizimiga eksport qilish imkoniyati ham mavjud. Hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan taniqli mualliflik uskunalarning (authoring tools) ko‘pchiligi yaratiladigan o‘quv kontentni aynan SCORM yoki AICC standarti ko‘rinishda eksport qilish imkoniyati mavjud. LMS tizimlari uchun elektron ta‘lim resurslarini aynan SCORM, TinCan API yoki AICC standart paketlari asosida yaratish tavsiya etiladi.¹¹

Kengaytirilgan iSpring Suite 7 paketi o‘zida quyidagi imkoniyatlarni jamlagan:

- PowerPoint muhitida o‘quv kurslari va Flash-taqdimotlarni yaratish (iSpring Pro);
- interaktiv testlar, so‘rovnomalar va anketalarni ishlab chiqish (iSpring QuizMaker);
- elektron kurslarni illyustrativ imkoniyatlarini oshirish uchun interaktiv elementlarni yaratish (iSpring Kinetics).

3D - kitob yaratish:

Interaktivnosti qismida 4 turdagi interaktiv elementlarni yaratish mumkin: kitob (Kniga), glossariy yoki katalog (Katalog), savol-javob (Vopros-otvet), vaqt shkalasi (Vremennaya shkala). Interaktiv elementlar yordamida ixtiyoriy matnli yoki grafik axborotlarni osonlik bilan tizimlashtirish mumkin. Interaktiv kitob yaratish uchun Interaktivnosti bo‘limida Kniga tanlaniladi. Dastur avtomatik tarzda 3D-kitob maketini yaratadi.

Glossariy yoki katalog yaratish:

Glossariy elektron axborot ta‘lim resurslarining eng asosiy qismi hisoblanadi. Glossariy yoki katalog yaratish uchun Katalog tanlaniladi. Zagolovok interaktivnosti bo‘limiga Glossariy nomi kiritiladi. Noviy element yordamida har bir termin uchun oyna ochiladi. Element qismida termin nomi va pastki maydonda

¹¹ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 55 p.

uning izohi kiritiladi. Barcha termin va uning izohlarini kiritib bo‘lgandan so‘ng **Publikatsiya** elementi yordamida glossariyni interaktiv ko‘rinishga o‘tkazish mumkin, o‘zida klaviaturada teriladi yoki matn muharririda (Ms.Word dasturi) oldindan tayyorlangan bo‘lishi mumkin. Har qanday hujjatdan nusxa olinishi ham mumkin.

Mashqdagi tushirib qoldiriladigan so‘z yoki harf belgilab olinadi va tushirilish («**Gap**» (**Probel**)) knopkasi bosiladi. «**Gapped words alternatives**» - tushirib qoldirilgan so‘zning variantdoshlari kiritiladigan maydon. Tushirib qoldirilgan so‘z «**Word**» (**Slovo**) maydonida ko‘rsatiladi, «**Gap#**» (tushirib qoldirilgan so‘zning tartib raqami) maydonida esa matnda tushirib qoldirilgan so‘z tartib raqami ko‘rsatiladi:

Agar o‘quvchilarga tushirib qoldirilgan so‘z haqida izoh (“**Clue**” maydonida tushirib qoldirilgan so‘zga izoh yozish mumkin) yoki variantdosh so‘zlarni kiritishni lozim topmasangiz “**OK**” tugmasini bosib, matndagi boshqa so‘zlarni tushirib qoldirishingiz mumkin.

Matnda tushirib qoldirishga belgilangan so‘z (harf) avtomatik tarzda qizil rangga bo‘yaladi hamda ostiga chiziq chiziladi:

Matnda tushirib qoldirishga tanlangan so‘zlar matnning boshidanoq avtomaik tarzda raqamlanganligi uchun ularning ketma-ketligi uncha ahamiyatga ega emas.

Mashqni tahrir qilish:

Mashqda tushirib qoldirilgan so‘zni o‘zgartirish uchun, ya’ni boshqa so‘zni tushirib qoldirmoqchi bo‘lsangiz “**Delete Gap**” (**Udalit propusk**) – “Tushirib qoldirilgan so‘zni o‘chirish” va «**Clear Gaps**» (**Ochistit - Udalit vse propuski**) – “Tushirib qoldirilgan hamma so‘zlarni o‘chirish” tugmalaridan foydalanishingiz mumkin.

“**Show words**” tugmasi bilan yashiringan so‘zlarni ko‘rishingiz, «**Gapped words alternatives**» (**Varianty propущенных slov**) – “Tushirib qoldirilgan so‘zlarning variantdoshi” bo‘limidagi so‘zlarni tahrir qilishingiz, tushirib qoldirilgan so‘zning tartib raqamini ham tahrir qilishingiz mumkin.

O‘quvchi mashqni bajarib bo‘lgach yashiringan so‘zlarni ko‘rishi uchun “**nastroyke konfiguratsii (Configure Output)**” – “konfiguratsiyalarni tahrir qilish” bo‘limiga kirib, «**Other**» (**Drugoe**) tugmasiga bosing, so‘ngra «**Include word list with text**» (**Выvesti spisok propущенных slov na ekran**) – deb ko‘rsatilgan qismini belgilang. Agarda «Include word list with text» deb ko‘rsatilgan qism belgilanmasa, tushirib qoldirilgan so‘z ekranga chiqarib berilmaydi:

Mashqni bajarib bo‘lganingizdan keyin quyidagi amallarni bajarishingiz mumkin:

- Ushbu blogning “**File**”(Fayl) bo‘limiga kirib, «**New**» (**Sozdat**) – tugmasini bossangiz, yangidan mashq yaratishingiz mumkin;
- Bu blogdagi ishingizni tugatib, Hot Potatoes daturining bosh menyusiga kirib, boshqa blogda amallar bajarishingiz mumkin;

- Hot Potatoes dasturini yakunlashingiz mumkin.

Nazorat savol va topshiriqlari:

Mustaqil ish topshiriqlari. Loyiha ta'lim texnologiyasini amalga oshirishda axborot texnologiyasi

Asosiy darsliklar va o'quv qo'llanmalari

1. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch".–T., 2008. -176 b.
2. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.
3. Adilova S. O'zbek tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
5. Yusupova Sh., G'oziyeva O. Ona tili o'qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013. -134 b.

Qo'shimcha adabiyotlar

6. Yo'ldoshev Q. va boshq. Adabiyot o'qitish metodikasi. -T., 1994.
7. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug'ati. – T.: TDPU, 2002. – 27 b.
8. To'xliyev B. Adabiyot o'qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o'qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. – 145 b.
10. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi.– T.: O'zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
11. A.Okal. A Global Simulation. The University of Arizona. -Tucson, CERCLL. 2012. -87 p.
12. Jim Burke. The English Teacher's Companion. -Heinemann; 4th edition. - 2012. –392 p.
13. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Internet saytlari

1. www.Lex.uz
2. www.ziyonet.uz
3. www.bimm.uz
4. www.twipx.com
5. www.yazikoznanie.ru

2. Microsoft Power Point dasturi va ularni imkoniyatlari

Power Point dasturi har hil mavzularga oid juda ko'p tayyor taqdimotlar ko'rinishlarni tavsiya yetadi. Bunday ko'rinishlar har hil usulda bezatilgan slaydlarni o'z ichiga oladi. Slayd maydonida zarur bo'lsa o'zimizga kerakli matn, chizma, jadval va diagrammani joylashtirishimiz mumkin. Shuni ta'kidlash lozimki, ixtiyoriy tayyor ko'rinishning istalgan badiiy bezaklarni didga va davrga moslab o'zgartirishimiz mumkin. Bu qolda ko'rinish mazmuni o'zgarishidan, taqdimotning tashqi ko'rinishiga o'zgaradi.

Microsoft Power Point dasturi ishga tushirilganda dasturning interfeysi va muloqat oynasi ochiladi. Word, Excel dasturlari interfeyslari kabi Power Point interfeysi qam sarlavqalar satri, menyular satri, uskunalar satri va ishchi maydoniga yega. Menyular satri Slaydlarni ko'rsatish (Pokaz slaydov) bo'limi bilan farqlanadi. Power Point dasturi interfeysning boshqa dasturlar interfeysidan yana bir farqi Power Point muloqat oynasining mavzudligidir. Muloqat oynasi taqdimot ishlarida yordam beradigan maslaqatlar berilgan. Power Point dasturi taqdimot tayyorlashning quyidagi yo'llaridan birini tavsiya yetadi: Avtomazmun ustasi (master avtosoderzhaniya) bo'limi, Taqdimot ko'rinishi (shablon prezentacii) bo'limi va Bo'sh taqdimot (pustuyu prezentaciyu) bo'limi. Bundan tashkari, mavzud Taqdimotni ochish (otkryit` prezentaciyu) imkoniyati qam bor.

Boshlovchilar uchun tanlov nuqtalaridan Avtotizim ustasi bo'limini tanlash maqsadga muvofiqdir. Bu qolda foydalanuvchiga taqdimodning asosiy hususiyatlarini yoritish uchun 5 ta muloqat oynasi taqdim etiladi: a) boshlanish; b) taqdimot ko'rinishi; v) taqdimod ko'rinishi shakli; g) taqdimot parametrlari; d) tugatish. Foydalanuvchi uchun matn, chizma, rasm va boshqa yelementlarni shu muloqat oynalari bo'limlariga moslashtirish, kerak bo'lsa dizaynini o'zgartirish qoladi.

Power Point dastur maqsuloti asosan prezentaciya hosil qilishda ishlatiladi. Prezentaciya - ma`ruza, biznes rezha va hokazolar bo'lishi mumkin. Har bir prezentaciya bir nechta slayddan tashkil topgan bo'lishi mumkin. Microsoft Power Point yaratgan huzhvatlarini Office ning boshqa muharrirlariga, Web saqifa ko'rinishida, rasm ko'rinishida (*.bmp, *.jpg) va boshka ko'rinishlarda yeksport qilish imkoni berilgan. Prezentaciya tayyorlashda qulayliklari zhuda katta bo'lgan zamonaviy dasturlardan biri Microsoft Power Point 98 da tayyorlanadigan Prezentaciya slaydlarida rasm, formula, grafiklar, ovoz yozilgan fayllar, video-klipplar va hokazolarni zhoylashtirish imkoni berilgan.

6-MODUL. O'ZBEK TILI MULTIMEDIA DARSLIKLARI REJA

1. O'quv adabiyotining elektron shakli.

2. Multimedia darsliklarining turlari, tarkibiy qismlari.
3. O‘zbek tili darslarida multimedia darsliklaridan foydalanishning metodik imkoniyatlari.

Elektron pedagogikaning asosiy maqsadi shundan iboratki, zamonaviy AKT muhitda o‘qitish-ta’lim jarayonini samarali tashkil etish. Elektron pedagogikaning predmeti pedagogik tizim hisoblanadi. Pedagogik tizim qo‘yidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: o‘qituvchi, o‘quvchi, ta’limning maqsad va vazifalari, o‘qitish mazmuni, o‘qitish shakl, usul va vositalari. Zamonaviy AKT ushbu barcha komponentlariga o‘zini hissasini qo‘shib kelmoqda.

An’anaviy va zamonaviy AKT muhitida tashkil etilgan ta’limni qiyosiy tahlili

N	An’anaviy ta’lim	Zamonaviy ta’lim
1	Yangi avlodga bilim va tajriba berish	Talabalarning shaxsiy barkamolligini ta’minlash va rivojlantirish
2	Talabalarni hayotga tayyorlash	Qiyinchiliklarsiz yashashga o‘rgatish
3	Hozirgidan kelgusida yaxshi bo‘lishga tayyorlash	Doimiy o‘zgarish jarayonida yashashga o‘rgatish
4	Ta’lim maqsadi – bilim olish	Ta’lim maqsadi – o‘zini rivojlantirish, barkamollilik
5	Talabalar maqsadini tayyor holda oladilar	O‘zining huquqiy maqsadlarini qo‘yishi va unga erishish yo‘llarini tanlash
6	Talabalar nazorat turlaridan qochadilar	Ob’ektiv va o‘z vaqtda nazoratga intilish
7	O‘quv muassasalari o‘zaro o‘xshash	Har bir o‘quv muassasasi yuksalish sari intiladi.
8	Aniq o‘qituvchi	O‘qituvchi tanlash imkoniyati

Elektron o‘quv-uslubiy majmua – zamonaviy AKT muhitida fanning asosiy komponenti hisoblanadi, chunki unda fanning maqsad va vazifalari, mazmuni, o‘qitishning zamonaviy shakl, usul va vositalari hisobga olingan.

O‘quv maqsadli elektron vositalarni yaratish quyidagi uchta muhim bosqichning o‘zaro bog‘liqligini ta’minlaydi:

- mazmun bosqichi – bu bosqichda elektron vositalarning axborot-ta’lim resurslarini shakllantirish va uning axborot ta’minoti mazmuni yaratiladi;

- tashkiliy bosqich – bu bosqichda elektron vositalar yaratishning texnik jihatlari bilan bir qatorda, foydalanuvchilarning toifalarini aniqlashtirish, mavjud resurslarni tizimlashtirish va yangilab borish mexanizmlarini ishlab chiqish, ta’lim muassasalaridagi mavjud resurslarni integratsiyalash, elektron ta’limni tashkil etish, axborot-ta’lim resurslariga bo‘lgan talabni aniqlash maqsadida foydalanuvchilar bo‘yicha statistik ma’lumotlarni yig‘ish va tahlil etish amalga oshiriladi;

– metodik ta’minot bosqichi – bu bosqichda elektron vositalardan o‘quv jarayonida foydalanish metodikasini ishlab chiqish, maslahat xizmatlarini bajarish yo‘lga qo‘yiladi.

O‘quv maqsadli elektron vositalarni yaratish quyidagi kontseptual tamoyillarga ega bo‘lishi lozim:

1. *Maqsadga yo‘naltirilganlik tamoyili.*
2. *Integratsiya tamoyili.*
3. *To‘laqonlilik tamoyili.*
4. *Yaxlitlik tamoyili.*
5. *Ochiqlik tamoyili.*

Elektron darslik – kompyuter texnologiyalariga asoslangan o‘qitish metodlaridan foydalanishga mo‘ljallangan o‘qitish vositasi bo‘lib, undan mustaqil ta’lim olishda va o‘quv materiallarini har tomonlama samarali o‘zlashtirishda foydalanish mumkin.

Elektron darslikda fanning o‘quv materiallari talabaga interaktiv usullar bilan, psixologik va pedagogik jihatlar, zamonaviy axborot texnologiyalari, audio va video animatsiyalar imkoniyatlaridan o‘rinli foydalaniladi.

Elektron darsliklar quyidagi qismlardan iborat bo‘lishi zarur:

1. O‘rgatuvchi qism – gipertekstga asoslangan va statik, dinamik rasmlardan iborat.
 2. Mashq qildiruvchi qism – xatolarni ko‘rsatib beruvchi va to‘g‘ri xulosaga olib keluvchi.
 3. Nazorat qiluvchi – testlar orqali nazorat qiluvchi tizim asosida shakllanadi.
- Elektron darsliklar quyidagi asosiy xossalari bilan ajralib turadi:
- ta’limni va o‘quv mashg‘ulotlarini yuqori sifatli darajada olib borilishini ta’minlashi;
 - mustaqil ta’lim olish va egallangan bilimlarni mustaqil baholash imkoniyatining berilishi;
 - ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarning uyg‘unligi;
 - axborot-ta’lim resurslarini rivojlantirish va tezkor yangilab borish imkoniyatining mavjudligi;
 - matn, shuningdek, boshqa axborot materiallarini maxsus navigatsiya (gipermatn) va illyustratsiya (multimedia vositalari, rasmlar, diagrammalar va jadvallar) orqali taqdim etilishi.

Elektron darsliklarning quyidagi belgilariga ko‘ra o‘zaro farqlash mumkin:

I. Foydalanish maqsadlariga ko‘ra: jamoa bo‘lib va individual foydalaniladigan elektron darsliklar.

Jamoa bo‘lib foydalaniladigan elektron darsliklar kompyuterning katta tizim resurslarini talab qilmaydigan bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘lib, ular server kompyuterga joylashtiriladi va ulardan kompyuter tarmoqlari (Internet yoki Intranet) orqali foydalanish mumkin.

Individual foydalaniladigan elektron darsliklar o‘quv materiallarini o‘qituvchining ishtirokisiz o‘rganishga mo‘ljallangan bo‘ladi.

Elektron darsliklarning bu ikki turidan auditoriya mashg‘ulotlarida ham

foydalanish mumkin.

II. O'quv materiallarini taqdim etishi bo'yicha: tartibli va ixtiyoriy. Tartibli elektron darsliklar ma'lum bir bo'lim o'quv materiallarini o'zlashtirmasdan keyingi bo'limga o'tishga imkoniyat bermaydi.

III. O'quv materiallari va axborotlarni yangilash bo'yicha: uzluksiz va davriy yangilanuvchi. Uzluksiz ravishda yangilanadigan elektron darsliklar odatda elektron o'quv bazalar (portallar, veb-saytlar va boshqalar)ga va elektron kutubxonalarga joylashtiriladi. Davriy yangilanadigan elektron darsliklar asosan elektron axborot eltuvchilar (disketa, CD-disk va boshqa) kabilar bilan taqdim etiladi.

O'quv jarayonlarini axborotlashtirish maqsadlariga ko'ra elektron darsliklar quyidagi tamoyillarga javob berishi kerak:

1. Kvantlash tamoyili: o'quv materiallarini mazmunan yopiq, minimal hajmga ega modullarga ajratish. Modullar bir necha tashkil etuvchidan iborat bo'ladi.

2. To'laqonlilik tamoyili: o'quv materiallarining asosiy mazmunini qamrab olgan har bir modul o'zida quyidagilarni mujassamlashtirgan bo'lishi kerak:

- gipermurojaatga ega kalit so'zlar;
- nazariy materiallar;
- nazariy materiallar bo'yicha nazorat savollari;
- namunalar;
- mustaqil yechish uchun masalalar;
- modul bo'yicha nazorat savollari.

Shuningdek, modul tarkibiga quyidagi qo'shimchalar kiritilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- testlar;
- nazorat ishi;
- yordamchi ma'lumotnoma;
- tahlillar.

3. Ko'rgazmalilik tamoyili: Elektron darsliklar modullari matn va vizuallashtirilgan materiallarning ma'lum nisbatini saqlagan holda illyustratsiyalar va kadrlar jamlanmasidan iborat bo'lishi zarur.

4. Erkin boshqarish tamoyili: talabalar kompyuter ekranidagi kadrlarning almashishini mustaqil boshqarishlari, zarur materiallarni istalgan marta ekranga chiqarishlari va nazorat topshiriqlarini bajarish orqali bilimlarini mustaqil sinashlari imkoniyatlariga ega bo'lishlari kerak.

5. Moslashuvchanlik tamoyili: elektron darsliklar o'quv jarayonida ma'lum bir foydalanuvchining ehtiyojlariga moslanishni ta'minlashi, o'rganilayotgan materialning murakkabligini va chuqurligini, uning amaliy yo'naltirilganligini o'zgartirish, foydalanuvchining ehtiyojlaridan kelib chiqib, qo'shimcha illyustrativ materiallarni shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'lishi kerak.

6. Kompyuter ko'magi tamoyili: o'quv materiallarining mohiyatiga e'tibor qaratish maqsadida talaba istalgan vaqtda kompyuter ko'magiga ega bo'lishi kerak. Bunday qo'llash kompyuter yordamida uzundan-uzun hisoblashlarni amalga

oshirishda, turli grafiklar chizishda va olingan natijalarni istalgan bosqichda tekshirishda foydalidir.

Elektron darslikning modullari

Elektron darslik yaratishda amal qilinishi zarur bo'lgan tamoyillar (**kvantlashtirish, to'liqliligi, ko'rgazmaliligi, tarmoqlashuvi, boshqarish, moslashtirish, kompyuterli ta'minot, to'planuvchanligi**) hisobga olinib, Elektron darslik yaratish texnologiyasini loyihalashtirish 7 bosqichni o'z ichiga oladi:

1) kontseptsiyasini ishlab chiqish (fan standarti va mashg'ulot o'tkazish metodikasiga tayanuvchi elektron darslik yaratishning asosiy g'oyasini ishlab chiqish, darslikning mazmunli qismini tuzish);

2) loyihalashtirish (ko'rinishida ishchi namunasini, axborot bloklari va ekran shakllari andozalari to'plamini, murojaatlar interfaolligini ta'minlovchi giperilovalar tuzilmasining tartibli sxemasini ishlab chiqish);

3) ekran shakli va axborot bloklari dizayni (aniq o'quv jarayoni, psixologik-pedagogik xususiyatlari, ergonomika talablari, o'quv materiallari tuzilishi va mazmuniga mos ravishda dizayn tuzilishini qurish);

4) o'quv materiallarini elektron shaklda tayyorlash va ularni bo'limlar bo'yicha bir ish seansi, ya'ni bir dars uchun mo'ljallangan elementar qismlarga-modullarga ajratish;

5) ilova tuzilmasi elementlarini to'ldirish (tayyorlangan materiallarni ishlab chiqilgan andozalar va ekran shakllariga joylashtirish, ilovalar tizimini to'ldirish hamda foydalanuvchi bilan qayta aloqa tashkil qilish);

6) test sinovlari va sozlash (har bir ilova, aloqa ishlari to'g'riligini va foydalanuvchi harakatiga dasturning javobini to'g'riligini tekshirish);

7) o'quv jarayoniga tatbiq etish (albatta, ta'lim beruvchilar va o'quvchilar refleksiya to'g'risidagi ma'lumotlarni to'plash bilan umumiy o'rta ta'lim maktablarida elektron darslikni qo'llash).

Zamonaviy AKT muhitida o'qitishni internet resurslaridan foydalanishsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Internet tarmog'i ta'lim xizmatlarining juda katta potentsialiga ega. Elektron pochta, virtual kutubxona va muzeylar, ta'limiy portal va saytlar, mavzuli blog va forumlar, telekonferentsiyalar, elektron olimpiadalar va viktorinalar, zamonaviy ta'limning tarkibiy qismiga aylanmoqda. Ushbu ta'lim xizmatlaridan, ham darsda, ham darsdan tashqari faoliyatda foydalanish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Internet ta'lim resurslaridan foydalanish o'qituvchini ta'lim jarayonining menedjeriga aylanishga undaydi.

Tayanch so'zlar: elektron pedagogika, pedagogik tizim, AKT muhiti, elektron o'kuv-uslubiy majmua, elektron darslik, elektron qo'llanma.

Savollar:

1. Elektron pedagogikani asosini nima tashqil qiladi?
2. AKT muhit deganda nimani tushunasiz?
3. Pedagogik tizimga ta'rif bering. AKT pedagogik tizimning komponentlariga qanday ta'sir qo'rsatadi? Misollar keltiring.
4. Elektron ta'lim vositalarni sanab o'ting.
5. Elektron o'qitish shakllariga misol keltiring.
6. Elektron darslik nima?
7. Elektron darslikning komponentlarini sanab o'ting.
8. Elektron qo'llanma yaratishga qanday talablar qo'yiladi?
9. Elektron qo'llanma yaratishga qanday dasturiy taminotlardan foydalanamiz?
10. Ta'limiy internet resurslarini sanab o'ting.

Adabiyotlar:

1. Andreev A.A., Soldatkin V.I. Prikladnaya filosofiya otkrytogo obrazovaniya: pedagogicheskiy aspekt. – M.: RITS «Alfa» MGOPU im. M.A.SHoloxova, 2002.
2. Bordovskaya N.V. , Rean A.A. Pedagogika. Uchebnik dlya vuzov – SPb: Izdatelstvo «Piter», 2000.
3. Zakirova F. va boshqalar. Elektron ukuv-metodik majmualar va ta'lim resurslarini yaratish metodikasi. - Toshkent: OUMTV. – 2010. – 64 b.
4. Zakirova F. Metodicheskie aspekty sozdaniya i ispolzovaniya web-sayta prepodavatelya // J.Pedagogik ta'lim- Toshkent, 2010.- №2.- S. 79-86.
5. Zakirova F. WEB 2.0. – innovatsiya v obrazovanii // J. TATU xabarlari. 2012.- №2. S. 101-102.
6. Norenkov I.P., Zimin A.M. Informatsionnye texnologii v obrazovanii. Uchebnoe posobie.M.: Izd. MGTU im. N.Baumana.2002-336s.
7. George Siemens. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age. December 12, 2004.

7-MODUL. O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI TA'LIMIDA INTERNETDAN FOYDALANISH REJA

1. Ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda kompyuter dasturlaridan foydalanish yo'llari.

2. Audio-vizual materiallar va ularning yozma nutqni o'stirishdagi ahamiyati.

1. Ta'lim bosqichlarida o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirishda kompyuter dasturlaridan foydalanish yo'llari

So'nggi yillarda asosiy e'tibor o'quvchilar nutqini o'stirishga qaratilayotgan tadqiqotlarning metodik jihatdan o'zini oqlab, ijobiy natija berayotganini e'tirof etish zarur. Lekin kuzatishlardan og'zaki nutqni rivojlantirish asosiy o'rin tutgani holda o'quvchilar yozma nutqining talab darajasida bo'lishiga etarli e'tibor qaratilmayotgani xususida xulosa chiqardik. Bu borada, ayniqsa, ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish mumkinligini nazarda tutib, o'quvchilarning yozma nutqini o'stirishda zamonaviy vositalardan foydalanishning nazariy, shu jumladan, metodik va psixologik asoslari fundamental ravishda ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lsa ham, o'quvchilar yozma nutqini o'stirishga ko'maklashuvchi zamonaviy vositalarga qo'yiladigan talablarni belgilash, o'quv materiallari yaratish va mashg'ulotlarni o'tkazish metodikasini takomillashtirish davr talabidir.

Nigora Umarova o'zbek tilini o'rgatish uchun mo'ljallangan ta'limiy-elektron ishlanmalarga quyidagi talablarni qo'yish lozimligini qayd qiladi (biz ularning ayrimlarini o'zbek tilini ona tili sifatida o'qitish jarayoniga ba'zi o'zgartirishlar bilan tatbiq qilish mumkinligini aytib o'tmoqchimiz):

1. O'quvchilarga kompyuter vositasida taqdim etiluvchi materiallar milliy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimiz, axloq-odobimizga mos tushishi, vatanparvarlik hissini tarbiyalashga ko'maklashishi kerak.

2. O'qituvchi rahbarligida ishlash ko'zda tutilishi lozim. Chunki ta'limiy-elektron ishlanmaga o'quvchida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan barcha savollarga javoblarni dasturlab kiritishning iloji yo'q. O'z navbatida, kompyuter samarali o'quv vositasi sifatida tan olingani holda, ta'lim jarayonini boshqarib boruvchi mutaxassisning o'z vaqtida yordamga kelishi til o'rganish samaradarligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Materialning umumiyligiga e'tibor berish, ya'ni bir ta'limiy-elektron ishlanma nutqiy saviyasi rivojlangan talaba uchun ham, nutqi hali turli sabablarga ko'ra rivojlanmagan o'quvchilar uchun ham foydali bo'lishi kerak. Bunda ishlanmani yaratuvchi muallifning dasturlovchi mutaxassis bilan hamkorlikni maqbul yo'sinda yo'lga qo'yishi muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Kompyuter vositalarini tanlashga talabchanlik bilan yondashish zarur. Masalan, videolavhalar, animatsiyalar oddiy matn bilan uyg'unlikda taqdim etilishi kerak. Ayniqsa, suxandonning talaffuzi barcha talablarga javob berishi, ya'ni tiniq va ravon, orfoepiya me'yorlariga to'liq mos tushishi shart. Grafika rasm va fotosuratlar maqsadga muvofiq va etarli hajmda bo'lishi darkor. Ularning ko'payib ketishi o'quvchining diqqatini bo'ladi va asosiy maqsadga erishishiga xalal beradi.

5. Mavzuga oid nazariy ma'lumot amaliy tavsiyalar tarzida ixcham ko'rinishda berilishi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Katta hajmdagi matni

o'quvchilarning to'la anglab etishlari mushkul. Demak, bunday matnlar til o'rgatishga yordam berish o'rniga aksincha salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

6. Til o'rgatish maqsadida yaratilgan ta'limiy-elektron ishlanma tarkibida turli **lug'atlar** bo'lishi shart. Bevosita mavzu va mashg'ulot turidan kelib chiqqan holda o'zbek tilining izohli lug'ati, imlo lug'ati, omonimlar, sinonimlar, paronimlar, antonimlar lug'ati, morfem lug'at, etimologik lug'al va boshqa turdagi lug'atlarga murojaat qilish o'rinli. Masalan, yozma nutqni o'stirishga yo'naltirilgan ta'limiy-elektron ishlanmada imlo lug'ati alohida o'rin tutishi lozim.

7. Matn ustida ishlash jarayonida o'quvchilar nutqini o'stirish uchun an'anaviy usulda yaxshi samara beruvchi bir qator topshiriqlardan foydalanilishi tabiiy: matnni davom ettirish, qisqartirish, kengaytirish, unga reja tuzish va h.k. bunda kompyuter o'quvchi taklif etgan variantni boshqa (avvaldan dasturga kiritilgan) matn bilan taqqoslash va o'rganish imkoniyatini beradi.

8. Ta'limiy-elektron ishlanma nazorat qilish imkonini berish uchun test, mashq va o'yinlardan keng foydalanish lozim. Topshiriq oddiydan murakkabga tomon tamoyili asosida tuzilishi zarur. Shu bilan birga mustaqil ravishda matn tuzish, berilgan shakl yordamida boshqa hujjat yozish, **rasmga qarab kichik hikoya yozish**, lug'atdan foydalanib boshqotirmanini echish, **videotasvirga ovoz berish kabi topshiriqlar** ham o'quvchilar tomonidan ijobiy qabul qilinishi tajribada o'z isbotini topgan.

9. Vazifalarni bajarish tezligi va to'g'riligini inobatga olish va o'quvchini rag'batlantirish ko'zda tutilishi zarur. **“Barakalla!”**, **“Qoyil!”**, **“Biroz adashdingiz”**, **“Yana o'ylab ko'ring”**, **“Topshiriqni qayta bajaring”**, **“Mavzuni takrorlashingizga to'g'ri keladi”** kabi yozuv va mos ravishda ovoz yordamida o'quvchi bilan muloqot o'rnatilishi maqsadga muvofiqdir.

Til ta'limi jarayonida ta'limiy-elektron ishlanmalardan samarali foydalanish o'qituvchining mahoratiga bevosita bog'liq. Agar u zamonaviy texnologiyalarni o'zining ishonchli hamkoriga aylantira olsa o'quvchilarning o'zbek tilini o'rganishlariga katta yordam bera olishi shubhasiz¹².

Audio-vizual materiallar va ularning yozma nutqni o'stirishdagi ahamiyati.

XXI asr fan va texnika asridir. O'quvchilar kompyuter texnikasi bilan bemalol tillashayotgan bir paytda o'qituvchilarning bu imkoniyatlardan foydalanmasligi ularning salohiyatiga qaysidir ma'noda ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchi har bir darsining qo'shimcha materiallarga boy bo'lishi uchun ana shunday elektron adabiyotlarga ham murojaat etishi lozim. Ona tili o'qituvchisi kompyuterdan faqat yangilik deb emas, balki o'quvchilarning yozma nutqini o'stirish omili sifatida foydalanishi zarur.

ZiyoNet portali

¹² Umarova N. Til ta'limi va ta'limiy-elektron ishlanmalar // Til va adabiyot ta'limi. – Toshkent, 2005. - № 6. - B.75-79.

ZiyoNet axborot ta'lim tarmog'i yoshlarni, murabbiylarni, shuningdek aholining turli qatlamini kerakli axborot bilan ta'minlash, AT sohasida kerakli ma'lumotlarni berish, muloqot qilish va tajriba almashinishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishni O'z zimmasiga oladi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish - bugungi kunning talabiga aylandi. Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish o'qitish qo'llanilmoqda. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning yana bir afzalligi shundaki, unda o'quvchi o'ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning yana bir afzallik tomoni unda o'qish muddatini o'quvchi o'zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriklarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O'quvchi berilgan programmani qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Dasturni o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi berilgan materiallari asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Darslik
- Audio va video darsliklar
- Onlayn darslar (Internet sahifa)
- Elektron kutubxonalar
- Testlar
- Multimedia - elektron darsliklar

Respublikamiz Oliy va O'rta Maxsus bilim yurtlarida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar kataloglashtirish, respublika ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan elektron o'quv adabiyotlarini barcha ta'lim muassasalari orasida targ'ib qilish muhim va murakkab vazifa hisoblanadi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan ushbu masalani ijobiy yechimini topish hamda ta'lim muassasalari uchun yaratilgan elektron o'quv resurslari va ta'lim muassasalari saytlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Buning natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan tashkil qilingan www.ziyo.net.uz axborot- ta'lim portali ishga tutirildi va bu portaldagi barcha ZiyoNet jamoat axborot ta'lim tarmog'i 2005 -yil 28- sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi 2005- yil 28 -sentyabrdagi 191-sonli qaroriga muvofiq tashkil topgan.

ZiyoNet tarmog'ining asosiy maqsadi ta'lim tizimida respublika yoshlari hamda ta'lim oluvchilarni bilim olish jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko'rsatishdan iborat.

Foydalanuvchilar ID.UZ tizimidan ro'yxatdan o'tgan foydalanuvchilarga ZiyoNet portali O'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Jumladan:

1. Ziyonet portalining kutubxonasiga axborot - ta'limiy ma'lumotlarni joylashtirish;
2. Uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satelitlarni yaratish;
3. Ziyonet portalining yopiq bo'limlariga kirish va u yerdan ma'lumot olish;
4. Ziyonet axborot resurs tarmog'ining turli tanlovlarida qatnashish.

2. Internetning filologik resurslari

Axborot texnologiyalari bizni o'rab turgan olam bilan yaqindan bog'langan: ilmiy tadqiqotlarimiz, adabiyotshunoslik, san'at va b. Har bir tadqiqotchi o'z ishida AT dan faol foydalanadi. Har bir adabiyotshunos Word dasturidan foydalanadi. Shuningdek, har bir tarjimon ham o'z faoliyatida tarjimon dasturlarini qo'llaydi. Ko'rinadiki, har bir filolog u yoki bu tarzda o'z ishlarida informatsion texnologiyalardan foydalanadi. Har birimiz Internetdan foydalanamiz, elektron entsiklopediyalarni bilamiz, masalan, Vikipediya. Elektron kutubxonalardan foydalanamiz: masalan Maksim Moshkovning elektron kutubxonasi mavjud.

Internetning filologik resurslari – filolog uchun eng muhim axborot manbaidir. Filologik resurslarga quyidagilar kiradi: elektron entsiklopediyalar, universal kutubxonalar saytlari, universitetlar, institutlar, kafedralar saytlari. Bular maxsus filologik informatsiyaning tashuvchilari hisoblanishadi. Avtorlik saytlari. Olimlarning personal sahifalari.

Filologik ta'limda bir qator kompyuter programmalari qo'llanadi, ularni quyidagicha tasnif qilish mumkin:

Tasnif asosi:

1. Ta'lim jarayonidagi funktsional belgisiga ko'ra, ya'ni bunda uning o'quv jarayonidagi ahamiyati va o'rnini hisobga olinadi.
2. Tuzilishga ko'ra.
3. Matnning tuzilishiga ko'ra.
4. Taqdim qilinayotgan informatsiyaning xarakteriga ko'ra.
5. Bayon qilish shakliga ko'ra.
6. Maqsadiga ko'ra.
7. Bosma ekvivalentning mavjudligiga ko'ra.
8. Asosiy informatsiyaning tabiatiga ko'ra.
9. Tarqalish texnologiyasiga ko'ra.
10. Foydalanuvchi va elektron nashrning o'zaro aloqa qilish xarakteriga ko'ra.

1. Ta'lim jarayonidagi funktsional belgisiga ko'ra, uning o'quv jarayonidagi ahamiyati va o'rniga ko'ra ular quyidagilarga bo'linadi:

- Dasturiy -metodik (o'quv rejalar va o'quv dasturlar);

- O‘quv-metodik (metodik ko‘rsatmalar, ularda o‘quv fanini o‘qitish bo‘yicha materiallar, kurs ishlari va diplom ishlarini bajarish bo‘yicha ko‘rsatmalar bo‘ladi);
 - Ta‘lim beruvchi (darsliklar, o‘quv qo‘llanmalari, ma‘ruza matnlari, ma‘ruza konspektlari);
 - Yordamchi vositalar (praktikumlar, masala va mashqlar to‘plami, xrestomatiyalar, o‘qish kitoblari).
 - Nazorat qiluvchi (test dasturlari, ma‘lumotlar bazasi)
2. Tuzilishiga ko‘ra ular:

- Bir tomli elektron nashr;
- Ko‘p tomli elektron nashr;
- Elektron seriyaga bo‘linadi.

3. Taqdim qilinayotgan ma‘lumotning xarakteriga ko‘ra:

- O‘quv dasturi,
- O‘quv rejasi,
- Metodik ko‘rsatmalar,
- Metodik tavsiyalar,
- Amaliyotlar dasturi,
- Amaliy mashg‘ulotlar uchun topshiriqlar,
- darslik,
- o‘quv qo‘llanma,
- ma‘ruzalar konspekti,
- ma‘ruzalar kursi
- praktikum,
- xrestomatiya,
- o‘qish kitobi.

4. Bayon qilish shakliga ko‘ra;

- programmashtirilgan o‘quv nashrlari;
- muammoli o‘quv nashrlari;
- aralash yoki universal o‘quv nashrlari.
-

5. Maqsadiga ko‘ra:

- Maktab o‘quvchilari uchun;
- Bakalavrlar uchun;
- Magistrilar uchun;
- Yoshi kattalar uchun.

7. Bosma ekvivalentning mavjudligiga ko‘ra:

- Bosma o‘quv nashrining elektron analogi;

- O‘quv yo‘nalishidagi mustaqil elektron vosita.
8. Asosiy informatsiyaning tabiatiga ko‘ra:

- matnli (ramzli) elektron nashr;
- tasvirli elektron nashr;
- ovozli elektron nashr;
- dasturiy mahsulot;
- multimedia elektron nashr.

9. Tarqalish texnologiyasiga ko‘ra:

- O‘quv yo‘nalishidagi lokal elektron vosita;
- Tarmoqli elektron nashr;
- Aralash elektron nashr.

10. Foydalanuvchi va elektron nashrning o‘zaro aloqa qilish xarakteriga ko‘ra
*farqlanadigan elektron nashr;

*Farqlanmaydigan elektron nashr .

Filologiyadagi eng katta yutuq - seteratura, ya’ni Internet tarmog‘ida vujudga kelgan va unda o‘qish uchun yo‘naltirilgan adabiyot vujudga keldi. Seteratura adabiyot va internetning o‘zaro aloqasi va faoliyati natijasida yuzaga kelgan tushuncha hisoblanadi. Keng ma’noda uning predmeti – adabiy matnlardir, ularni mualliflar tarmoqlar jurnallari va nashrlarida joylashtirib boradilar.

Setevaya literatura (seteratura) – bu tushuncha hozirda Internet tarmog‘ida mavjud bo‘lgan badiiy asarlarga ham ishlatilmoqda.

Internet bosma nashrlarda mavjud bo‘lmagan bir nechta imkoniyatlarni muallifga taqdim qiladi, bular:

- Matnning bir chiziqli emasligi: giperssilklar sababli o‘quvchi matn bo‘yicha o‘z harakat traektoriyasini chizishi mumkin bo‘ladi;
- Matnning interaktivligi: muallif o‘quvchilarga mavjud matnga o‘zgarishlar kiritish imkonini berishi mumkin;
- Matnning multimedialigi: Internetdagi matnga ovozli fayllarni, animatsiyali tasvirlarni osonlik bilan qo‘yish mumkin.

Internetda bugungi kunda eng keng va ko‘p tarqalgan janrlar bo‘lib prozaik miniatyura, [esse](#) va adabiy kundaliklar hisoblanadi.

Seteratura haqida Vikipediyada Dыrdina A.A., Kuranova A.O. «Setevaya literatura: potentsial i tendentsii razvitiya» maqolasi, shuningdek, A.L.Tarankov,

V.Solenskiy, I.S.Skoropanovalarning maqolalari yozilgan.

Adabiyot va informatsion texnologiyalarning o‘zaro aloqasi tufayli quyidagi “mahsulotlar”ga ega bo‘lish mumkin:

1. Elektron kitoblar (Word, Pdf formatida saqlangan);
2. Elektron entsiklopediyalar (masalan, Krugosvet, Vikipediya);
3. Elektron kutubxonalar (Maksim Moshkov);
4. Yosh mualliflar uchun elektron portal (masalan, proza.ru, poeziya. Ru va b.);
5. Seteratura.

Seteratura bugungi kunda keng tarqalgan bo‘lib, uning tarixi 1994- yilga borib taqaladi. Birinchi rus adabiy veb-jurnali 1994- yilda Leonid Delitsin tomonidan tashkil qilingan edi. Ammo rus tilli seteraturaning boshlanishi sifatida 1995- yilning 10- oktyabri hisoblanadi, bunda Roman Leybov o‘zining “Roman” gipertekstli loyihasiga start bergan edi. Seterator Aleksey Andreev Internetda «Cetera. Manifest Setevoy Literatury, ili Lichnyy Opyt Poeticheskoy Nezavisimosti» maqolasini e‘lon qildi, bunda u seteraturaning asosiy janr va uslubiy xususiyatlarini ochib berishga harakat qilgan. Ulardan ayrimlari:

1. Tarmoqdagi muallif erkin ravishda o‘z asarini nashr qilishi mumkin, bunda u bosma nashr bilan bog‘liq harajatlarni chetlab o‘tadi .
 2. Anonimlikni saqlashi mumkin.
 3. Eng muhimi – aniq va tezkor qayta aloqaning mavjudligi.
 4. Tarmoq seminarini tashkil qilish, unda asar haqidagi fikrlarni o‘rtoqlashish mumkin. Dunyoning har bir chekkasidan fikr keladi.
5. Nihoyat, tarmoqqa xos spetsifik xususiyatlar:
- gipertekstuallik, ya’ni elektron matnlarni gipersilkalar orqali bir-biri bilan ulash, shuningdek, ularni noverbal ma’lumotlar – rasmlar, rang, ovoz bilan to‘ldirish;

– kollektiv ijod – dastlabki matnni palimpsestga aylantirish imkoni, unda ko‘plab syujet va obraz chiziqlari bo‘ladi;

– ishning dinamikligi, uning o‘yin xarakteriga egaligi. Ayniqsa, buni «Jivoy Jurnal» saytida kuzatish mumkin.

Yaqinda bu kabi saytlarning reytingi tekshirib ko‘rilgan. Tarmoqda va bosma nashrlarda mashhur adabiyotshunos Maks Fray Runet mualliflarining ommaviylygi reytingini tuzdi, birinchisi - o‘ziniki, ikkinchisi - ovoz berish orqali. Reytingi yuqorilar sifatida : Nikolay Baytov, Roma Voronejskiy, Danila Davыdov, Maksim Kononenko, Anton Nikitin, Oleg Postnov, Vladimir Puziy, Aleksandr Romadanov, Kira Teni- sheva, Konstantin SHapovalov, Meri i Persi SHelli, Bayan SHiryanov, Linor Goralik, Aleksroma, Valeriy Segal, Aleksey Andreev, Sanches, Mixail Berezin, Dmitriy Kovalenin, Olga Rodionovalar qayd etildilar.

Ularning ismi ko‘proq «Russkiy jurnal» da ham tilga olinadi, yoki ukrainalik adabiyotshunos Yuriy Andruxovich tomonidan tashkil qilingan “Potyag” veb-

almanaxida ham bu ismlar juda mashhur. Umuman olganda, seteratura adabiyotning alohida turi emas, albatta, anig'i uning boshlang'ich va tayyorgarlik bosqichidir, ya'ni u laboratoriya, tajriba maydonidir.

Yana bu kabi adabiyot haqida uch tushuncha: «seteratura», «kiberatura», «Internet-adabiyot -literatura» tushunchalari bor.

Bu terminlarda umumiylik borligiga qaramay, ularda nozik farqlar ham bor. Masalan, «kiberatura» da matnga emas, uning qanday bezatilganiga e'tibor beriladi. Kiberatur asarlar mualliflari multimedia imkoniyatlaridan keng foydalanishadi, matn, grafika, ovoz, animatsiya, videoni bir butunlikka aylantirishadi. Kiberaturaning eng muhim elementi sifatida o'quvchi bilan interaktiv hisoblanadi. Bu borada internet-portal «Setevaya slovesnost» da juda qiziqarli materiallar to'plangan. Seteraturaning rivojida «ROMAN», «Burime», «Sonetnik», «Pekarnya limerikov», «Sad rasxodyanixsya xokku», «Renga» va «Stixi.ru» i «Proza.ru» saytlarining faoliyati muhim ahamiyat kasb etdi.

9-MODUL. O'ZBEK TILINI MASOFADAN O'QITISH MASALALARI

REJA

1. Masofaviy ta'lim va uning o'ziga xosliklari.
2. O'zbek tili va adabiyoti fani bo'yicha masofaviy ta'limni rivojlantirish sohasidagi asosiy loyihalar.

Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, axborotlashtirish jarayoni tez sur'atlar bilan o'sib borayotgan hozirgi davrda ta'lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta'limda foydalanishga mamlakatimizda ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasida «Elektron ta'lim» milliy tizimini yaratish» investitsiya loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» 2012- yil 16- apreldagi PQ-1740-son qarori ta'lim sohasida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo'lishni kengaytirishga zamin yaratadi. Ta'lim tizimiga elektron ta'limni joriy etish birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta'lim sohasining axborotlashuviga, axborot ta'lim resurslarini ishlab chiqishga bog'liq. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta'limni axborotlashtirish, shu jumladan elektron ta'limni joriy etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Elektron ta'limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo'llari izlanmoqda, ta'limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ta'lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o'rin olgan. Ta'limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini

ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida elektron ta'limdan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O'quv jarayonini elektron ta'lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'l hisoblanadi.

Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o'zgarmay kelgan holatlarni o'zgartirib yubordi. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo'ldi. Endilikda esa ta'lim tizimida ta'lim olishning an'anaviy shakllari o'rniga masofaviy ta'lim elementlari kirib keldi.

Hammamizga ma'lumki, har bir universitet yoki ta'lim muassasi o'z ta'lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o'zining virtual axborot ta'lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta'lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdagi dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta'lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari shuningdek, ta'limga yo'naltirilgan fondlar tomonidan qo'llab quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar yaratilgan.

Bu o'quv modulimizda masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli dasturlar majmuasining tahlili keltiriladi. O'quv modulida keltirilgan dasturiy majmualar tahlili ko'p yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yozilgan.

O'quv muassasasida masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirishga qo'yiladigan texnik va dasturiy talablar

Masofaviy ta'lim (MT) jarayonini tashkillashtirishning ilmiy-pedagogik talablari qo'p adabiyotlarda bayon qilingan. Xususan, bu mavzuga oid [1,2,3]. Tahlil qilingan adabiyotlarning ko'rsatishi, masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirishning texnik va dasturiy talablari to'liq bayon qilinmagan.

MT jarayonini amalga oshirishda qo'yida ko'rsatilgan bosqichlar asosida amalga oshirish mumkin:

- 1-bosqich: Tahlil
- 2-bosqich: Loyihalashtirish
- 3-bosqich: Joriy qilish
- 4-bosqich: O'quv kontentlarini yaratish
- 5-bosqich: Ishga tushirish
- 6-bosqich: Rivojlantirish

1-bosqichda o'quv muassasining masofaviy ta'lim jarayoniga bo'lgan ehtiyojlari, ta'lim jarayonida qatnashayotgan foydalanuvchilarning soni, o'qitish usullari va shakllari, loyihani amalga oshirishda kerak bo'ladigan texnik, dasturiy va inson resurslari, loyihani iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi.

2-bosqichda tahlillar natijasida amalga oshiriladigan ishlar ko‘lami va texnik topshiriq loyihalashtiriladi.

3-bosqichda esa tanlangan masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuaa tegishli serverda o‘rnatiladi, tizimga tegishli domen tanlanadi. Masofaviy ta’lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuasidan foydalanish va unga texnik qo‘llab quvvatlashchi ishchi xodimlarni o‘rgatish bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlar tashkillashtiriladi.

4-bosqichda masofaviy ta’lim jarayonining asosiy elementlaridan biri bo‘lmish o‘quv kontentlar o‘quv bo‘limi va soha mutaxasislari bilan hamkorlikda yaratiladi. Yaratilgan o‘quv kontentlar ekspertlar tomonidan tekshiriladi.

5-bosqichda masofaviy ta’lim jarayoni ishga tushiriladi. Ta’lim jarayonida o‘quv jarayoni doiyimi nazoratda bo‘lib turadi. Tizimdagi havfsizlik choralari monitoring qilib boriladi.

6-bosqichda yuqorida keltirilgan bosqichlarda mavjud bo‘lgan kamchiliklar to‘g‘rilanadi, yangi o‘quv kurslar yaratiladi, texnik imkoniyatlar kengaytiriladi, tizimning rivojlanishiga tegishli bo‘lgan ishlar ko‘lami bajariladi.

Ta’limda erkin va ochiq kodli dasturiy ta’minotlar tahlili

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari ta’lim jarayonida (xususan, masofaviy ta’lim jarayonini) qo‘llash asosan ikki xil ko‘rinishda amalga oshiriladi[2]. Birinchi sharti bu texnik jihozlar bo‘lsa, ikkinchisi sharti esa maxsus dasturiy ta’minotlar bilan ta’minlanganligidir.

Texnik jihozlar bilan ta’minlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qo‘rilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, video konferentsiya jihozlari va hakazo.

Dasturiy ta’minotga: Mavjud qurilmalarni ishlatadigan dasturiy ta’minotlardan tortib shu soha uchun mo‘ljallangan dasturlar to‘plami kiradi.

So‘nggi yillarda G‘arbda ta’lim tizimini boshqarishda qo‘llanilib kelinayotgan Internet yoki Interanet tarmog‘i orqali elektron shakldagi ta’lim turini Elearning (elektron ta’lim) atamasi bilan kirib keldi.

Elektron ta’limi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi ta’limning turli ko‘rinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir.


Elektron ta’limni tashkillashtirishning ko‘pgina manbalari orasidan quyidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);

Virtual ta’lim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

Ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).¹³

¹³ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.



Elektron ta'limni tashkillashtirishda ishlatiladigan dasturiy ta'minotlar strukturasi
LMS tizimlarining asosiy funktsiyalari

LMS/LCMS tizimlari elektron ta'limni (masofaviy ta'lim jarayonini) tashkil etishning asosiy funktsiyalarini o'z ichiga oladi. Bunday funktsiyalarga o'quvchilarning(o'qituvchilarning, kurs yaratuvchi pedagoglarni va boshqa roldagilarni) ro'yxatga olishi, foydalanuvchilarni o'quv kurslardan chetlashtirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish muhitini yaratish, o'quvchi va o'qituvchilarning o'zaro individual yoki/va guruh bo'lib hamkorlikda ishlashini (Web2 elementlarini ishlatish orqali) tashkil etish, guruhlar yaratish va ularni boshqarish, oraliq, joriy va yakuniy nazoratlarni tashkillashtirish va elektron nazorat turlarini yaratish (elektron nazorat turlariga yopiq turdagi test, ochiq turdagi nazorat, moslikni topishga oid, ketma-ketlikni to'g'ri joylashtirish, bo'sh qoldirilgan joyni to'ldirish va boshqa turlari kiradi), har-xil turdagi ijtimoiy so'rovlar tashkillashtirish, o'quvchilarning bilim darajasini monitoring qilish, sertifikatlar (diplomlar) berish imkoniyati, elektron axborot resurslarini (elektron kutubxonalar) tashkillashtirish, elektron o'quv resurslarini eksport/import qilish imkoniyatlari, tizim foydalanuvchilarining (o'quvchilar, o'qituvchilar(tyutorlar), kurs yaratuvchi pedagoglarning) tizimga qachon, qancha vaqt davomida o'quv kontentlar bilan tanishganligi, qaysi IP adres orqali kirganligini (bu esa qaysi davlatdan tizimga kirganligini aniqlashga yordam beradi), brauzer va qaysi operatsion tizim orqali kirganligi, tizimda mavjud fodaluvchilarning aktivligini maxsus grafiklar orqali monitoring qilish imkoniyati, o'qituvchi(tyutor) (yoki elektron kurs yaratuvchi pedagoglar) tomonidan elektron o'quv resurslarni

yaratishi, Authoring toolslarda SCORM, TinCan yoki boshqa standartlar asosida yaratilgan elektron o'quv resurslarini yuklashi, o'quvchilarning boshqa o'quvchilar/o'qituvchilar bilan (CHat, Forum, videokonferentsiya, umumiy elektron doskalar yoki tizimning ichki/tashqi xabarlar almashish moduli orqali) muloqatini tashkillashtirish, o'quv jarayonida bo'ladigan yangiliklarni barcha foydalanuvchilarga ommaviy xabar yuborib turuvchi modullarning mavjudligi, iqtisodiy va marketingga oid operatsiyalarni boshqarish va boshqa imkoniyatlarni sanab o'tish mumkin.

LMS tizimlarining tahlili

Qo'yida maosafaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli LMS dasturiy majmualarning nomlari va ularning asosiy imkoniyatlari bo'yicha ma'lumotlarni bayon qilamiz.

Atutor- Ochiq kodli ta'lim jarayonini boshqaruvchi LMS tizimi hisoblanadi.

Tizimda mavjud o'qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking va boshqa modullari mavjud. Tizim bir nechta standartlarni qo'llab quvvatlaganligi sababli, internet orqali jismoniy nuqsonga ega bo'lgan o'quvchi-talabalar tizim orqali o'quv resurslardan foydalanishlari mumkin. Xususan ko'zi ojiz talabalar maxsus veb ilovalar orqali tizimga bog'langan holda o'quv kontentdagi so'zlarni audio formatda utkazgan holda tinglashi mumkin.

O'quv modulini yozish vaqtida Atutor dasturiy majmuasining barqaror versiyasi 2.1.1.

Tizimning shaxsiy saytida 20 dan ortiq har hil modullar mavjud.

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://atutor.ca/atutor/>

Claroline – Erkin va ochiq kodli masofaviy o'quv kurslarni tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi Webga orientatsiyalangan dasuriy majmua hisoblanadi. Tizim Luvenadagi (Belgiya) katolik universitetining pedagogika va mul'timedia institutida yaratilgan. Dasturiy majmuadan foydalanish GNU (General Public License) asosida amalga oshiriladi ya'ni bepul foydalanish mumkin. Tizim ishlashi uchun serverda PHP/MySQL/Apache larni o'rnatilishi talab qilinadi. Windows 98 va NT, Mandrake Linux8.1 muhitiga o'rnatilgan EasyPHP tizimda tizim testdan o'tkazilgan. Claroline dasturiy majmuasidan 80dan ortiq davlatlarda foydalanishadi va 30 dan ortiq tillarga (dastur interfeysi) tarjima qilingan[6]. Tizim 2000 dan ortiq talabalarni bir vaqtning o'zida qabul qilishi mumkin. Claroline dasturiy majmuasi masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish uchun talab qilinadigan barcha talablarga javob beradi xususan, foydalanuvchilarni ruyihatdan o'tkazish, tizimda foydalanuvchilarning (fan o'qituvchisi, o'quvchi va mehmon) rollarini administrator tomonidan belgilashi, o'quv kurslarni yaratish, ularning tarkibini tahrirlash, talabalar bilimni nazorat qilish, monitoring olib borish, nazorat natijalarini tahlil qilish, tizim ichida foydalanuvchilar o'rtasida kommunikatsiya elementlaridan (chat, forum, qisqa xabarlar jo'natish modullaridan) foydalanish va boshqarish imkoniyatini beradi. Tizimda boshqa LMSlar singari qo'yidagi ko'rsatilgan o'qitish modullari mavjud: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work, Student tracking, Kalendar, Viki va boshqa modullari mavjud. Boshqa LMS lar singari IMS va SCORM standartlarni qo'llab

quvvatlaydi. Claroline dasturiy majmuasining imkoniyatlaridan demonstratsiya rejimida foydalanib ko‘rish mumkin, buning uchun <http://demo.claroline.net/> havolasiga murojat qilib, tizimga har xil rollarda (administrator, fan o‘qituvchisi, o‘quvchi) kirib tizimning imkoniyatlari bilan tanishib chiqishi mumkin. O‘quv modulini yozish vaqtida tizimning barqaror versiyasi Claroline 1.11.8.

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://www.claroline.net>

Dokeos - Clarolinening 1.4.2 versiyasidan ajralib chiqqan yangi dasturiy majmua hisoblanadi.

Dokeos Claroline platformasini ishlab chiqqan dastlabki ishchi guruhning bir necha a‘zolarining ish mahsuli bo‘lib, ular ta‘lim muassasalari uchun yaratilgan Clarolinedan farqli ravishda davlat korxonalarining ishchi xodimlariga moslashtirishni maqsad qilishdi va amalga oshirishdi.

Dokeos dasturiy majmuasining rasmiy Web saytiga tashrif buyursangiz, u yerda dasturning 2 ta versiyasini ko‘chirib olishni taklif qilinadi: Dokeos FREE – bepul va Dokeos PRO – bepul bo‘lmagan, qo‘shimcha modullari mavjud bo‘lgan dastur paketi taklif etiladi. Lekin Dokeos FREE versiyasi bizning fikrimizga ko‘ra, ta‘lim jarayonini tashkillashtirish uchun kerak bo‘ladigan barcha o‘quv modullari mavjud.

Tizimning imkoniyatlarini va unda mavjud o‘quv elementlarni qo‘yida ko‘rsatilgan aql xaritasi orqali ko‘rish mumkin. Rasmdan ko‘rinib turganidek, tizimda mavjud o‘qitish modullarini ta‘lim muassasalarida ham foydalanish mumkin. Hozirgi vaqtda LMS larining ko‘pchiligi ijtimoiy tarmog‘lardagi mavjud g‘oya asosida o‘zlarining ishchi muhitlarini shunday tarmog‘larga moslashtirmoqda. SHunga ko‘ra, bu tizimda ham ijtimoiy tarmog‘ elementlari keng kiritilgan. Yuqorida keltirilgan LMS tizimlari singari Dokeos dasturiy majmuasi ham SCORM standartini qo‘llab quvvatlaydi. Bu esa bu standartni qo‘llab quvvatlaydigan boshqa LMS tizimlariga o‘quv kurslarini eksport/import qilish imkoniyatini beradi. Dokeos dasturiy majmuasi o‘quv modulini yozish vaqtidagi ohirgi barqaror versiyasi Dokeos 2.2 RC2.¹⁴

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://www.dokeos.com>

LAMS IMS Learning Design standarti asosida 2003-yilda yaratilgan. JAVA dasturlash tilida yozilgan. Kross-platformali, 32 tilga dastur interfeysi tarjima qilingan va GPLv2 asosida bepul foydalanish mumkin. LAMS dasturiy majmuasi boshqa LMS lardan farqi shundaki, o‘qituvchilarga o‘quv jarayonini strukturalashda vizual vositalardan foydalanish imkoniyatini beradi, bu vositalar o‘quv jarayonida o‘quv resurslarini (elektron o‘quv resurslarni, chat, so‘rovnomalar, topshiriqlar) va nazorat turlarini qanday ketma-ketlikda bo‘lishligini vizual ko‘rinishini ta‘minlaydi. Bunda o‘qituvchi “sinchqoncha” orqali bu ketma-ketliklarni hech qanday qiyinchiliksiz joylarini o‘zgartirishi mumkin bo‘ladi.

¹⁴ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 35 p.

LAMS – elektron o‘quv resursini vizual ravishda o‘quv kontentlarni o‘zgartirish boshqarish va yaratishdagi imkoniyatlarining mavjudligi sababli, yangi revolyutsion ilova hisoblanadi. U o‘qituvchiga o‘quv kontentini yaratishda intuitiv tushunarli interfeys taqdim qiladi. Bu interfeys o‘z ichiga har-xil individual vazifalar, guruhli o‘qitishda frontal vazifalarni berishini o‘z ichiga oladi. O‘quv modulini yozish vaqtidagi tizimning barqaror versiyasi 2.4.

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://lamsfoundation.org/>

Moodle – Web muhitida o‘qitish va on-line rejimdagi darslarni tashkil qiluvchi kuchli pedagogik dasturiy majmua hisoblanadi. Tizimda mavjud o‘qitish modullari: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Group work , Student tracking va ancha ko‘p bo‘lgan boshqa modullari mavjud. Boshqa LMS lar singari IMS, SCORM va boshqa standartlarni qo‘llab quvvatlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, boshqa LMS tizimlarga qaraganda eng ko‘p qo‘shimcha plugin va modullari mavjud bo‘lgan dasturiy majmua aynan, Moodle dasturiy majmuasi hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda dunyoning ko‘p davlatlarining o‘quv muassasalarida masofaviy ta‘lim jarayonini aynan Moodle dasturiy majmuasidan foydalangan holda tashkillashtirilmoqda[5].

1-Jadval. Moodle bo‘yicha statistika(13.08.2013 gacha bo‘lgan ma‘lumotlar)

Ro‘yihatdan o‘tgan foydalanuvchilar soni	86277
Davlatlar	237
Kurslar	7802594
Foydalanuvchilar	73052135
O‘qituvchilar	1297013
O‘quvchilar kontingenti	76154065
Resurslar	69440017

Shuningdek, O‘zbekistondagi ko‘plab ta‘lim muassasalarida aynan virtual ta‘lim muhiti sifatida aynan Moodle dasturiy majmuasi foydalanib kelinmoqda.

Xususan, Toshkent axborot texnologiyalari universitetining virtual ta‘lim muhiti - etuit.uz, O‘zbekiston Milliy universitetining “Ochiq o‘quv-axborot markazida”, Xalq ta‘lim vazirligi qoshidagi “Multimedia umumta‘lim dasturlarini rivojlantirish markazi”- <http://moodle.uzedu.uz/>, Toshkent Turin Politexnika universitetida - moodle.polito.uz va boshqa muassasalarda keng foydalanib kelinmoqda. Ochiq kodli Moodle dasturiy majmuasi o‘quv jarayonini boshqaruvchi Web ga yo‘naltirilgan maxsus tizim bo‘lib, internet tarmog‘ida foydalanishga mo‘ljallanilgan. Tizimni yaratishda ochiq kodli dasturiy ta‘minotlardan foydalanilgan. Uni ishlatish uchun ma‘lumotlar omborini boshqarish dasturi (MySQL yoki PostgreSQL), PHP protsessori, Web xizmati dastur (Apache yoki IIS) lari sozlangan server zarur. Opertsiion tizim sifatida ixtiyoriy keng tarqalgan tizimlardan biridan foydalanish mumkin (Windows, Linux, Mac OS X, Novwll Netware). O‘quv moduli yozilayotgan vaqtda tizimning

barqaror versiyasi moodle 2.5.

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://www.moodle.org>

eFront - dasturiy majmua Unix, Linux, FreeBSD, Windows, Mac OS X, Netware va boshqa PHPni qo'llab quvvatlovchi operatsion tizimlarda ishlaydi. Ma'lumotlar bazasi sifatida MySQL va PostgreSQL lardan foydalanish mumkin. Boshqa LMS lar singari IMS va SCORM standartlarni qo'llab quvvatlaydi. Tizim 30dan ortiq tilga tarjima qilingan shu qatorida o'zbek tilidagi tarjimasi ham mavjud. Agar saytga kirsangiz sizga eFront ning bir nechta versiyasidan foydalanish taklif etiladi, bular Editions, Enterprise, Educational va Open-sourcelar. (Bular bir biridan nimasi bilan farq qilishini to'liq bilmoqchi bo'lsangiz qo'yida ko'rsatilgan havolaga murojlat etishingiz mumkin <http://www.efrontlearning.net/functionality-matrix>.) Bulardan faqat ohirgisini (Open-source) foydalanish bepul hisoblanib qolganlaridan foydalanmoqchi bo'lsangiz ma'lum qo'shimcha pul evaziga sotib olishingiz mumkin bo'ladi. Lekin eFront dasturiy majmuasining Open-source versiyasi masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirishingiz uchun yetarli hisoblanadi. O'quv moduli yozilayotgan vaqtdagi barqaror versiyasi eFront (Open-source) v3.6.13.2.

eFront dasturiy majmuasi asosida Toshkent axborot texnologiyalar universitetining fizika kafedrasida qoshidagi "Multimediali o'qitish markazi" tomonidan <http://my.estudy.uz> masofaviy o'quv kurslari fizika fani bo'yicha yaratilgan va hozirgi vaqtgacha ishlab kelmoqda.

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://www.efrontlearning.net/>



eFront dasturiy majmuasi asosida yaratilgan my.estudy.uz LMS tizimining strukturasi

Chamilo- Ochiq kodli masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi Webga orientatsiyalangan dasturiy majmua hisoblanadi. Chamilo loyihasi 18 yanvar 2010 yildan boshlab rivojlanib kelmoqda. O'quv moduli yozilayotgan vaqtda Chamilo dasturiy majmuasining barqaror versiyasi 1.9.6. Boshqa LMS lar

singari IMS (IMS Content Packaging, IMS QTI) va SCORM standartlarini qo‘llab quvvatlaydi. Tizim kross-platformali hisoblanib, barcha operatsion tizimlarda ishlaydi. GPLv3 litsenziyasi asosida ish yuritadi. Tizimning rasmiy saytida keltirilgan ma‘lumotga ko‘ra hozirda 250 000 dan ortiq talaba bu tizim orqali ta‘lim olib kelishmoqda. <https://campus.chamilo.org/index.php?language=russian> havolasi orqali tizimning imkoniyatlarini real ravishda administrator, o‘qituvchi(tyutor) va o‘quvchi rollarida bo‘lib, tanishib chiqish mumkin. Masofaviy o‘quv jarayonini bu tizim orqali hech qanday qiyinchiliksiz tashkillashtirish mumkin. Tizimdan davlat tashkilotlari o‘zlarining ishchi xodimlarini attestatsiyadan o‘tkazishda ham foydalanishlari mumkin.

Tizimning rasmiy internet manzili: <https://chamilo.org>

ILIAS. Bu tizim ham erkin va ochiq kodli masofaviy ta‘lim jarayonini boshqaruvchi LMS tizimi hisoblanadi. Dasturiy majmua 1998 -yildan va hozirgi vaqtgacha rivojlanib kelinmoqda. Boshqa tizimlarda mavjud bo‘lgan o‘qitish modullari bu tizimda ham bor: Forums, Materials, Messenger, Chat, Exercises, Student tracking, Kalendar, Glossari, Viki va boshqa modullari mavjud. O‘quv modulini yozish vaqtida ILIAS dasturiy majmua ining barqaror versiyasi 4.3.4. Tizim Apache, PHP, MySQL, XML larga asoslangan. SCORM standartiga to‘liq javob beradi. Tizimning boshqa tizimlarga nisbatan avfzal tomonlaridan biri elektron nazorat turlarining yaxshi yo‘lga qo‘yilganidadir. Qo‘yida ko‘rsatilgan elektron nazorat turlarini o‘z ichiga oladi: single choice, multiple choice, matching, fill-in-the-blanks, hot spots, flash, java applet va boshq. O‘quvchilarning olgan natijalarini tahlil qilish va sertifikatlash imkoniyati ham mavjud.

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://www.ilias.de>

Sakai – dunyoning ko‘pgina ta‘lim muassalarida keng foydalanib kelinayotgan navbatdagi ochiq kodli GNU GPL litsenziyasi asosida erkin tarqatiluvchi dasturiy majmua hisoblanadi. Boshqa LMS tizimlaridan farqi shundaki tizim to‘liq Java tilida yozilgan. SHu sabali tizim kross-platformali hisoblanadi. Sakai dastur majmuasining o‘zining ma‘lumotlar ombori mavjud bo‘lib, agar foydalanuvchilar soni kam bo‘lsatizimning ichki ma‘lumotlar omboridan foydalanish mumkin, agar foydalanuvchilar soni ko‘p bo‘lsa, u holda MySQL yoki Oracle ma‘lumotlar omborida ishlashi mumkin. O‘quv moduli yozilayotgan vaqtda tizimning barqaror versiya Sakai 2.9.2.

Sakai dastur majmuasida ta‘lim jarayonini boshqarish imkoniyatini beruvchi qo‘yidagi umumiy modullari mavjud:

- Announcements (E‘lonlar)- tizim foydalanuvchilariga tegishli e‘lonlarni yetkazish uchun xizmat qiladi;
- Drop Box (Fayllar almashinuvi)- talabalar/o‘qituvchilar va o‘qituvchilar/talabalar o‘rtasida (shaxsiy) xujjatlar almashinuvchini ta‘minlashga xizmat qiladi;
- Email Archive (Elektron pochta arxivi)-bu modul orqali tizimdagi foydalanuvchilarning pochta xabarlarini tizimning arxiv pochta saqlanadi;
- Resources (Resurslar)- tizim ichidagi foydalanuvchilar o‘zlarining o‘quv resurslarini saqlashlari va ularni jamoaga e‘lon qilish imkoniyati;

- Chat Room – on line ravishda tizim ichidagi foydalanuvchilar o‘rtasida aloqani o‘rnatish muhiti;
- Forums (Forum)- biror bir mavzu bo‘yicha diskutsiya mavzularni ochish mumkin. On-line muloqatdagi chatdan farqli ravishda bu modul orqali off line ravishda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish mumkin;
- Message Center (Xabarlar markazi)- tizim foydalanuvchilari o‘rtasida ichki xabarlar almashish moduli;
- News / RSS- RSS dinamik yangiliklarini o‘zingizning kompyuteringizga eksport qilish imkoniyati;
- Poll tool (So‘rovlar o‘tkazish) – tizim ichida har xil so‘rovlar o‘tkazish imkoniyati;
- Presentation (Prezentatsiya) – bir vaqtning ichida bir nechta foydalanuvchilar uchun fayllarni taqdimot qilish imkoniyatini beruvchi modul;
- Profile / Roster – tizimda mavjud foydalanuvchilarning shaxsiy profillari bilan ishlash moduli;
- Repository Search- tizim ichidagi ma’lumotlarni qidirish moduli.

O‘qituvchi uchun ishchi modullari (Teaching tools) qo‘yidagilardan iborat: Assignments, Grade book, Module Editor, QTI Authoring, QTI Assessment, Section Management, Syllabus.

Tizim muhitida o‘quvchi uchun ishchi modullari (Portfolio tools) qo‘yidagilardan iborat: Forms, Evaluations, Glossary, Matrices, Layouts, Templates, Reports, Wizards, Search, Web Content, WebDAV, Wiki, Site Setup, MySakai, Widgets.

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://www.sakaiproject.org>

eStudy.uz Masofali ta’lim tizimi. Masofali o‘quv kurslarini yaratishda ekspert tomonidan o‘quv kurs traektoriyasini belgilashi, parametrlarni kiritishi va o‘quvchilar bilimni baholashda adaptivlashgan testlar bazasini yaratishi shuningdek shakllantirishi mumkin. eStudy.uz tizimi o‘quvchining boshlang‘ich bilim darajasidan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchi uchun individual o‘quv traektoriyasini shakllantirish imkoniyatini beradi. Tizim orqali masofadan o‘qitish jarayonini tashkillashtirish mumkin.

Masofali o‘qitishga mo‘ljallangan o‘quv-uslubiy vositalardan foydalanish

Respublikamizda ma’naviy yetuk, chuqur bilimli, jismonan sog‘lom bo‘lgan barkamol avlodni voyaga yetkazish yo‘lida bir qancha amaliy ishlar bajarilmoqda. SHuningdek, ta’lim tizimida o‘qi-tishning zamonaviy shakllari va usullarini qo‘llash, zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, masofali o‘qitish texnologiyalarini amaliyotga joriy qilish masalalari dolzarb muammolardan biri hisoblanmoqda.

Masofali o‘qitish – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilmiy asoslangan o‘qitish usullarini qo‘llab ta’lim olish shak-lidir. O‘qitishning bu shaklida o‘quvchilarga mos ta’lim predme-tini erkin tanlash, o‘qituvchi bilan

muloqot qilish sharoitlarini ta'minlaydigan an'anaviy, zamonaviy axborot-telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslanadigan, o'qitish jarayonida o'quvchining qaerdaligi va vaqtga bog'liq bo'lmagan holda amalga oshiriladi.

Masofali o'qitishda o'quv jarayoniga tegishli bo'lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, metod, tashkiliy shakl, o'qitish vositalari va hokazo) INTERNET texnologiyasining texnik va dasturiy vositalari bilan amalga oshiriladi.

Masofali o'qitishni tashkil qilish, takomillashtirish va unda ta'lim xizmatlari samaradorligini oshirishda axborot makonining o'rnini juda katta. Ta'lim muassasalarida fanlardan axborot makonini yaratish INTERNET va INTRANET tarmoqlarida ta'lim portallari tashkil qilish orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim portalida masofali o'qitishni tashkil qilishda umumlashtirilgan o'qitish texnologiyalari va tizimlarini yaratish muhim ahamiyatga ega. Umumlashtirilgan o'qitish texnologiyalari va tizimlariga ta'lim portalida joylashtirilgan o'quv dasturlari, rejalar, darsliklar, o'quv va metodik qo'llanmalar, seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari mazmuni, test tizimlari majmuasini keltirish mumkin.

Ta'lim portali masofali ta'lim tizimining rivojlani-shiga, shu bilan birga uning asosiy vositasi hisoblanib, masofali ta'limning tashkiliy-uslubiy va me'yoriy-huquqiy bazasining shakllanishiga, ta'lim oluvchilar va pedagoglarni mut-laqo yangi vositalar bilan ta'minlashga, pedagogik tadqiqotlarni rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim portallariga masofali o'qitish amalga oshiriladigan ta'lim muassasalari o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarish, uning tuzilmalari, moliyaviy-xo'jalik ishlarini yuritish, o'quv reja va dasturlar, o'quv materiallari, testlar va boshqalar haqida veb saytlar majmuasi joylashtiriladi.

O'quv jarayoni uchun yaratilgan ta'lim portali o'quv jarayoni mobaynida namoyish etish vositasi, kompyuter sinflarida tashkil etiladigan mustaqil ishlash mashg'ulotlarida repititor, mustaqil ta'lim olishga vosita, amaliy va laboratoriya ishlarini bajarish mobaynida uslubiy yordamchi, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishini nazoratchisi, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun masala va mashqlar bilan ta'minlovchidir.

Ta'lim portali o'quvchilarga axborotni o'qish, ma'ruzalarni eshitish, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlariga mo'ljallangan vazifalarni bajarish, o'z bilimlarini tekshirish va zarur hollarda ularni to'ldirish, o'z-o'zini nazorat qilish kabi bilim shakllarini tavsiya etishi mumkin.

Ta'lim portali o'z ichiga trenajyorlar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari uchun vazifalar, test topshiriqlari, bir vaqtning o'zida bilim berish va ularni o'zlashtirish jarayonini nazorat qiluvchi dasturiy ta'minotlarni qamrab oladi. Boshqacha aytganda, u o'quv predmetlarining asosiy axborotli qismini bayon etuvchi, olingan bilimlarni mustahkamlashga mo'ljallangan mashqlar, o'quvchilarning bilimlarini baholash imkoniyatini beradigan test texnologiyalaridan tashkil topadi.

Ta'lim portalidagi mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun yaratilgan elektron o'quv-uslubiy materiallar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida

faoliyat olib boradi. Avtomat-lashtirilgan o'quv-uslubiy materiallar ta'lim oluvchilarga axbo-rot-kommunikatsiya texnologiyalari imkoniyatlari orqali yetkaziladi.

O'quv jarayonida kafolatlangan natijaga erishish uchun axbo-rot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish talab etiladi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish vositalariga elektron darsliklar va elektron o'quv-uslubiy majmualarni keltirish mumkin. Ma'lumki, elektron darslik – kompyuter va axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan o'quv uslubini qo'llashga, mustaqil ta'lim olishga hamda fanga oid o'quv materiallar, ilmiy ma'lumotlarning har tomonlama samara-dor o'zlashtirilishiga mo'ljallangan elektron o'quv adabiyoti hisoblanadi.

O'quv jarayonida mashg'ulotlarni samarali tashkil qilishda kompyuterning dasturiy vositalari asosida yaratilgan o'quv-uslubiy materiallar va elektron darsliklardan foydalanishdan asosiy maqsad zamonaviy axborot – ta'lim uslubini shakllan-tirish, zamonaviy axborot-pedagogik, axborot va kompyuter texnologiyalarini qo'llash orqali ta'lim jarayonining samarador-ligi, sifati va unimdorligini oshirish, uzluksiz ta'lim tizimida zamonaviy o'quv manbalari elektron o'quv darsliklarini keng qo'llash, ularning ma'lum ma'noda kutubxonalarini tashkil etish, ta'limning masofadan o'qitish usullarini amalda joriy etish va umumjahon elektron o'quv tizimiga kirishdan iborat.

O'quv jarayonida mustaqil ta'lim mashg'ulotlari uchun yara-tilgan elektron o'quv-uslubiy majmualar avtomatlashtirilgan dasturiy vositalar yordamida faoliyat olib boradi. Avtomatlash-tirilgan o'quv-uslubiy majmualar ta'lim oluvchilarga kerakli mavzular bo'yicha ma'lumotlarni tavsiya etadi va bilimlarni nazorat qiladi. Bilimlarning nazorati natijasiga qarab ta'lim oluvchilarga turli saviyadagi topshiriqlar tavsiya qilinadi. Avtomatlashtirilgan o'quv-uslubiy ta'lim vositalari yordamida ta'lim oluvchilar o'qituvchining yordamisiz ham o'z bilimlarini oshirib takomillashtirib borishi mumkin.

O'quv materiallarini elektron ko'rinishda taqdim etganda uning o'quvchilar tomonidan tushunish darajasiga alohida e'tibor berish kerak. Elektron shaklda taqdim etilayotgan materiallar ta'lim oluvchilar uchun qulay va yaxshi o'zlashtira oladigan bo'lishi, shuningdek, tavsiya etilayotgan o'quv materiallarida kerakli ta'riflar, tayanch iboralar, kalit so'zlarga murojaat qilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari yaratilishi kerak.

O'quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalari qo'llanilsa, ta'lim-tarbiya jarayoni jadallashtiriladi. Ta'lim-tarbiya jarayonini jadallashtirishning asosiy omillari qatoriga quyidagilarni keltirish mumkin:

- maqsadga yo'naltirilganlik;
- o'quvchilarning motivatsiyasini kuchaytirish;
- ta'lim mazmunining axborotli hajmini kengaytirish;
- o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini faollashtirish;
- o'quvchilarning o'quv-amaliy darajasini mustahkamlash va boshqalar.

Tadqiqotlarimiz davomida akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun Informatika va axborot texnologiyalari fanlaridan elektron o'quv-uslubiy majmua yaratdik. Yaratilgan elektron o'quv-uslubiy majmuadan ta'lim oluvchilar Informatika va axborot texnologiyalari fanlarini mustaqil o'rganishlarida foydalanishlari mumkin. Masofali o'qitishga mo'ljallangan elektron o'quv-uslubiy majmua bosh sahifasining umumiy tuzi-lishi quyidagi rasmda keltirilgan:

O'quv jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foy-dalanishning afzalliklari quyidagilardan iborat:

- o o'quv jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o'zlashtirish;
 - o ta'lim olishning yangi shakllarini amaliyotga joriy qilish;
 - o dars jarayonida bilim olish vaqtining qisqarishi nati-jasida vaqtni tejash imkoniyati;
 - o olingan bilimlar kishi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolinishi va uni amaliyotda qo'llash mumkinligi.
 - o o'quvchilarda ma'lum malakalarni shakllantirish vaqti qisqaligi;
 - o mashg'ulotlarda bajariladigan topshiriqlar sonining oshishi;
 - o kompyuter tomonidan faol boshqarishni talab qilinishi natijasida o'quvchi ta'lim sub'ektiga aylanishi;
 - o o'quvchilar kuzatishi, mushohada qilishi qiyin bo'lgan jarayonlarni modellashtirish va bevosita namoyish qilish imkoniyatining hosil bo'lishi va boshqalar.
- O'quv jarayonini kompyuterlashtirish, masofali o'qitishning asosiy vositalaridan biri bo'lgan o'quv-uslubiy ta'minotni yara-tish va ularni takomillashtirish muammolarini hal qilish bo'yicha barcha iqtisodiy rivojlangan

mamlakatlar kabi respublikamizda ham turli yo‘nalishdagi ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

1. Yuldashev O‘. Masofali o‘qitishga mo‘ljallangan o‘quv-uslubiy vositalardan foydalanish.

10-MODUL: KOMPYUTER VOSITASIDA NAZORAT ISHLARINI TASHKIL QILISH METODIKASI

1. Bilimlarni baholashning elektron shakllari.
2. Turli xil nazoratlarni o‘tkazishda axborot texnologiyalarining imkoniyatlari.
3. Universal test dasturlari.
4. O‘zbek tilidan interaktiv testlarni tuzish va qo‘llash yo‘llari.

Pedagogik testlarni kompyuter yordamida avtomatlashtirilgan holda o‘tkazish uning asosiy afzalliklaridandir. Kompyuter yordamida onlayn taqdimotlar va elektron o‘quv kurslarini yaratuvchi zamonaviy dasturlardan biri iSpring Suite dasturlar to‘plamidir.

iSpring Suite dasturlar paketida iSpring QuizMaker dasturi audio, video fayllar, tasvir va formulalar yordamida interaktiv testlar va anketalar yaratadi. Interaktiv testlarni iSpring QuizMaker dasturi yordamida tuzish uchun kompyuterga iSpring Suite dasturi bilan Adobe Flash (operasion tizim razryadiga ko‘ra 32 va 64 bitli) dasturi o‘rnatilishi talab etiladi. Dastur o‘rnatib bo‘lingach **Pusk** menyusidan **Vse программы** bo‘limida iSpring Suite tanlanadi va natijada 9-rasmdagi oyna paydo bo‘ladi. ([Ilovalar 9-rasmga qarang](#)). Bundan iSpring QuizMaker dasturi tanlanishi bilan 10-rasmdagi oyna ochiladi. ([Ilovalar 10-rasmga qarang](#)).

Bu oynadan **Sozdat novyy test** bo‘limini tanlasak pedagogik testlarni tuzish uchun oyna ochiladi(11-rasm). ([Ilovalar 11- rasmga qarang](#)). Bu oyna dasturning ishchi oynasi hisoblanadi. Ishchi oynaning **Dobavit test** bo‘limidan test yaratish amali boshlanadi. Ushbu bo‘limda pedagogik testlar turlarining 11ta turi keltirilgan ularni kerakligini tanlab test tuzishimiz mumkin. Ular quyidagilar:

1. **Verno/neverno** (to‘g‘ri/noto‘g‘ri) test turi -bunda savol berilib to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri javobini tanlanadi;
2. **Oдиночный выбор** (bitta javobni tanlash) - bir necha variatdan kerakli javobni tanlash;
3. **Множественный выбор** (bir necha javobni tanlash);
4. **Vvod stroki** (satr kiritish) - javobni satrga kiritish yo‘li bilan javob berish;
5. **Sootvetstvie** (mos keltirish) - savollarni javoblariga mos keltirib qo‘yish orqali javob berish;

6. **Poryadok** (tartib) - javobni kerakli tartibga keltirib javob berish;
7. **Vvod chisla** (sonni kiritish) - satrga savol javbiga mos sonni kiritib javob berish;
8. **Propuski** (tushirib qoldirilgan) -tushirib qoldirilgan so‘zlarni kerakli joyga qo‘yib yozish;
9. **Vlojennye otvety** (jamlagan javoblar)-jamlangan javoblar ichidan to‘g‘ri javobni tanlash orqali javob berish;
10. **Bank slov** (so‘zlar ombori) -so‘zlar omboridan kerakli so‘zlarni to‘g‘ri ketma ketlikda qo‘yish orqali javob berish. Bunda so‘zlar omboriga so‘zlarni ham kiritish kerak bo‘ladi;
11. **Aktivnaya oblast** (faol soxa) -rasmda aktiv soxani tanlab javob beriladi. Bunda rasmning biror soxasini tanlash kerak bo‘lgan savol kiritiladi. Test tuzishda ana shu testlar turini tanlab unga mos savollar berib, javobini ham kiritish kerak bo‘ladi. ([Ilovalar 12- rasmga qarang](#)).

Birinchi qadam biz ko‘rib turganimizdek dasturda hamma so‘zlar ruschada berilgan. Ularni o‘zbekchaga o‘tkazib olishimiz ham mumkin. Dasturni ishchi oynasida **Test** bo‘limidan **Nastroyki** bandini tanlaymiz. Shunda oyna ochiladi (4-rasm). Oynaning chap bo‘limidan **Nadpisi** bandini tanlaymiz. **Soobshenie / knopka** ustuniga tegmagan holda **Nadpis** ustuniga birinchi ustunga berilgan so‘zlarni mosiga o‘zbekcha so‘zlarni kiritib taxrirlashimiz mumkin. Natijada testimiz o‘zbekcha ko‘rinishga keladi. Ikkinchi qadamda kerakli test turini **Dobavit vopros** bo‘limidan tanlaymiz. Misol uchun **verno/neverno** turi. Shunda dastur oynasi quydagicha ko‘rinishga keladi(13-rasm). ([Ilovalar 13-rasmga qarang](#)).

Ushbu oynaning **vopros** oynachasiga savol kiritib, unga ko‘ra **otvet** oynasiga ikkita javob kiritib, savolga mos to‘g‘ri javobni tanlab qo‘yiladi. Dastur oynasining o‘ng qismida **Izobrajenie, Zvuk, Video** yozuvi turibdi shular yordamida fayllardan tasvir, formula, ovoz, videolar tanlab savollar ham tuzish imkoniyati mavjud. Shu tarzda har xil test turlaridan tanlab testlarni yaratish mumkin. Uchinchi qadam. Test tuzib bo‘lingandan so‘ng uni sozlash kerak bo‘ladi. Umumiy ball berish, har bir savolga necha ball berish, testni davomiyligi va h.k.

Buning uchun yana **Nastroyki** bo‘limiga kiramiz(12-rasm). Bu oynaning chap oynasidagi bo‘limlarga kirib testerimizni sozlab olamiz.

To‘rtinchi qadam dastur oynasining **Test** bo‘limidan **Publikovat** bandini tanlaymiz va natijada oyna ochiladi(14-rasm). ([Ilovalar 14 – rasmga qarang](#)). Yaratgan testimizni to‘rt xil ko‘rinishda yaratishimiz mumkin. Web sahifa, iSpring Onlain, LMS, Word sahifasi. Undan keyin test formatini HTML, exe, Zip arxivni tanlashimiz, tester nomi, qo‘llanish ko‘lami, saqlanadigan o‘rni, fayl nomi va fleshrolik xususiyatlarini tanlab **Publikovat** tugmasini bosamiz.

Yuqorida keltirilgan testdan ko‘rinib turibdiki, bu test an'naviy testlarga qaraganda bu testda bir xillik bo‘lmaydi va talabalarga bir muncha qiziqarliroq tarzda testlar beriladi. Undan tashqari bu interaktiv testlarni rasm, ovoz va formulalar yordamida testlarni tuzish imkoniyati mavjudligi ularni yanada qiziqarli va qolaversa talabani katta intuziazm bilan ishlashga chorlaydi.

Oddiy testlardan chegaralangan yo‘nalishlar foydalanib test nazorati o‘tkazishi mumkin edi, misol uchun musiqa yo‘nalishi talabalari uchun faqat nazariyadan savollar berish mumkin edi, bu dasturda esa ovozlarni qo‘yish yordamida test tuzish imkoniyati borligi biror bir musiqadan parcha qo‘yib savollar tuzish imkoniyatini yaratadi. Boshqa yo‘nalishlar ; informatika, matematika, fizika, biologiya, geografiya va h.k. lar uchun ham juda qiziqarli, interaktiv testlar tuzish imkoniyati mavjud.

Undan tashqari testni kompyuter tarmoqlari orqali ham o‘tkazish imkoniyati va elektron pochta orqali yo‘llab yuborish imkoniyatlari mavjudligi hozirgi zamonaviy ta’lim talablariga ham javob bera oladi.

Yuqorida keltirilgan imkoniyatlardan ushbu dasturdan elektron darslik, o‘rgatuvchi dasturlarga qo‘yiladigan talablarga javob beradigan elektron vositalar yaratishda foydalanish qulayligi ko‘rinib turibdi.

Asosiy darsliklar va o‘quv qo‘llanmalari

1. Karimov I.A. “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch”.–T., 2008. -176 b.
2. Aripov M.M., Muxammadiyev J.U. Informatika. Axborot texnologiyalari. Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik. – T., 2005.
3. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. –T.: TDPU, 2006. - 96 b.
4. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.
5. Yusupova Sh., G‘oziyeva O. Ona tili o‘qitishda interfaol usullar va kompyuter dasturi. – T.: Bayoz, 2013. -134 b.

Qo‘shimcha adabiyotlar

6. Yo‘ldoshev Q. va boshq. Adabiyot o‘qitish metodikasi. -T., 1994.
7. Abduqodirov A., Xayitov A. Axborot texnologiyasiga oid atamalarning izohli lug‘ati. – T.: TDPU, 2002. – 27 b.
8. To‘xliyev B. Adabiyot o‘qitish metodikasi. –T.: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Masofali o‘qitish nazariyasi va amaliyoti. – T.: Fan, 2009. – 145 b.
10. To‘xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.– T.: O‘zbekiston Milliy kutubxonasi, 2010.
11. A.Okal. A Global Simulation. The University of Arizona. -Tucson, CERCLL. 2012. -87 p.
12. Jim Burke. The English Teacher's Companion. -Heinemann; 4th edition. -2012. –392 p.
13. Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 65 p.

Internet saytlari

1. www.Lex.uz

2. www.ziyonet.uz
3. www.bimm.uz
4. www.twipx.com
5. www.yazikoznanie.ru.

11-MODUL. TIL TA'LIMIDA INTEGRATIV YONDASHUVNI TA'MINLASHDA AKTNING O'RNINI

REJA

1. Til ta'limida integrativ yondashuv.
2. Kommunikativ kompetentlikka erishishda autentik (elektron) materiallar.
3. Tilni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish va til sathlari integratsiyasini ta'minlashda AKT imkoniyatlari.
4. Noan'anaviy darslarni AKT yordamida tashkil etish.

1. Til ta'limida integrativ yondashuv. Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarda ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi tez-tez tilga olinmoqda. Ta'limning hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, bozor iqtisodiyoti va ishlab chiqarish bilan uzviy hamkorlikda rivojlanishi zarurligi "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ham ahamiyatli g'oyalardan biridir. Shuning uchun ham ta'limni rivojlantirishda integratsiyadan unumli foydalanish dolzarb vazifaga aylanmoqda.

Ta'lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasini tashkil etish bo'yicha tajribalarni to'plash, ularni amalda qo'llash borasida o'qituvchilar faoliyatini tahlil qilish, AKT imkoniyatlaridan foydalangan holda integratsiyali darslarni tashkil qilish va ta'lim samaradorligini oshirishga qaratilgan tavsiyalar ishlab chiqish bugunning dolzarb vazifalaridandir.

Integratsiya – ayrim bo'laklarning yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishidir¹⁵. "Integratsiya" tushunchasi XVIII asrdayoq Spenser tomonidan izohlangan edi. Integratsiya – «butun» degan ma'noni bildiradi. P.f.d. Sh.Yusupova: "Integratsiya fanlarning mexanik birlashishi emas, bu sintez, yangi narsaning kelib chiqishi, kashfiyotdir. Alohida sistemalarning yaqinlashishi, bog'lanishi va yagona bir yangi narsaning yaratilishidir", – deb ta'riflaydi. Olima integratsiyani differentsiatsiyaning aksi ekanligini ta'kidlaydi hamda uni quyidagi yo'nalishlarda tatbiq etish maqsadga muvofiq deb hisoblaydi:

a) o'quv predmetlari va fanlar doirasidagi mazmuni integratsiyalab o'rganish;

b) turli o'quv predmetlaridan tahsil beruvchi shaxslarning faoliyatlarini integratsiyalash;

¹⁵ O'zbek tilining izohli lug'ati. I – M.: Russkiy yozik, 1981.- B. 380.

v) ta'lim-tarbiya ishini tashkil etish shakllari yoki o'quv kunini integratsiyalash.

Fanlararo aloqa o'quvchilarda oldin o'zlashtirilganlarini yangi bilim bilan boyitishga, fakt va hodisalar mohiyatini tushunishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarni voqea-hodisalar to'g'risida mustaqil fikr yuritadigan, o'z fikrini ilmiy jihatdan asoslaydigan bo'lishiga erishish uchun integrativ darslar tashkil qilishi, bilimlarni egallashga motivatsiya uyg'otishi zarur hisoblanadi. Integratsiya Farididdin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangdir: bu ro'yi zaminda mayda narsaning o'zi yo'q, hamma narsa bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiradi¹⁶.

Integratsiyali darslarni tashkil qilish uchun o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rishda o'quvchilarda faollikni oshirish yo'llarini, mavzuni o'tish modellarini, mashg'ulot jarayonida foydalanish lozim bo'lgan vositalarni, usullarni aniqlab oladi. Bu ishlarni amalga oshirishda mavzuga oid izchil talablar qo'yilishi lozim. Buning uchun o'qituvchi darsning kengaytirilgan rejasini tuzib, shu reja asosida ish olib boradi. O'quvchilar mustaqil fikrlash orqali individual ravishda izlanadilar, natijada tafakkur qobiliyatlari rivojlanadi.

Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish yo'llarini tushunishga imkon yaratadi.

Ta'lim samaradorligini oshirish uchun integratsiya holatidagi dastur va darsliklar yaratilishi lozim. Pedagog U.Musaev integratsiyaning quyidagicha turli darajalarini taklif etadi¹⁷. Mavzularni ketma-ket taqdim etish asosidagi integratsiya; bunda o'quv materiallarini bayon qilishda kontsentrizm printsipiga amal qilinadi, ya'ni oldingi o'quv-materiali keyingisini to'ldiradi.

A.G'ulomov hamda H.Ne'matovlar ta'kidlashicha, boshqa fanlardan olingan ma'lumotlardan foydalanib, o'quvchilarni nutq uslublari bilan tanishtirish imkoniyatiga ega bo'lmoq lozim. O'quvchilar badiiy uslubni adabiyot, ilmiy uslubni biologiya, kimyo, fizika, matematika, ish qog'ozlari uslubini huquq asoslari fanlaridan olingan materiallar asosida o'rganishlari zarur¹⁸.

Integratsiya go'yoki bilim berishda zarur emasga o'xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo'l bo'lib, u orqali o'quvchilar dunyoqarashi kengayadi: til, san'at, tarix, musiqa, adabiyotning qonuniyatlarini chuqur anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi. O'quvchilarni ijod qilishga o'rgatish, izlanishga yo'naltirish, tasavvur, fantaziyani hosil qilish o'qitishning zamonaviy

¹⁶ Qarang: [Ro'zimuhammad B. Buyuk shaxslar silsilasi // Ma'rifat. - 2002. -№26. -B.6.](#)

¹⁷ [Musayev U. Integratsiya natijalari // Xalq ta'limi. - 2002. - № 6.-B. 5-6.](#)

¹⁸ [G'ulomov A., Ne'matov H. Ona tili ta'limi mazmuni.-T.: O'qituvchi, 1995.-B. 38.](#)

usullariga kiradi. Bu o'quvchilarning kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish maslasiga uzviy bog'lanib ketadi.

Kommunikativ kompetentlikka erishishda autentik (elektron) materiallar.

Ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish **maqsadi** qo'yilgan bo'lib, bu maqsadga erishish masalasi umumiy o'rta ta'lim Davlat ta'lim standartlari takomillashtirilishiga uzviy bog'langan. Xorij ta'lim tizimida bo'lgani kabi mamlakatimizda o'quvchilarning kompetentligini shakllantirish yuzasidan tayanch kompetensiyalar va fanga oid kompetensiyalar ishlab chiqildi. Unga ko'ra ta'lim tizimining bitiruvchisi ta'limning ma'lum bosqichini bitirganidan so'ng ma'lum kompetensiyalarga ega bo'lishi belgilab berildi.

Tayanch kompetensiyalar

1. Kommunikativ kompetensiya;
2. Axborot bilan ishlash kompetensiyasi;
3. SHaxs sifatida o'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi;
4. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi;
5. Umummadaniy kompetensiya;
6. Matematik savodxonlik, fan texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish kompetensiyasi.

TAYANCH KOMPETENSIYALAR qatorida kommunikativ kompetensiyaga erishishda ona tili fanining muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlash zarur, chunki kommunikativ kompetentlikda quyidagilar ko'zda tutiladi:

- Jamiyatda o'zaro muloqotga kirishish uchun ona tili va birorta xorijiy tilni mukammal o'zlashtirish hamda muloqotda samarali foydalana olish;
- o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda aniq va tushunarli bayon qila olish, **mavzudan kelib chiqib savollarni mantiqan to'g'ri qo'ya olish va javob berish;**
- ijtimoiy moslashuvchanlik, o'zaro muloqotda muomala madaniyatiga amal qilish, jamoaviy hamkorlikda ishlay olish;
- muloqotda suhbatdosh fikrini hurmat qilgan holda o'z pozitsiyasini himoya qila bilish, uni ishontira bilish;
- turli ziddiyatli vaziyatlarda o'z ehtiroslarini boshqarish, muammo va kelishmovchiliklarni hal etishda zarur (konstruktiv) bo'lgan qarorlarni qabul qila olish.

O'quvchilarda kommunikativ kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirishda autentik materiallarga alohida e'tibor qaratish lozim.

Jamiyat a'zolari o'rtasidagi aloqa vositalari orasida elektron vositalarning keng o'rin tutayotganligi, ish, o'qish jarayonida vebinar, videokonferentsiya, videomuloqot kabilardan foydalanish doirasining kengayishi tufayli ta'lim oluvchilarni ana shu elektron muloqotlarga tayyorlash masalasi ham muhim o'rin tutmoqda. Albatta, elektron muloqotning og'zaki va yozma ko'rinishlari farqlanadi. Elektron pochtdan ... foydalanish, forumlarda, chatlarda qatnashish

yozma muloqot hisoblansa, skype, video qo'ng'iroq aloqasi, videokonferentsiya, vebinarlarda ishtirok etish kabilar og'zaki shakli deb qaralishi mumkin. N.Umarovanning texnika universiteti talabalari yozma nutqini o'stirishda elektron o'quv qo'llanmalarini yaratishga qo'yiladigan talablar, elektron pochta xizmatidan foydalanishning afzalliklari haqidagi tadqiqoti bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. (Umarova N. Til ta'limi va ta'limiy-elektron ishlanmalar. // Til va adabiyot ta'limi. – 2005 yil 6-son. – 75-79-betlar.) shunday bo'lsa, axborot sohasidagi yangiliklar bu mavzuni alohida tadqiq qilishni taqozo qilmoqda.

Tilni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish va til sathlari integratsiyasini ta'minlashda AKT imkoniyatlari.

Ma'lumki, til hodisalari yuzasidan amaliy ko'nikma va malakalar hosil qildirish maqsadida o'quvchilarga istagan emas, balki ularning yosh xususiyatlari, qiziqishlari, tegishli tayyorgarlik darajalari hisobga olingan holda ikki xil yo'ldan foydalaniladi:

1. Badiiy asarlardan (Alisher Navoiy, Bobur, Ogahiy, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, T.Adashboev, A.Obidjon ...) parchalar tanlanadi.

2. Shu sinfga tegishli bo'lgan boshqa o'quv predmetlariga oid darsliklar (matematika, botanika, geografiya, kimyo ...) dan foydalaniladi.


Buning real natijasi:

- o'quvchilar turli nutq uslublari bilan amalda tanishadilar;
- yordamchi so'zlarning qo'llanish imkoniyatini amaliy jihatdan ko'rishadi;
- predmetlararo aloqa ta'minlanadi, ya'ni integrativ darslar tashkil qilinadi.

Ona tili o'qituvchilari tajribasida aksariyat darslarda integratsiyaga amal qilinayotganligini kuzatish mumkin. Bu borada AKTdan foydalanish ko'zlangan maqsadga erishishda katta yordam berishi mumkin. Masalan, darsning mustahkamlash qismida "O'yla, izla, top" grammatik o'yini tashkil qilinib, uning "**Bilimlar bulog'i**" shartiga ko'ra o'rganilayotgan grammatik hodisa haqida tushuncha hosil qilish fanlararo integratsiya orqali osonlashadi. (**Karimboeva Shohidaning «Yordamchi so'z turkumlarini o'rgatish usullari» mavzusidagi BMI, Nukus – 2016**)

Power Point prezentatsion (taqdimot) grafikli dasturida slaydlar tayyorlash va o'quvchilarga topshiriqlar taqdim qilish mumkin:

1-slaydda fanlarning nomi qayd qilinadi va gipermurojaatlar orqali 3 xil topshiriq ochiladi:



Ona tili

Matematika bilimi:

— Usmon Nosir ham mashhur siymolar kabi juda yoshligidan ko‘p ijobiy xislatlarga ega bo‘lgan edi. U nihoyatda ziyrak, idrokli, keng mushohadali, o‘ta qiziquvchan, uquvli, bilimga chanqoq mehnatkash edi va shu fazilatlar bilan ajralib turardi.

Savol: Ushbu matnda nechta yordamchi so‘z qo‘llangan?

O‘quvchilar quydagicha javob berishlari kerak. Ushbu matnda 4 ta yordamchi so‘z qo‘llangan: ham – yuklama, kabi – ko‘makchi, va – bog‘lovchi, bilan – ko‘makchi.

Adabiyot fani:

Erib ketmagandim sevgingdan,
Bo‘lmaslik-chun baxtingdan judo.
Birga qolish uchun sen bilan,
Kuyaman-u bo‘lmayman ado. (Zulfiya)

Savol: Ushbu she’rda ifodalangan yordamchi so‘zlarni toping?

Javob: -chun, uchun, bilan ko‘makchilari, -u yuklamasi.

Ona tili:

Buyuk bobomiz faqat turkiy emas, forsiy, arabiy, urdu, xitoy, mo‘g‘ul va boshqa tillardagi so‘zlardan ham mahorat bilan foydalangan. (O‘.Hoshimov)

Savol: Gapdan yordamchi so‘zlarni topib, izohlang?

Ushbu savolga quyidagicha javob berish mumkin:

Faqat – ayiruv-chegaralash yuklamasi;

Va – bog‘lovchi;

Ham – yuklama;

Bilan – ko‘makchi.

“Ona tili. 5-sinf uchun elektron o‘quv-metodik majmua”siga jamlangan mashq va topshiriqlarning aksariyati 5-sinfda o‘rganiladigan fanlar bilan uzviy bog‘langan. Foydalanuvchilar “Botanika”, “Tarixdan hikoyalar”, “Geografiya”, “Musiqqa”, “Jismoniy tarbiya”, “Rus tili”, “Ingliz tili”, “Tasviriy san’at”, “Adabiyot” fanlari bilan integratsiyalashgan 10 dan ortiq turdagi mashq va topshiriqlar yesse, krossvord, test savollari orqali bilimlarini oshiradilar, asosiy materiallarni mustahkamlaydilar. Majmuada elektron pochta orqali bog‘lanish, mualliflarga yoki o‘qituvchiga murojaat qilish, bajarilgan ishlarni bosmaga chiqarish imkoniyati mavjud.

Elektron majmuada esse topshiriqlarini bajarish jarayonida botanika fani materiallarini video va rasmlar orqali namoyish qilish imkoniyatidan foydalanilgan.

Tilni boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitish bilan qator til sathlari integratsiyasini ta'minlashga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi. O'quvchilar odatda har bir turkumga xos morfologik belgilarni adashtiradilar, birini ikkinchisi bilan chalkashtiradilar yoki morfologik birliklar nomi o'rnida sintaktik birliklar nomini almashtirib qo'llaydilar. Ta'lim jarayonida morfologiya bilan sintaksis o'rtasidagi chambarchas aloqani o'quvchilarga nazariy jihatdan tushuntirishning o'zi kamlik qiladi. Buning amaldagi ifodasi ustida muntazam ravishda metodik ishlar tizimli olib borilishi, ta'limning yangi usullariga, AKTga murojaat qilinishi kerak. Albatta, dars uchun tanlanadigan usul va vositalar o'quvchini qiziqtiradigan, uni amaliy faoliyatga, amaliy ishga chorlaydigan bo'lishi, mustaqil fikrlashga, ijodiy izlanishga, ichki imkoniyatni ro'yobga chiqarishga yordam berishi zarur. Bu holat umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun chop qilinayotgan ona tili darsliklarida e'tiborga olingan. 5-sinf uchun "Ona tili" darsligi N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyevlar muallifligida yaratildi. 6-sinf uchun "Ona tili" darsligi N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirovlar, 7-, 8-sinf darsliklari M.Qodirov, H.Ne'matov, N.Mahmudov, A.G'ulomov, R.Sayfullayeva, M.Abduraimovalar tomonidan yaratilgan. Ushbu darsliklar zamonaviy texnologiyalar asosida, noan'anaviy usullar va vositalar qo'llashni talab qiladigan o'quv topshiriqlari va mashqlar jamlanganligi bilan qimmatlidir. Shunday bo'lsa ham aytib o'tish o'rinliki, o'qituvchi darslikdan ijodiy foydalanishi, ba'zi misollarni boshqa manbalardan keltirishi, mashqlarni sinf sharoitini hisobga olib almashtirishi, qo'shimcha manbalardan foydalanishi, mashqlarning bajarilishida shartlarga o'zgarishlar kiritishi, ularni didaktik o'yinlar tarzida o'tkazishga intilishi o'quvchi oldida obro'-e'tiborini baland ko'tarishini unutmash kerak.

Demak, yana o'qituvchi mahorati va uning zamonaviy texnologiyalardan xabardorligi, uni qo'llay olishi, yangilikka intilishi, yangilik yaratishi eng muhim masala sifatida kun tartibida qolaveradi.

12-MODUL: KIRISH. ADABIYOT NAZARIYASIGA OID MAVZULARNI O'TISHDA SLAYDLARDAN FOYDALANISH

REJA:

1. Kirish
2. Slayd-taqdimot haqida nazariy ma'lumot
3. Slayd yaratish tartibi
4. Adabiyotning nazariy qoidalarini o'qitishda taqdimotlardan foydalanish

Tayanch so'z va iboralar: Kompyuter – computer, Slayd – slide, Multimedia – multimedia, Axborot texnologiyalari – informatsion texnologies, Elektron ta'lim – elektron edukatsion

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari

Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari – majmuaviy interfaol tizimlar bo‘lib, o‘z ichiga ta‘lim maqsadlari bilan belgilangan kasbiy malaka va ko‘nikmalarning shaxs xislatlarining o‘rganuvchilari tomonidan egallanishi hamda bilimlarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan operatsiya va harakatlarning tartiblashtirilgan to‘plamini qamrab oladi. Bu o‘rinda ta‘lim maqsadlarining belgilanishi, mazmuni tanlash va ishlab chiqishga, ta‘lim jarayonlarini tashkil qilishga, ta‘lim usul va vositalarining belgilanishiga, shuningdek ta‘lim beruvchilarning malaka darajasiga, erishilgan natijalarni baholash usuliga asoslanishi lozim. Keltirilgan mezonlarning majmuaviy qo‘llanilishi o‘quv jarayoni mohiyatini va uning texnologiyasini belgilab beradi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonuni va “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi” har bir ta‘lim beruvchining oldiga dunyoga yangi ko‘z bilan qaraydigan, uddabron, ishning ko‘zini biluvchi, buyuk kelajagimiz poydevorini quruvchi va yuksaltiruvchi mutaxassis kadrlarni tayyorlash vazifasini qo‘ydi. Bunday ulkan vazifalarni amalga oshirishda o‘qitish amaliyotiga zamonaviy va jahonning ilg‘or ta‘lim texnologiyalarini qo‘llashni davr taqozo etmoqda.

“O‘zbekiston Respublikasining Axborotlashtirish dasturi”da respublikamizda axborot texnologiyalarini rivojlantirishning 6 ta ustivor yo‘nalishi ko‘rsatib berildi.

1. Davlat statistika tizimi, moliya-kredit va bank tizimlari;
2. Elektron ma‘lumotlar bazasi;
3. Fan-texnika axborot tarmog‘i;
4. Ta‘lim, kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash, ijtimoiy muhofaza va sog‘liqni saqlash sohalari axborot tizimlari;
5. Ma‘lumotlarni uzatish va aloqa tizimlari;
6. Favqulodda holatlarning oldini olish va xabar berish aloqa tizimlari.

Ma‘lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta‘limni rivojlantiruvchi yangi tamoyillarga asoslangan bo‘lib, u ta‘lim oluvchi shaxsini shallantirishga yo‘naltirilmog‘i kerak. Zamonaviy pedagogik texnologiya markazida ta‘lim jarayonining rahbari hamda shu jarayonning sub‘ekti va ob‘ekti bo‘lgan ta‘lim beruvchi va ta‘lim oluvchi turadi. Shunday ekan bu iki shayas o‘rtasida o‘zaro muloqot, hamkorlik, bir-biriga ko‘rsatadigan ta‘sir jarayonlari yuksak darajada, zamonaviy va milliy talablar asosida bo‘lishi zarur. Buning uchun ta‘lim jarayoni, ta‘lim beruvchi va ta‘lim-tarbiya jarayoni oldiga qo‘yilgan talablar, ta‘limni tashkil etish va boshqarish tamoyillari va yo‘llari ta‘lim oluvchini aqliy va jismoniy jihatdan rivojlantirish usullari, u bilan hamkorlik qilish, uni o‘qitish va o‘rganishga yo‘naltirish, ta‘lim oluvchi shaxsiy faoliyatini to‘g‘ri tashkil qilish, ular bilan muloqotga kirishish, muammo va kelishmovchiliklarni bartaraf etish, auditoriyada ijodiy ishchanlik muhitini vujudga keltirish, ta‘lim oluvchi faoliyatini aniq va to‘g‘ri baholash usullari bilan qurollangan bo‘lishi lozim.

Bugungi kunda adabiyot o‘qitishda innovatsion texnologiyalar va axborot texnologiyalarining qo‘llanilishi ta‘lim oluvchilarni o‘quv jarayoniga faol jalb etish imkonini bermoqda. Shuning uchun ham adabiyot o‘qitish texnologiyalari bazasida kompleks o‘qitish vositalari kontsepsiyasini ishlab chiqish hamda kontsepsiya

doirasida yangi axborot texnologiyalarini qo'llash bilan bog'liq muammolarni hal etish eng muhim vazifalardan biridir.

O'qitish texnologiyasini loyihalashni pedagogik vazifaning qo'yilishi va uni hal etish asosida qaraymiz. 1) pedagogik vazifaning qo'yilishi. 2) didaktik jarayonni ishlab chiqish.

Pedagogik vazifaning belgilanishi quyidagilarni qamrab oladi: ta'lim maqsadlarini tahlil qilish va shu asosda fanning mazmunini aniqlash; fan mazmuni tuzilmasini ishlab chiqish va uni o'quv elementlari tizimi ko'rinishida ifodalash; o'quv elementlarini o'zlashtirish darajalarini belgilash; ta'lim oluvchilarning dastlabki bilim darajasini aniqlash, bu ko'rsatkich fanning mazmuni asoslanadigan o'quv materialini o'zlashtirganlik darajasidan kelib chiqadi; o'quv-moddiy baza hamda ta'limning tashkiliy shakllariga qo'yiladigan chegaralarni belgilash.

Pedagogik vazifaning hal etilishini ta'minlovchi o'qitish texnologiyasini loyihalashga qaratilganda ta'lim beruvchi faoliyati ta'limning usul, shakl va vositalarini shakllantirish bilan belgilanadi. Boshqacha qilib aytganda, ta'lim beruvchi faoliyati 3 turga tasniflanadi.

1. Boshqarish turi
2. Axborot almashinuv jarayoni turi
3. Axborotni uzatish vositalari tiplari va bilish faoliyatini boshqarish.

Hozirda ta'lim muassasalari zamonaviy kompyuter, axborot kommunikatsiya texnologiyalari asosida jihozlanmoqda. Bu pedagoglarni o'z mehnat faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi pedagogni o'quv jarayonida ta'lim vositalari asosida faoliyat doirasining cheklanishiga emas, balki uning vazifalari va rolining o'zgarishiga, pedagogik faoliyatning mukammallashuviga olib keladi.

Endi pedagog:

- o'quv kurslari dizayneri-yaratuvchisi;
- o'qitish metodlari bo'yicha maslahatchi;
- kompyuter-o'quv kurslarini interaktiv taqdim etish bo'yicha mutaxassis;
- ta'lim natijalarini nazorat qilish usullari bo'yicha mutaxassis bo'lishi talab etiladi.

O'quv kursini yaratishda quyidagilar hisobga olinishi lozim:

- kurslarning maqsadi;
- maqsadga erishish yo'llari;
- o'quv materiallarini taqdim etish usullari;
- o'qitish metodlari;
- o'quv topshiriqlarining turlari;
- muhokama uchun savollar;
- munozara va bahslarni tashkil etish yo'llari;
- o'zaro muloqot

Pedagoglar kompyuter texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lish bilan birga quyidagilarni amaliyotda qo'llay olishi lozim:

- yangi o'quv materiallarini tushuntirishda kompyuterning namoyish imkoniyatlaridan foydalanish;
- internet, o'rgatuvchi va nazorat qiluvchi dasturiy mahsulotlar asosida darslarni

tashkil etishi;

- darsga metodik tayyorlanish, qo‘shimcha axborotlarni izlash va tizimlashtirish, didaktik materiallarni tayyorlash;

- kompyuter texnologiyalari asosida o‘quv jarayonini tashkil etish va boshqarishda foydalanish malakalari.

Elektron taqdimot-darsda slaydlardan ko‘rgazmali material sifatida foydalanish o‘qituvchi uchun keng imkoniyat yaratadi. O‘quv materialining elektron taqdimotida animatsiyalar asosida o‘tilayotgan materialning berilishi mavzuni o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilishini yengillashtiradi va ko‘rgazmalilikni oshiradi. Namoyish slaydlarini o‘quvchilarga tarqatma material sifatida ham berish mumkin. Slaydlarga o‘quvchilar o‘zlarini munosabatini bildirishi, uni tahlil qilishi mumkin.

Bu orqali o‘quvchilar quyidagi malakalarga ega bo‘ladilar:

- ❖ grafik axborotlarni matn shakliga keltirish yoki aksincha;
- ❖ muhokama etilayotgan mavzu bo‘yicha xulosalar va savollarni shakllantirish;
- ❖ o‘zining o‘quv biluv faoliyatini rejalashtirish;

Axborot kommunikatsiya texnologiyalarining imkoniyatlaridan shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limni rivojlantirishda, o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda samarali foydalanish mumkin.

Ma‘lumki axborot texnologiyalari axborotlarni yig‘ish, saqlash, uzatish, qayta ishlash usuli va vositalari majmuidir.

Ona tili va adabiyot darslarida elektron qo‘llanmalar, videolavhalar animatsiyalar, matnlar, ovozi obrazlardan (yozilgan ovoz, musiqa va boshqalar) foydalanish mumkin.

Ona tili va adabiyot o‘qituvchilari axborot texnologiyalari vositalari bilan ishlash uchun quyidagi ko‘nikmalarga ega bo‘lishi lozim:

- ishchi dastur va texnologik xaritalar tuzish;
- ma‘ruza matnlari va amaliy mashg‘ulotlar bilan bog‘liq topshiriqlar- ii tayyorlash,
- metodik ko‘rsatmalar va nazorat savollarini tuzish,
- o‘zlashtirish natijalarini tahlil qilish,
- ma‘ruza matnlarini tahrirlash,
- har bir mavzu bo‘yicha dinamik ko‘rinishda aks etuvchi jarayonlarning animatsiyalarini tasavvur qilish.

Microsoft Pover Point 97 – universal imkoniyatlari keng bo‘lgan ko‘rgazmali grafika amaliy dasturlar sirasiga kiradi va matn, rasm, chizma, grafiklar, animatsiyalar, ovoz, videorolik va boshqalardan tashkil topgan slaydlarni yaratish imkonini beradi.

Slayd – ma‘lum bir o‘lchamga ega bo‘lgan muloqot varaqlari hisoblanadi. Unda biror maqsad bilan yaratilayotgan namoyish elementlari joylanadi.

Slaydlar ketma-ketlikdan iborat tayyor ko‘rgazmani kompyuter ekrani videomanitorida, katta ekranda namoyish qilish mumkin. Ko‘rgazmani tashkil qilish - slaydlar ketma-ketligini loyihalash va jixozlash demakdir.

Prezentatsiya (Taqdimot) – yaratilayotgan slaydlar turkumi va uni namoyish

etish uchun beriladigan fayl nomi. Masalan: Prezentatsiya 1 – Pover Point dasturi ochilganda sarlavhalar qatorida paydo bo‘lib, yaratilgan yoki yaratilayotgan taqdimotning ayni vaqtdagi nomi hisoblanadi. Bu nomni keyinchalik o‘z hohishingizga ko‘ra almashtirishingiz mumkin.

Bu dasturni ishga tushirish uchun ishni WINDOVS ish stolidan boshlash kerak. Ish stoli quyidagi buyruqlarni bajarish orqali dastur ishga tushiriladi.

“Pusk” – “Programma” – “Microsoft Pover Point”

Eslatma: yuqoridagi buyruqlarni bajarish sichqonchani chap tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi.¹⁹

Pover Point ishga tushirilganda ekranda ko‘rsatilgan taqdimot yaratish muloqot darchasini ko‘rish mumkin.

Bu muloqot barchasi orqali taqdimot yaratish turini tanlab olish kerak.

“Pustoy prezentatsiyu” (bo‘sh taqdimot) – mustaqil ravishda taqdimot tuzish imkonini beradi.

“Otkret prezentatsiyu” (Taqdimotlarni ochish) – kompyuter xotirasida va diskda mavjud bo‘lgan ko‘rgazmali fayllarni ochadi.

Har bir foydalanuvchi dasturda ish olib borishi uchun yuqoridagi bo‘limlardan birini o‘zmaqsadiga ko‘ra tanlab oladi. Dastur ishini bo‘sh taqdimotdan ham boshlash mumkin. Buning uchun sichqoncha ko‘rsatkichi “Pustoy prezentatsiyu” – (Bo‘sh taqdimot) bo‘limiga olib kelinadi. Va “OK” tugmachasi bosiladi. Bu yerda ko‘rsatilgan har bir slaydni tanlab olish imkoniyati bor. Buning uchun yo‘nalish tugmasi yoki sichqonchadan foydalanish mumkin.

Taqdimotlarni tahrirlash. Taqdimotlarni saqlangandan so‘ng uning tarkibidagi barcha slaydlarni alohida-alohida o‘zgartirish mumkin. Buning uchun yaratilgan slaydlarga sichqoncha ko‘rsatkichi olib kelinadi va tugmasi bosiladi. Tasdiqlangandan so‘ng kerakli o‘zgartirishlarni kiritish mumkin. Bu rejimda yangi slayd yaratish, uning belgisini o‘zgartirish, slayd matnini terish tahrir qilish, slaydlarni guruhlash, rang sxemasini o‘zgartirish hamda maxsus fon yaratish mumkin.

Yangi slayd yaratish uchun darchaning standart uskunalari panelidagi (slayd yaratish) tugmasi bosiladi.

Slayd belgisi, turi, ko‘rinishini o‘zgartirish uchun darchaning standart uskunalari panelidagi (slaydni belgilash) tugmasi bosiladi.

Slaydni bezash ishlarini o‘zgartirish uchun shu paneldagi (jixozlash qullanilsin) tugmasi bosiladi.

Slaydga matn kiritish va uni taxrir qilish 2 usulda amalga oshiriladi:

- 1) Matn uchun ajratilgan maydonga sichqoncha ko‘rsatkichi olibkelibbosiladi va kursor paydo bo‘lgandan so‘ng matn klaviatura orqali kiritiladi.;
- 2) Sichqoncha ko‘rsatkichi “A” tugma (rektogaramma)siga olib kelinib bosiladi. Va kerakli sohada matn kiritiladi.

Slaydlarni kuchaytirish uchun matn bloki tanlanadi. Yoki ob`ekt va tanlash

¹⁹ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 45 p.

marketi segaralari tanlandi.

O'zgartirish kiritish uchun sichqonchaning ung tugmasi bosiladi. Ekranda yordamchi menyuu (kontekst) menyuu hosil bo'ladi. Menyudan kerakli rejim tanlab olinadi.

Slaydlarni belgilash. Slaydlarni belgilashdan foydalanib, rasm, diogramma, jadval yoki ixtiyoriy ob`ektni qo'yishni mo'ljallab slayd tanlash mumkin. Buning uchun "Fayl" menyusidan "Sozdat" yaratish buyrug`i tanlanadi. Tavsiya qilinayotgan slaydlardan kerakli ko'rinishdagi slayd tanlanadi. Va "OK" tugmasi bosiladi.

"Struktura rejimiga o'tish" rektogrammasi ishga tushirilganda, tartiblangan har bir slaydning rasm va matn kshrinishlari yoziladi. SHundan so'ng struktura rejimida muloqot darchasi hosil bo'ladi. Bu rejimda matnli ma'lumotlarni kiritish, taqdimot turkumini boshqarish mumkin. SHundan so'ng bu muloqot darchasida gorizantal menyusidagi "Pokaz slaydov" "slaydlarni ko'rsatish" bo'limidan "Pokaz" (ko'rsatish) buyrug`i tanlanadi. Va ekranda yuqoridagi ko'rinish paydo bo'ladi.

Bu menyulardagi keng qo'llaniladigan buyruq vazifalarini klaviatura orqali qo'sh tugmalar yordamida tezkor bajara olamiz. Quyidagi ro'yxatda **MICROSOFT POWERPOINT** dasturining asosiy tezkor tugmalar ko'rsatilgan:

- CTRL+N** - Yangi taqdimot faylini yaratish.
- CTRL+M** - Taqdimotga yangi bo'sh slayd qo'shish.
- CTRL+D** - Taqdimotga aktiv slayd nusxasini qo'shish.
- CTRL+ENTER** - Slaydning keyingi elementini tahrirlash
- CTRL+O** - Ilgari yaratilgan taqdimot faylni qayta ochish
- CTRL+W** - Ekranda ochiq bo'lgan taqdimot faylni berkitish
- CTRL+P** - Taqdimotni qog'ozga bosmaga chiqarish
- CTRL+S** - Taqdimot faylni saqlash.
- F5** - Taqdimot namoyishini ishga tushirish
- ALT+F4** - Microsoft PowerPoint dasturidan chiqib ketish
- CTRL+F** - Matn qismini qidirish
- CTRL+H** - Topilgan matnni boshqa matn bilan almashtirish
- CTRL+K** - Giperyo'llanma qo'shish
- F7** - Imlo xatolarni tekshirish
- ESC** - Oxirgi o'zgarish yoki tugallanmagan xarakatni bekor qilish
- CTRL+Z** - Oxirgi xarakatni bekor qilish
- CTRL+Y** - Bekor qilingan xarakatni qaytarish
- CTRL+SHIFT+F** - Slaydning tanlangan ob`ekt harflar shaklini o'zgartirish
- CTRL+SHIFT+P** - Slaydning tanlangan ob`ekt harflar kattaligini o'zgartirish
- CTRL+SHIFT+>** - Slaydning tanlangan ob`ekt harflar kattaligini bitta kadamga kattalishtirish

- CTRL+SHIFT+<** - Slaydning tanlagan ob`ekt harflar kattaligini bitta qadamga kamaytirish
- CTRL+T** - Slaydning tanlagan ob`ekt harflar tashqi ko`rinishini (Format menyusidagi SHrift bo`yug`i) o`zgartirish.
 - SHIFT+F3** - Harflar registrini o`zgartirish
 - CTRL+B** - Qalin harflar rejimiga o`tish
 - CTRL+U** - Tagichizikli harflar rejimiga o`tish
 - CTRL+I** - YOtiq harflar rejimiga o`tish
 - CTRL+PROBEL** - Harflar o`zgartirilgan tashqi ko`rinishini bekor qilish
 - CTRL+SHIFT+C** - Harflar tashqi ko`rinishini xotiraga olish
 - CTRL+SHIFT+V** - Harflar tashqi ko`rinishini xotiradan chiqarish
 - CTRL+E** - Abzatsni o`rtadan tekislash
 - CTRL+J** - Abzatsni ikkala tomondan bo`yicha tekislash
 - CTRL+L** - Abzatsni chap tomon bo`yicha tekislash
 - CTRL+R** - Abzatsni o`ng tomon bo`yicha tekislash

She`r tuzilishi asoslari

Ma`ruza rejasi:

1. She`riyat xosliklari. She`r tuzilishi
2. Poetik sintaksis. She`riy sistemalar.
3. She`rning fonetik vositalari. She`rning til sistemasi va xususiyatlari bilan bog`liqligi.

Adabiyotlar:

1. Fitrat A. Adabiyot qoidalari.-T.,O`qituvchi 1995.
2. Cho`lpon. Adabiyot nadir? -T.,O`qituvchi. 1994.
3. Boboyev T. She`r ilmi ta`limi. -T.,O`qituvchi.1996.
4. Hojiahmedov A. She`riy san`atlar va mumtoz qofiya.-T., SHarq, 1998.
5. Ulug`ov A. Adabiyotshunoslikka kirish.-T.,Universitet. 2000.
6. Umurov H. Badiiy ijod asoslari.-T.,O`qituvchi, 2001.
7. Umurov H. Adabiyot nazariyasi. -T., SHarq 2002.

13- MODUL: SHOIR VA YOZUVCHILAR HAYOTI VA IJODINI O`RGANISHDA MAXSUS SAYTLARNING IMKONIYATLARI

REJA:

1. Umumta`lim bosqichida adabiyot darslarida ta`lim tizimini axborotlashtirishga oid saytlar imkoniyatlaridan unumli foydalanish.
2. Adiblar hayoti va ijodiy faoliyatiga oid internet portali.
3. Maxsus saytlarning afzalliklari, yutuqlari, kamchiliklari.

Tayanch so`z va iboralar: sayt, maxsus sayt, xalq ta`limi vazirligining

rasmiy sayti, global tarmoq, elektron pochta, Ziyonet portali, internet, Veb sayt, internet provayder, internet manzil.

O‘qituvchilar uchun qo‘shimcha Internet sayt va resurslar

Hozirgi vaqtda Internetning har xil saytlarida tillar bo‘yicha ko‘p ma‘lumotlar topish mumkin. Quyida ayrim foydali ta‘limiy saytlarning nomlari sanab o‘tilgan. Ushbu saytlardan darslarga tayyorgarlik ko‘rishda foydalanish mumkin.

<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti

<http://ensiklopediya.uz> - O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti

<http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portal

<http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi

<http://www.kamolot.uz> – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti

<http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi

<http://referatlar.uz> – Referatlar, testlar, kitoblar va media ta‘lim sayti

<http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi

<http://translate.google.co.uz> – Google – tarjimon sayti

<http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi

<http://txt.uz> – Elektron kutubxona

<http://kursy.uz> – O‘quv markazlari va kurslari katalogi

• <http://www.uzedu.uz> – Xalq ta‘limi vazirligining rasmiy sayti.

• <http://www.edunet.uz/methodis/>

• http://www.vikiru.vikusia.com/ru/Uzbekskiy_yazik.html

• <http://pedagog.zn.uz/>

• www.ziyonet.uz

• eduportal.uz.

• uzlit.edunet.uz

• postal.uz

• <http://ps.1september.ru/> – gazeta “Pervoe sentyabrya”.

• <http://www.ug.ru/> – “Uchitelskaya gazeta”.

• <http://www.philologos.narod.ru>

• [http // www.gramma.ru](http://www.gramma.ru)

Global tarmoq (INTERNET) – bir-biridan ancha uzoqda joylashgan kompyuterlarni o‘zaro bog‘lab, axborot almashuvini ta‘minlab beruvchi tarmoq. Bu tarmoq INTERNET (xalqaro tarmoq) tarmog‘i deb atalib, u orqali bugungi kunda dunyoning deyarli barcha davlatlaridagi kompyuterlar o‘zaro axborot almashish imkoniyatiga ega.

Elektron pochta – oddiy biz biladigan pochta xizmatining elektron ko‘rinishi. Ya‘ni biz bu pochta orqali dunyoning istalgan burchagiga ma‘lumot (xat) uzatishimiz yoki uni qabul qilishimiz mumkin. Farqi shundaki, bu yerda vaqt tushunchasi deyarli o‘z mohiyatini yo‘qotadi.

Chunki dunyoning turli chekkalarida joylashgan kompyuterlar (ularni boshqarayotgan insonlar) orasidagi axborot almashinuvi bir-necha lahzalarda bo‘lib o‘tadi.

Sayt – Internet tarmog‘ida ma‘lumotni o‘zida saqlab turuvchi sahifa yoki sahifalar. Bu sahifalardagi ma‘lumotlardan dunyo bo‘yicha istagan kishi xohlagan

vaqtida foydalanishi, shuningdek, xohlagan kishi o'z ma'lumotlarini kiritishi, ya'ni o'z saytini yaratishi mumkin.

Ma'lumotlarni kiritganda ba'zi cheklovlar berish imkoniyati ham mavjud. Masalan, sizning ma'lumotingizni faqatgina ayrim kishilargina ko'ra olishi, shu jumladan Siz ham Internetdagi hamma axborotlardan ham foydalana olmasligingiz mumkin. Bunday ma'lumotlardan foydalanishga ruxsat olish uchun ushbu ma'lumotlarning egasiga, Internet tarmog'iga joylashtirgan kishiga murojaat qilishingizga to'g'ri keladi. Bunday harakatlar asosan moddiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar uchun qo'llaniladi. SHuningdek, ba'zi ma'naviy-siyosiy mazmundagi ma'lumotlar ham ma'lum xizmatlar tomonidan cheklab qo'yilishi mumkin. Lekin bunda 100 foiz cheklovga erishishning iloji yo'q. Saytni oddiy kitob bilan solishtirsa bo'ladi. Ba'zi hollarda sayt juda kichik kitob, aniqrog'i 1 sahifali «kitob» ko'rinishida ham bo'ladi. Sayt faqatgina bir sahifali yoki bir necha yuzlab sahifali bo'lishi ham mumkin.

Saytlarning bir sahifasidan ikkinchi sahifasiga o'tish giperssılka deb nomlanuvchi maxsus yozuvlar ustiga sichqonchaning ko'rsatkichini keltirish va maxsus tugmasini bosish orqali amalga oshiriladi.

ZiyoNet portali

ZiyoNet axborot ta'lim tarmog'i yoshlarni, murabbiylarni, shuningdek aholining turli qatlamini kerakli axborot bilan ta'minlash, AT sohasida kerakli ma'lumotlarni berish, muloqot qilish va tajriba almashinishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishni O'z zimmasiga oladi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish - bugungi kunning talabiga aylandi. Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish o'qitish qo'llanilmoqda. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning yana bir afzalligi shundaki, unda o'quvchi o'ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning yana bir afzallik tomoni unda o'qish muddatini o'quvchi o'zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriklarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O'quvchi berilgan programmani qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvoohnoma oladi. Dasturni o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi berilgan materiallari asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Darslik
- Audio va video darsliklar
- Onlayn darslar (Internet sahifa)
- Elektron kutubxonalar
- Testlar
- Multimedia - elektron darsliklar

Respublikamiz Oliy va O'rta Maxsus bilim yurtlarida o'quv muassasalari

uchun yaratilgan saytlar kataloglashtirish, respublika ta`lim muassasalarida tayyorlanayotgan elektron o`quv adabiyotlarini barcha ta`lim muassasalari orasida targ`ib qilish muhim va murakkab vazifa hisoblanadi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan ushbu masalani ijobiy yechimini topish hamda ta`lim muassasalari uchun yaratilgan elektron o`quv resurslari va ta`lim muassasalari saytlarini ta`lim jarayoniga tatbiq etishga jiddiy e`tibor berilmoqda. Buning natijasi sifatida O`zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan tashkil qilingan www.ziyounet.uz axborot- ta`lim portali ishga tuzildi va bu portaldagi barcha Ziyonet jamoat axborot ta`lim tarmog`i 2005 yil 28 sentyabrda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O`zbekiston Respublikasining jamoat ta`lim axborot tarmog`ini tashkil etish to`g`risida"gi 2005 yil 28 sentyabrdagi 191-sonli qaroriga muvofiq tashkil topgan.

Ziyonet tarmog`ining asosiy maqsadi ta`lim tizimida respublika yoshlari hamda ta`lim oluvchilarni bilim olish jarayonida axborot-kommunikatsiya xizmatlarini ko`rsatishdan iborat.

Foydalanuvchilar ID.UZ tizimidan ro`yhatdan o`tgan foydalanuvchilarga Ziyonet portali O`z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Jumladan:

1. Ziyonet portalining kutubxonasiga axborot - ta`limiy ma`lumotlarni joylashtirish;
2. Uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satelitlarni yaratish;
3. Ziyonet portalining yopiq bo`limlariga kirish va u erdan ma`lumot olish;
4. Ziyonet axborot resurs tarmog`ining turli tanlovlarida qatnashish.

INTERNET TARMOG`I VA UNING ASOSIY XIZMATLARI

Internet (Internet) - bu butun jahon kompyuter tarmoqlari majmuidir, ya`ni yagona standart asosida faoliyat ko`rsatuvchi jahon global kompyuter tarmog`idir.

WWW – World Wide Web – butun dunyo o`rgamchak to`ri hisoblanib, Internet resurslarini tashkil etish va undan foydalanishni ta`minlab beradi.

Veb sayt – biror bir sohaga, faoliyatga, voqea va xodisaga bag`ishlangan ma`lumotlarni o`zida jamlagan Internet sahifalar majmui

Internet va asosiy tushunchalar

- **Internet provayder** – Internet tarmog`i xizmatlaridan foydalanishni ta`minlab beruvchi yuridik shaxs.
- **Elektron pochta** – Internet tarmog`i orqali tezkor ma`lumotlar va xabarlar almashish tizimi
- **Internet manzil (URL)** – Internet tarmog`ida joylashtirilgan axborot resurslarining murojaat manzillari.
- **Proxy** – lokal tarmoqqa ulangan kompyuterlarni bitta aloqa kanali orqali Internet xizmatidan foydalanishni tashkil etish xizmati

- **Veb server** – veb sahifalarni joylashtirish, boshqarish va ulardan foydalanishni tashkil etish hamda foydalanuvchilar so‘rovlariga ishlov berish xizmati

Veb brouzerlar va veb sahifalar

- **Veb brouzerlar** – bu Internet resurslari va ma`lumotlaridan foydalanishni ta`minlovchi dasturlar bo‘lib, ularning quyidagi turlari mavjud:
 - Internet Explorer, Firefox Mozilla, Netscape Navigator, Opera, Google Chrome, Safari
- **Veb sahifalar** asosan o‘zida ma`lumotlarni jamlovchi konteyner hisoblanib, ularning ikki turi mavjud:
 - Statik – o‘zgarmas veb sahifalar
 - Dinamik – murojatga nisbatan shakllantiriladigan veb sahifalar

Veb sahifalar va texnologiyalar

- **Statik veb saytlar**
 - HTML, CSS, Java va VB skript
- **Dinamik veb saytlar**
 - HTML, CSS, PHP, MySQL, Java script, AJAX
 - HTML, CSS, ASP, SQL Server, Java script
- **Veb saytlar yaratish texnologiyalari**
 - MS FrontPage, Dreamviewer, HomeSite, Adobe Flash

WAP texnologiyasi

- **WAP** (wireless application protocol) – mobil telefonlar va qurilmalar orqali Internet ma`lumotlarini uzatish protokoli.
- **WML** (Wireless Markup Language) – simsiz qurilmalar uchun ma`lumotlarni joylashtirish tili.
- **WAP brauzer** – WAP saytlarga mobil qurilmalar orqali murojat qilish dasturi.²⁰

O‘zbekiston milliy Internet resurslari

- **www.uz** – milliy axborot qidiruv tizimi
- **mail.uz** – milliy elektron pochta xizmati

²⁰ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. – Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 60 p.

- **ziyonet.uz** – axborot ta`lim tarmog`i
- **uforum.uz** – muhokama veb portali
- **edu.uz** – O‘zbekiston ta`lim portali
- **aci.uz** - O‘zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi portali
- **mtrk.uz** – milliy teleradiokompaniya veb sayti

Interfaol xizmatlar. Ta`lim sifatini ta`minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

O‘zbekiston Respublikasi **Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali** (keyingi o‘rinlarda Yagona portal deb ataladi) Internet tarmog`ida O‘zbekiston Respublikasining Hukumat portali doirasida, shu jumladan «bir darcha» rejimida faoliyat ko‘rsatadi. Yagona portal orqali interaktiv davlat xizmatlari ko‘rsatish ushbu O‘zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali to‘g‘risida Nizomga muvofiq ro‘yxatga olish va avtorizatsiya qilish jarayonlaridan o‘tgan arizachilar uchun amalga oshiriladi.

<https://my.gov.uz> Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalining umumiy ko‘rinishi

Yagona portal maqsad va vazifalari:

Yagona portal davlat organlari tomonidan ko‘rsatiladigan, shu jumladan pulli asosda ko‘rsatiladigan interaktiv davlat xizmatlaridan erkin foydalanishning yagona nuqtasi hisoblanadi. Yagona portalning asosiy vazifalari foydalanuvchilarga davlat organlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat qilish uchun imkoniyat berish; foydalanuvchilarni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi boshqa loyihalar bilan integratsiyalash hisoblanadi.

Yagona interaktiv davlat xizmatlari portalidan foydalanish bo‘yicha video yo‘riqnomani qo‘yida ko‘rsatilgan xavola orqali tanishib o‘rganib chiqish tavsiya etiladi.

<https://my.gov.uz/uz/page/videoinstruction.html>

O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma`lumotlar portali

(<http://data.gov.uz/>)

Hozirgi kunda davlat organlarida foydalanashuvchilarni qiziqtirishi mumkin bo‘lgan ulkan axborot resurslari massivlari shakllangan. Davlat organlarining ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotlarini ochiq ma`lumotlar sifatida e`lon qilinishi ochiq davlat boshqaruvining asosidir. Ochiq ma`lumotlarning e`lon qilinishi va ulardan foydalana olish imkoniyatining yaratilishi tufayli davlat organlari faoliyatining shaffofligi, jamoat nazoratini amalga oshirish imkoni, shuningdek jismoniy shaxslar va tadbirkorlar uchun yangi xizmatlar yaratilishi ta`minlanadi.

Davlat organlari faoliyati to‘g‘risidagi ma`lumotlar va axborotlarni ochiq ma`lumotlar ko‘rinishida e`lon qilinishi ulardan turli axborot resurslarini shakllantirishda manbaa sifatida va axborot tizimlarini, shuningdek, ham davlat organlari, ham tadbirkorlik sub`ektlari uchun xizmat va ilovalar yaratishda

foydalanish mumkin.

Internet tarmog`ida keyinchalik ochiq ma`lumotlar uchun "yagona nuqta" vazifasini bajaruvchi O`zbekiston Respublikasi ochiq ma`lumotlar portali ishga tushirilgan bo`lib, uning asosiy maqsadi qayta ishlash va tahlil qilish uchun mos formatlarda davlat organlari faoliyati to`g`risida ma`lumotlarni taqdim etishdan iborat. Portal O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 7-avgustda qabul qilingan 232-son qarori asosida faoliyat yuritadi.

O`zbekiston Respublikasi ochiq ma`lumotlar portalining umumiy ko`rinishi
O`zbekiston Respublikasi ochiq ma`lumotlar portalining ayrim bo`limlarining ko`rinishi.

O`zbekiston Respublikasi ochiq ma`lumotlar portalining ta`lim bo`limi. Ushbu bo`limda O`zbekiston Respublikasida ta`lim sohasidagi ma`lumotlar taqdim etilgan. Bu yerda siz bolalar bog`alari, boshlang`ich maktablar, o`rta maktab, maktab-internatlar, ta`lim, oliy maktabda, kollej, oliy o`quv yurtlari markazlari, bu ijtimoiy-pedagogik orientatsiya, ijtimoiy-iqtisodiy tendentsiyalari kabi ma`lumotlar ro`yxatini topishingiz mumkin.

Elektron ta`lim resurslari haqida tushuncha asosida elektron ta`lim jarayonini tashkillashtirishga qo`yiladigan texnik va dasturiy talablar, elektron ta`lim jarayonini amalga oshirish bosqichlari. Ta`limda erkin va ochiq kodli dasturiy ta`minotlar tahlili, LMS asosiy funksiyalari, LMS tahlili, Masofaviy o`qitish va uni tashkil qilish asoslari, masofali ta`lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi dasturiy majmuaalar LMS larning funksiyalari. Web-xosting xizmati, texnologik maydon, Veb-xosting xizmati, domen. OTM ta`lim sifatini oshirishda simulyatorlarning o`rni. Virtual laboratoriya ishlari, elektron ta`lim muhitida laboratoriya ishlarini tashkillashtirish muammolari va ularning yechimi, simulyatorlar, pedagogik dasturiy vositalar, aniq va tabiiy fanlar bo`yicha virtual laboratoriya ishlarini yaratish.

Yangi texnologiyalar kun sayin rivojlanib, axborotlashtirish jarayoni tez sur`atlar bilan o`sib borayotgan hozirgi davrda ta`lim sohasida axborot resurslarini tashkil etish va ta`limda foydalanishga mamlakatimizda ham alohida e`tibor qaratilmoqda. Jumladan, O`zbekiston Respublikasi Prezidentining «O`zbekiston Respublikasida «Elektron ta`lim» milliy tizimini yaratish» investitsiya loyahasini amalga oshirish chora-tadbirlari to`g`risida» 2012 yil 16 apreldagi PQ-1740-son qarori ta`lim sohasida axborotlashtirishning milliy tizimini shakllantirish, zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va undan foydalanish, jahon axborot resurslaridan bahramand bo`lishni kengaytirishga zamin yaratadi. Ta`lim tizimiga elektron ta`limni joriy etish birinchi navbatda jamiyatning intellektual salohiyatiga, jumladan, ta`lim sohasining axborotlashuviga, axborot ta`lim resurslarini ishlab chiqishga bog`liq. Dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida ta`limni axborotlashtirish, shu jumladan elektron ta`limni joriy etishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Elektron ta`limni rivojlantirish, uning samaradorligini oshirish yo`llari izlanmoqda, ta`limda yangi axborot texnologiyalarini joriy etish ta`lim sohasidagi islohotlarning diqqat markazidan o`rin olgan. Ta`limning fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasining asosli

mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish, o'qishni, mustaqil bilim olishni individuallashtirish, masofaviy ta'lim tizimi texnologiyasi va vositalarini ishlab chiqish va o'zlashtirish, yangi pedagogik hamda axborot texnologiyalari asosida elektron ta'limdan foydalangan holda talabalar o'qishini jadallashtirish ana shunday dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. O'quv jarayonini elektron ta'lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o'quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma'lum o'zgartirishlar kiritish zarur bo'ladi. Bunda ta'lim jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish va ulardan foydalanish maqsadga erishishdagi eng samarali yo'l hisoblanadi.

Internet texnologiyalarining kirib kelishi bir necha asrlar davomida o'zgarmay kelgan holatlarni o'zgartirib yubordi. Bu odatdagi xat yozishmalari elektron pochta bilan, kutubxonalar esa web-saytlar bilan almashinishida namoyon bo'ldi.

Endilikda esa ta'lim tizimida ta'lim olishning an'anaviy shakllari o'rniga masofaviy ta'lim elementlari kirib keldi.

Hammamizga ma'lumki, har bir universitet yoki ta'lim muassasi o'z ta'lim jarayonini boshqarish uchun zamonaviy texnologiyalardan kelib chiqqan holda, o'zining virtual axborot ta'lim muhitini yaratishga harakat qiladi. Hozirgi vaqtga kelib, virtual axborot ta'lim muhitini yaratishning hojati qolmagan, chunki Web muhitiga moslashgan har hil turdagi dasturiy majmualar jonkuyar dasturchi va ta'lim sohasida ishlab kelayotgan xodimlarning hamkorlikda ishlashlari shuningdek, ta'limga yo'naltirilgan fondlar tomonidan qo'llab quvvatlanishi natijasida, erkin va ochiq kodli dasturiy ta'minotlar yaratilgan.

Bu o'quv modulimizda masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirish imkoniyatini beruvchi erkin va ochiq kodli dasturlar majmuasining tahlili keltiriladi. O'quv modulida keltirilgan dasturiy majmualar tahlili ko'p yillar davomida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida yozilgan.

O'quv muassasasida masofaviy ta'lim jarayonini tashkillashtirishga qo'yiladigan texnik va dasturiy talablar

MT jarayonini amalga oshirishda qo'yida ko'rsatilgan bosqichlar asosida amalga oshirish mumkin:

1-bosqich: Tahlil

2-bosqich: Loyihalashtirish

3-bosqich: Joriy qilish

4-bosqich: O'quv kontentlarini yaratish

5-bosqich: Ishga tushirish

6-bosqich: Rivojlantirish

1-bosqichda o'quv muassasining masofaviy ta'lim jarayoniga bo'lgan ehtiyojlari, ta'lim jarayonida qatnashayotgan foydalanuvchilarning soni, o'qitish usullari va shakllari, loyihani amalga oshirishda kerak bo'ladigan texnik, dasturiy va inson resurslari, loyihani iqtisodiy asoslari tahlil qilinadi.

2-bosqichda tahlillar natijasida amalga oshiriladigan ishlar ko'lami va texnik topshiriq loyihalashtiriladi.

3-bosqichda esa tanlangan masofaviy ta'lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuaa tegishli serverda o'rnatiladi, tizimga tegishli domen tanlanadi. Masofaviy ta'lim jarayonini boshqaruvchi dasturiy majmuasidan foydalanish va unga texnik

qoʻllab quvvatlashchi ishchi xodimlarni oʻrgatish boʻyicha oʻquv mashgʻulotlar tashkillashtiriladi.

4-bosqichda masofaviy taʼlim jarayonining asosiy elementlaridan biri boʻlmish oʻquv kontentlar oʻquv boʻlimi va soha mutaxasislari bilan hamkorlikda yaratiladi. Yaratilgan oʻquv kontentlar ekspertlar tomonidan tekshiriladi.

5-bosqichda masofaviy taʼlim jarayoni ishga tushiriladi. Taʼlim jarayonida oʻquv jarayoni doiyimi nazoratda boʻlib turadi. Tizimdagi havfsizlik choralari monitoring qilib boriladi.

6-bosqichda yuqorida keltirilgan bosqichlarda mavjud boʻlgan kamchiliklar toʻgʻrilanadi, yangi oʻquv kurslar yaratiladi, texnik imkoniyatlar kengaytiriladi, tizimning rivojlanishiga tegishli boʻlgan ishlar koʻlami bajariladi.

Taʼlimda erkin va ochiq kodli dasturiy taʼminotlar tahlili

Axborot kommunikatsiya texnologiyalari taʼlim jarayonida (xususan, masofaviy taʼlim jarayonini) qoʻllash asosan ikki xil koʻrinishda amalga oshiriladi[2]. Birinchi sharti bu texnik jihozlar boʻlsa, ikkinchisi sharti esa maxsus dasturiy taʼminotlar bilan taʼminlanganligidir.

Texnik jihozlar bilan taʼminlanganlik: kompyuterlar, tarmoq qoʻrilmalari, yuqori tezlikdagi internet tarmoqlari, video konferentsiya jihozlari va hakazo.

Dasturiy taʼminotga: Mavjud qurilmalarni ishlatadigan dasturiy taʼminotlardan tortib shu soha uchun moʻljallangan dasturlar toʻplami kiradi.

Soʻnggi yillarda Gʻarbda taʼlim tizimini boshqarishda qoʻllanilib kelinayotgan Internet yoki Interanet tarmogʻi orqali elektron shakldagi taʼlim turini Elearning (elektron taʼlim) atamasi bilan kirib keldi.

Elektron taʼlimi – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosidagi taʼlimning turli koʻrinishlarini anglatuvchi keng tushunchadir.

Elektron taʼlimni tashkillashtirishning koʻpgina manbalari orasidan quyidagilarni koʻrsatish mumkin:

Mualliflik dasturiy mahsulotlari (Authoring tools);

Virtual taʼlim jarayonini boshqaruvchi tizimlar LMS (Learning Management Systems);

Ichki kontentni boshqaruv tizimlari CMS (Content Management Systems).

Tizimning rasmiy internet manzili: <http://lamsfoundation.org/>

14- MODUL: ADABIY TAʼLIMDA VIRTUAL MUZEY, KUTUBXONA VA ENSIKLOPEDIYA MATERIALLARIDAN FOYDALANISH USULLARI

REJA:

1. Adabiyot darslarida virtual muzeylarga sayohat.
2. Oʻrta maxsus bosqichning adabiy taʼlimida elektron kutubxona fondlaridan foydalanishni oʻrgatish.
3. Oʻquvchilarning adabiyot fanidan mustaqil ishlarni tashkil etishda ensiklopediyalarning oʻrni.

Tayanch soʻz va iboralar: ekskursiya, musavvir, muzey, tabiat, kadamjolar,

tarixiy, obida, uyushtirmok, elektron kutubxona va ensiklopediya, Ziyonet portali, interner tarmog`i, internet xizmatlari, provaydr, elektron pochta, chat, videomuloqot, domen nomlari, forum, portal, veb-sayt, ziyonet, googleapps, qidiruv tizimlari, internet kataloglar, ixtisoslashgan qidiruv tizimlari, axborot maydon. ta`lim portali, interter, sayt, gipermurojaat, internet resurslari, virtual muloqot, reklama sayt, informatsion sayt, ta`limiy sayt, ziyonet axborot ta`lim portali, pedagoglar hamkorligi, masofaviy ta`lim platformasi, yagona interaktiv xizmat oynasi, ochiq ma`lumotlar portali.

Kutubxona – library. Muzey – museum. Virtual muzey – virtual museum.
Virtual kutubxona – virtual library. Kitob – book. Daftar – note-book

<http://natlib.uz> – Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi sayti

<http://ensiklopediya.uz> - O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi sayti

<http://ziyouz.uz> – O‘zbek va jahon adabiyoti portal

<http://kitob.uz/> - Respublika bolalar kutubxonasi

<http://www.kamolot.uz> – “Kamolot” yoshlar ijtimoiy sayti

<http://www.infolib.uz> – Respublika Axborot kutubxona markazi

<http://referatlar.uz> – Referatlar, testlar, kitoblar va media ta`lim sayti

<http://book.uz> – Elektron adabiyotlar kutubxonasi

<http://translate.google.co.uz> – Google – tarjimon sayti

<http://arxiv.uz> – Referatlar arxivi

<http://txt.uz> – Elektron kutubxona

<http://kursy.uz> – O‘quv markazlari va kurslari katalogi

Adabiyot darsining noan`anaviy shakllaridan yana biri adabiy ekskursiya darsidir. O‘kuvchilarning mustakil ijodiy tafakkur kobilyatini rivojlantirish maksadida ushbu usul ko‘llanadi. Maktabda XIV-XIX asrlardagi hayot ifodalangan asarlarni o‘qiganlarida, u davrdagi moddiy, ma`naviy hayot hakida to‘lik tasavvurga ega bo‘lmaydilar. Ularda shunday tasavvur hosil kilishga darsni ekskursiya usulida olib borish yordam beradi. Masalan: tarix muzeyiga, adabiyot muzeylariga sayohat uyushtiriladi. U erda o‘quvchilar o‘tmish madaniy yodgorliklar-me`morchilik, haykaltaroshlik asarlarini, tasviriy san`at obidalarini o‘z ko‘zlari bilan ko‘rganlaridagina xotiralarida yaxshi saklashlari mumkin. Shu o‘rinda adabiyot darsining tarix bilan chambarchas bog‘likligi yakkol namoyon bo‘ladi. Tarix darslarida asosan o‘sha davrning ijtimoiy-siyosiy hayoti o‘rganilsa, adabiyot darslarida aynan shu davrdagi adabiy muhit shoir va adiblar ijodi o‘rganiladi.

Hamid Olimjonning kitobxonlarga yaxshi tanish “O‘rik gullaganda” she`rini oladigan bo‘lsak, ushbu asarni o‘rganishda ham sayohat darslaridan foydalanishimiz mumkin.

Derazamning tagida bir tup O‘rik oppoq bo‘lib gulladi,

Novdalarni bezab g`unchalar Tongda aytdi hayot otini.

Va shabboda kurg`ur ilk sahar Olib ketdi gulning totini...

She`rni o‘qigan har bir kishi avvalo ilk bahorni, erta tongni ko‘z oldiga

keltiradi. Ushbu she`r o`tilayotgan paytda ham bolalarni tabiat ko`yniga olib chikilsa, o`sha erda she`rda keltirilgan tasviriy vositalar, o`xshatishlar izohlansa maksadga muvofik bo`ladi.

Biz yukorida aytib o`tdik XIV-XIX asr tarixini, adabiyotini o`rganayotgan davrda ayniksa adabiy ekskursiyalar muhim ahamiyatga ega. Biz bilamizki, adabiyot o`ktuvchisining vazifasi avvalambor o`quvchiga odob-axlokni, vatanga muhabbat, yurtga sadokatli bo`lish kabi tuyg`ularni shakllantirishdir. O`kuvchilarning fan asarlarini puxta egallashlarida, fanlararo alokani mustahkamlashda; o`lkamiz o`tmishini chukur o`rganish va shu asosda bugungi kun vokea-hodisalarini teran mushohada kilishimiz lozim.

Adabiy ekskursiyalarni tashkil etishda ota-onalar bilan, maktab ma`muriyati bilan kelishilgan holda Samarkad, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarga sayohat uyushtirilsa. O`kuvchilarning tarixiy obidalarni o`rganishga, ularni asrashga bo`lgan rag`bat yanada oshar edi.

Adabiy ekskursiya deganda fakatgina ko`rib kaytish emas, balki o`quvchi ko`rganlarini gapirib berishi, sinfda atroflicha muhokama kilinishi zarur. Bu o`qituvchidan ham o`ta bilimdonlik va tashkilotchilikni talab kiladi. O`qituvchi o`quvchilarni kiziktirgan savollarga javob bera olishi, ularni atroflicha bahslar utkazishga jalb kila olishi zarur.

Alisher Navoiyga bag`ishlangan darsni o`tishda o`quvchilarni muzeyga olib borish yoki muzey eksponatlarini namoyish kilgan ma`kul. Bunda¹ Alisher Navoiyning bolalik va yigitlik chog`lari hakida rassom A.Ciglinevning "Alisher maktabga borgan payt", B.V.Cestinskiyning "Alisher Navoiy "Mantik-ut tayr"ni o`qimokda", A.Ciglinevning "Mashhad. Alisher Abulkosim va Husaynga she`r o`qib bermokda" kabi rasmlardan foydalanib o`qituvchi o`quvchilarga jonli ma`lumot berishi mumkin.

Oybekning "Navoiy" romaniga ishlangan "Alisher Navoiy" portretida shoirning 30 yoshlardagi payti - uning muhrdorlik vazifasiga tayin etilganlik yillari tasvirlangani hakida ma`lumot berib, bunda o`qituvchi Navoiy kiyofasini Oybekning "Navoiy" ramanidagi kuyidagi parcha asosida tasvirlashi mumkin:

"Shoirning boshida kuchli ko`k takyaga sillik o`ralgan ko`rkamgina salla. egnida odmi shohi to`n, ustida yalang ko`ng`ir movut chakmon... Navoiy o`ttizdan oshmagan bo`lsa ham, yoshi ulug`dek ko`rinardi. Qomati o`rtadan baland, ingichka, lekin pishik, barmoklari uzun va nafis. Kora va kiska sokolli xushbichim miyiklari tekis va sillik; yonoklari chikikrok; kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma`nosi, ma`naviy kudrat va engil, go`zallashtiruvchi ir xorg`inlik jilvalanadi. Qobarikrok kovoklari ostidagi kiyg`och ko`zlarida go`yo tafakkur va xayol bilan birga kandaydir iroda kuchi ifodalangan".

O`qituvchi xuddi adib tasvirlagan holat musavvir kalamida o`z ifodasini topganligini ko`rsatadi.

Alisher Navoiy hayotining so`nggi yillari hakida ma`lumot berganda Navoiy portretini birinchi bo`lib ishlangan musavvir Kamoliddin Behzodning asari bizgacha

¹ Каранг: Халилов Ф. Ёзувчининг ҳаёти ва ижодий фаолиятини органишда тасвирий санъат асарларидан фойдаланиш. Тил ва адабиёт таълими, 1998, 2-сон. 28-34-бетлар.

etib kelmaganligi sababli Navoiyning Mahmud Muzahhib tomonidan yaratilgan portretidan foydalanish maksadga muvofikdir.

Mazkur portretda shoirning keksalik davri tasvirlangan. U hassaga tayangan holda bir oz egilib turibdi. Ilm-ma`rifat, hakikat va adolat uchun kurashlarning shoirga ta`siri uning okargan sochlaridan, kiyofasidan sezilib turibdi. Ammo shoir jismonan charchagan bo`lsa ham, ruhan tetik ko`rinadi. Biroz chimirilgan koshlari, tiyrak nigohi. Sezilar-sezilmas tabassum bilan bokib turishi jonli va hayotiy ifodalangan.

Demak adib hayoti va ijodini o`rganishda muzeylarga sayohat uyushtirish, u erdagi portret va asarlar, ko`rgazmalarni bevosita adib hayoti bilan bog`lagan holatda o`quvchiga etkaza olish o`qituvchi mahoratiga bog`lik.

Umuman, G`afur G`ulom, Oybek, Abdulla Qahhor kabi adiblarimiz ijodini o`rganayotgan paytda ham adabiy ekskursiya usulidan foydalanish maksadga muvofikdir. Masalan, G`afur G`ulom ijodini o`rganish jarayonida o`quvchilarga shoir hakida ma`lumot beriladi va shoir uy-muzeyiga ekskursiya uyushtiriladi. O`kuvchilarning u erda shoir hakida yanada to`larok ma`lumot olishga muvaffak bo`ladilar. Chunki shoirning esdaliklari, suratlari, shoir foydalangan buyumlari, hattoki uning chalgan tanburi-yu, o`qigan "Qur`on" kitoblari o`quvchida umrbod esda koladigan tuyg`uni paydo kiladi. Bu adibga bo`lgan mehr va hamnafaslik tuyg`usidir.

Umuman, adabiy ekskursiya darslari o`quvchida katta qiziqish uyg`otadi. Darsni nazariy jihatdan o`rganib turib, uni amaliyotga tatbik kilsagina samarali natijaga erishish mumkin.

Savol va topshiriqlar:

1. Ekskursiya darslari qanday tashkil qilinadi?
2. Dastur va darslik materiallari asosida adib uy-muzeylariga sayohat darslarini tashkil etish yuzasidan reja-konspekt tayyorlang.
3. Tabiat qo`yniga saayohat qilish yuzasidan dars ishlanmasi tayyorlang.
4. Adabiyot muzeyiga sayohat uyushtirish yuzasidan sayohat rejasini tuzing.
5. "Sayohat taassurotlari" mavzusida bahs-munozarali savollar tuzing.

Elektron kutubxona tuzilishi jihatidan oddiy kutubxonadan deyarli farq qilmaydi. Lekin undagi ma`lumotlar miqdori juda cheksiz bo`lishi mumkin. Internet tarmog`ida minglab elektron kutubxonalar mavjud. Ayni vaqtda bu kutubxonalarning ko`pchiligi tarmoq orqali o`zaro bog`langan. Oddiy kutubxonalardagi singari bu yerda ham ba`zi ma`lumotlar to`liq bepul, ba`zilari uchun esa pul to`lashga to`g`ri keladi. Shuningdek, Internet tarmog`idan tashqarida ham, ya`ni masalan, o`quv yurtlari uchun ham elektron kutubxonalar yaratish mumkin. Buning uchun kerakli ma`lumotlarni talab qilingan tartibda kompyuterga kiritish kifoya. Bu ma`lumotlarni lokal tarmoq orqali bosh kompyuterdan o`zaro bog`langan boshqa kompyuterlarga uzatish mumkin. Bu kutubxonani Internet saytiga joylashtirsa, u hamma uchun foydalanish imkoniyatini beradi.

Portal– ma`lum bir sohagagina tegishli bo`lgan ma`lumotlarni o`zida saqlovchi saytlarni o`zaro bog`lovchi sayt. Internet tarmog`idan juda ko`p portallar o`rin olgan. Masalan, "Referatlar", "Matematika", "Tibbiyot" portallari va h.k. Portallarning Internetdan farqi shundaki, ular Internet tarkibiga kirishi bilan birga,

ba'zi holatlarda Internet tarmog'iga ulanmasdan turib ham undagi ma'lumotlardan foydalanishimizga imkon yaratadi. Portalga ulangan kompyuterlar tarmog'ini lokal va global tarmoq o'rtasidagi qandaydir uchinchi tur tarmoqqa o'xshatsa bo'ladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta ta'lim vazirligining portali. Bu tarmoqdan Internet bo'lmagan vaqtda ham foydalanishimiz mumkin. Faqat shu tarmoqqa ulangan bo'lishimiz kerak. Buning uchun alohida tarmoq (kabellar) tortilishi kerak. Bunday tarmoqlarga ulanish ham Internet tarmog'i singari pullik.

Internetdan ma'lumotlarni qidirish – Internet tarmog'ida ma'lumotlar miqdori shu qadar ko'pki, hatto tasavvur ham qilish qiyin. Bu ma'lumotlar orasidan o'zingizga keragini topib olish esa ancha murakkab ish bo'lib hisoblanadi. Ana shu ishni osonlashtirish maqsadida, maxsus ma'lumotlarni qidirish sistemalari yaratilgan. Bular orqali bir zumda o'zingizni qiziqtirgan ma'lumotni topib olishingiz mumkin. Faqat boshlanishida sizga biroz tajriba etishmasligi mumkin. K eyinchalik bu ish haqiqatdan ham oddiy ekanligiga o'zingiz ishonch hosil qilasiz.

Kompyuter (ingl. **computer** – hisoblagich, lat. **computo** – hisoblamoqdaman) – elektron shaklga ega turli ma'lumotlarni qabul qilish, yig'ish, saqlash, ularga ishlov berish, axborot uzatish, hisob-kitoblar chiqarish, belgilar bilan manipulyatsiya qilish va shu kabi boshqa qobiliyatlarga ega bo'lib, o'z ishini maxsus yo'riqlar bilan ijro etadigan, ya'ni bajaradigan ishi dasturlanadigan, ushbu dastur vositasida hisob-kitoblar chiqarishning murakkab izchilligini qabul qilib, amalga oshiradigan ko'p funktsional elektron uskuna (mashina).

ZiyoNet axborot ta'lim tarmog'i yoshlarni, murabbiylarni, shuningdek aholining turli qatlamini kerakli axborot bilan ta'minlash, AT sohasida kerakli ma'lumotlarni berish, muloqat qilish va tajriba almashinishlari uchun zarur imkoniyatlarni yaratib berishni O'z zimmasiga oladi.

Foydalanuvchilar

ID.UZ tizimidan rO'yhatdan O'tgan foydalanuvchilarga ZiyoNet portali O'z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun barcha sharoitlarni yaratib beradi. Jumladan:

1. ZiyoNet portalining kutubxonasiga axborot - ta'limiy ma'lumotlarni joylashtirish;
2. Uchinchi darajali «zn.uz» domenida sayt-satelitlarni yaratish;
3. ZiyoNet portalining yopiq bo'limlariga kirish va u yerdan ma'lumot olish;
4. ZiyoNet axborot resurs tarmog'ining turli tanlovlarida qatnashish.

1. **Ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan saytlar.** Bunday saytlar asosan ta'lim muassasasi xaqida ma'lumotlar keng ommaga tanishtirish, ta'lim muassasasida faoliyat olib boruvchilar hamda o'quvchilarni ta'lim muassasasi bilan doimiy aloqasini ta'minlab turish maqsadida yaratiladi. SHuningdek ta'lim va tarbiyaga bag'ishlangan bir necha saytlar mazmunan va mantiqan birlashtirilib **ta'limiy portalni** tashkil qilishi mumkin.

Yuqoridagidan kelib chiqib xulosa qilish mumkinki, o'quv muassasalarida

faoliyat yuritayotgan professor-o'qituvchilar ayniqsa, informatika o'qituvchilari hamda o'quv muassasasi o'quvchilari orasida qiziqishi katta bo'lgan o'quvchilar birgalikda ushbu o'quv muassasasining saytini yaratish, mazmunini yangilab borishda muhim ishtirokchilar hisoblanadilar

O'quv muassasasi uchun yaratilgan saytlarning ahamiyati

Internet texnologiyalarining imkoniyatlari kengligi va sodda ekanligi internetdan foydalanuvchilarning daqiqa sayin ortib borishiga olib kelmoqda. Bu foydalanuvchilar orasida ko'pchilik qismini albatta, talabalar, o'quvchilar, ilmiy izlanish bilan band bo'lgan xodimlar tashkil qiladi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, ta'lim jarayonida Internet texnologiyalaridan, xususan o'quv muassasalariga bag'ishlangan veb - saytlardan foydalanish ta'lim sifati va samaradorligini sezilarli darajada yuqori bosqichga olib chiqishga yordam beradi.

Yangi axborot texnologiyalar vositalari takomillashib va rivojlanib borayotgan hozirgi sharoitda o'quv muassasasida tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarning (umuman har qanday sohada faoliyat ko'rsatuvchilarning) zarur axborotlarni Internet tizimidan mustaqil ravishda topa olishi, ular duch keladigan mavjud mutaxassisligiga oid muammolarni to'la va to'g'ri hal qila olishidagi muhim sharoitlardan biriga aylanib bormoqda.

Ta'lim jarayonida Internet saytlaridan foydalanish imkoniyatlarini, uning samaradorligini aniqlashda avval Internet hizmatining turlari va ularning harakterini aniqlab olish nihoyatda muhimdir. Aynan ana shu aniqlangan ma'lumotlar Internet tarmog'ida ishlashning tashkiliy jihatdan shakli va usullarini ajratib olishga yordam beradi. Klassifikatsiyalashga asos qilib internetning ishlash uslubini olish mumkin. Bu holda Internet server xizmatlarini ikkiga: axborotli va kommunikatsion xizmat turlariga ajratish kerak.

Axborotli xizmatga WWW (ma'lumotlar majmuasi) va G`TR (dasturlar majmuasi) lar kiritiladi.

Kommunikatsion xizmatni esa ikkiga: **bevosita** (PC, chat) va **bilvosita** muloqot (elektron pochta, forum, telekonferensiya) turlariga ajratish mumkin.

Internetdagi barcha "o'quv muassasa uchun yaratilgan sayt" larni o'z navbatida bir necha turga ajratish mumkin:

- o'rgatuvchi internet manbalari;
- maslahat beruvchi internet manbalari;
- axborotli internet manbalari;
- baholovchi internet manbalari;
- taqdimotli internet manbalari;

Quyida ularning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

O'rgatuvchi internet manbalariga masofaviy ta'lim, virtual maktablar, laboratoriyalar va veb sinflarni misol sifatida keltirish mumkin.

Maslahat beruvchi internet manbalariga turli telekonferentsiyalar, virtual pedagogik kengashlar, virtual uslubiy, birlashmalar muammoviy kengashlar, virtual kafelar va hokazolarni misol keltirish mumkin.

Axborotli internet manbalariga elektron o'quv qo'llanmalar, ma'lumotnomalar, elektron kutubxonalar, lug'atlar, kataloglar, virtual muzeylarni keltirish mumkin.

Baholovchi internet manbalarga teletesting, masofaviy konkurslar, turli viktorinalar, olimpiadalarni misol keltirish mumkin.

Taqdimotli internet manbalariga ta'lim muassasalarining ta'lim yo'nalishlari haqida atroflicha ma'lumotlar yoritilgan alohida sahifalarni keltirish mumkin.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qituvchilar ta'lim oluvchilarga masofadan turgan holda bilim olishlariga imkon yaratadilar. O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar ayniqsa o'qitish joylariga qatnashi qiyin bo'lgan ta'lim oluvchilarga qulaydir. Bulardan tashqari ta'lim oluvchilar axborot texnologiyalari bilan ishlash madaniyati, ko'nikma va malakalariga ega bo'ladilar O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan dars jarayonida foydalanish juda katta imkoniyatlar yaratadi.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar yordamida o'qitish, o'quv jarayonini a'nanaviy tashkil etishning asosiy shakllarini o'z ichiga oladi. Ma'ruza, seminar va amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya amaliyoti, nazorat tizimi, tinglovchilarning ilmiy tadqiqot va mustaqil ishlari shular jumlasidandir. O'quv jarayonini tashkil etishning ushbu barcha shakllari amaliyotda tinglovchilarni mustaqil bilish faoliyati turli axborot manbalari bilan osongina birlashtirishni, kurs olib borayotgan o'qituvchi yoki tyutor bilan tezkor va tizimli aloqa qilish hamda tinglovchilarning guruh bo'lib ishlarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

O'quv jarayonida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish o'qituvchilarga:

- internet tarmog'i yordamida u yoki bu o'quv fanlardan to'plangan tajriba va uslublarni boshqa kasbdoshlari bilan almashish;
- bir vaqtning o'zida turli toifadagi talabalar uchun har xil o'qitish uslublarini amalga oshirish orqali o'quv jarayonini individuallashtirish;
- o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi nazorat topshiriqlaridan mashq sifatida foydalanish natijasida talabalarda fan bo'yicha egallangan bilimlarni ko'nikma va malaka darajasiga yetkazish;
- qo'lda bajariladigan ishlarni kamaytirish hisobidan talabalarga yakka tartibda ishlash va o'z qobiliyatlarini namoyon qilish imkoniyatini yaratish;
- talabalarni mustaqil bilim olish jarayonini samarali tashkil etish kabi imkoniyatlarni yaratadi.

O'qitishda o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan foydalanish

talabalarda:

- o'z hohishlariga qarab o'qish holatlarini tanlash;
- tayyorgarliklar va psixofizik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda o'zlariga mos o'qish metodlari va bayon etish usullarini tanlash;
- oldin o'rganilgan materiallarga qaytish, o'qish jarayonini to'xtatib qo'yish va unga ixtiyoriy vaqtda murojaat qilish;
- turli jarayonlarning dinamikasini va mexanizmlarni o'zaro ta'sirini kuzatish;
- o'rganilayotgan ob'ektlarni boshqarish va ularning mos natijalarini ko'rib borish;
- kompyuterda muloqot qilish psixologik xarakterdagi to'siqlardan holi bo'lishga (kulgu bo'lmaslik, jur'at etmaslik, uyalmaslik kabilar) olib kelishi;
- tayyorgarlik darajalari yetarli bo'lgunga qadar kompyuterdan sabr bilan foydalanish kabi imkoniyatlarga ega bo'ladilar.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan

. saytlarning ta'lim sohasidagi quyidagi afzalliklarini sanab o'tish mumkin:

- fanlarni o'zlashtirilishni yaxshilanishi;
- tarmoq savodxonligini ortishi (Kompyuter va Internet bilan muloqot qilishdagi yangiliklar);
- o'rganishga bo'lgan munosabatni yaxshilanishi;
- mustaqil ta'lim va tadqiqotlar malakasini takomillashishi;
- amaliy malaka samaradorligini oshirish

Internet tizimida o'quv muassasasi uchun yaratilgan saytlar

Bugungi kunda taraqqiyot juda tez rivojlanmoqda va juda tez o'zgarimoqda. Deyarli har daqiqada sayyoramizning turli burchaklarida o'zgarishlar, yangilanishlar va kutilmagan voqea-hodisalar sodir bo'lmoqda. Har bir kunimiz kuchli axborot oqimi ostida kechmoqda. Axborot oqimi bizni uyda, ishxona va ta'tilda ta'qib etadi. Inson informatsiya ta'siridan xoli normal faoliyat yurita olmaydi. Hayotni anglash, uni o'rganish informatsiyalarni yig'ish va o'zlashtirish orqali kechadi. Insonning bilimlilik darajasi ham ma'lum davr ichida shaxs tomonidan o'zlashtirilgan informatsiyalarning ko'p yoki ozligi bilan belgilanadi.

Shuning uchun zamonaviy bilimlar sari keng yo'l ochish, ta'limotni takomillashtirishda yangi axborot texnologiyalardan unumli foydalanish - bugungi kunning talabiga aylandi. Vaholanki, ta'lim tizimida sezilarli o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ta'lim tizimida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardan

foydalanish o'qitish qo'llanilmoqda.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning yana bir afzalligi shundaki, unda o'quvchi o'ziga qulay vaqtda va hattoki ishdan ajralmagan holda o'qishi mumkin.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlarning yana bir afzallik tomoni unda o'qish muddatini o'quvchi o'zi belgilaydi, ya'ni talaba ixtiyoriy paytda o'qishni boshlaydi, materiallarni o'qituvchi nazoratida o'zlashtiradi. O'zlashtirish topshiriklarni, testlarni bajarishiga qarab aniqlanadi. O'quvchi berilgan programmani qanchalik tez o'zlashtirsa, shunchalik tez o'qishni tugatadi va guvohnoma oladi. Dasturni o'zlashtira olmasa, unga mustaqil ishlab, o'qishni davom ettirishga imkoniyat beriladi.

O'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlardagi berilgan materiallari asosan quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Darslik
- Audio va video darsliklar
- Onlayn darslar (Internet sahifa)
- Elektron kutubxonalar
- Testlar
- Multimedia - elektron darsliklar

Respublikamiz Oliy va O'rta Maxsus bilim yurtlarida o'quv muassasalari uchun yaratilgan saytlar kataloglashtirish, respublika ta'lim muassasalarida tayyorlanayotgan elektron o'quv adabiyotlarini barcha ta'lim muassasalari orasida targ'ib qilish muhim va murakkab vazifa hisoblanadi. Davlatimiz rahbariyati tomonidan ushbu masalani ijobiy yechimini topish hamda ta'lim muassasalari uchun yaratilgan elektron o'quv resurslari va ta'lim muassasalari saytlarini ta'lim jarayoniga tatbiq etishga jiddiy e'tibor berilmoqda. Buning natijasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga binoan tashkil qilingan www.ziyonet.uz axborot- ta'lim portali ishga tutirildi va bu portalda barcha ta'lim muassasalari uchun ta'lim resurslari joylattirilganligi ahamiyatga molikdir.

Ziyonet axborot-ta'lim portali

ZiyoNet jamoat axborot ta'lim tarmog'i 2005- yil 28- sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning "O'zbekiston Respublikasining jamoat ta'lim axborot tarmog'ini tashkil etish to'g'risida"gi 2005 -yil 28- sentyabrdagi 191 - sonli qaroriga muvofiq tashkil topgan.

O'z-o'zini nazorat qilish uchun savollar:

1. Qidiruv tizimlarining turlari.
2. Kalitli soʻzlar orqali maʼlumotlarni izlash qanday amalga oshiriladi?
3. Kataloglar tizimida maʼlumotlarni izlash qanday amalga oshiriladi?
4. Internetda maʼlumotlarni izlashning asosiy usullarini ayting?
5. Qidiruv tizimlarining qanday turlarini bilasiz?
6. Internetda nisbatan ommabop qidiruv mashinalarini ayting
7. Portal nima?
8. Portallarga quyidagi talablar?
9. portalning maqsadi nima?
10. GOOGLE asbob-uskunalarining imkoniyatlari.
11. Google diskining vazifasi.
12. internetga joylashtirilgan Web - saytlarning qanday turlari mavjud?
13. Ziyonet jamoat axborot taʼlim portali qachon ish boshlagan?
14. ID.UZ qanday sayt?
15. Pedagog.tdpu.uz – qanday sayt?
16. <http://my.estudy.uz> – qanday sayt?
17. my.estudy.uz LMS tizimining strukturasi qanday?

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Geyn A. G. Izuchenie informatsionnogo modelirovaniya kak sredstvo realizatsii mejpredmetnix svyazey informatiki s distsiplinami yestestvennonauchnogo sikla: Avtoref. .kand.ped.nauk. - M., 2000.
2. Xamidov V.S. Metodi modeli veb orientirovannix adaptivnix obuchayushix sistem/LAP LAMBERT Academic Publishing, Germany. 228 str.
3. <http://remontka.pro/start-windows-8/>
4. <http://www8.hp.com/ru/ru/support-topics/windows8-support/start-screen.html>
5. <http://ziyonet.uz>- Oʻzbekiston Respublikasi axborot-taʼlim portali
6. <http://pedagog.tdpu.uz>- Respublika pedagogika taʼlim muassasalari portali
7. <http://e.learning.zn.uz>- Elektron taʼlim blogi
8. <http://my.estudy.uz> – masofali oʻquv tizimi
9. 1. Sobirov A.Sh. Adabiyot mashgʻulotlarida maxalliy adabiy va madaniy materiallardan foydalanish: Ped.f.n. ... diss.av-ti. – T., 1995. – 23 b.
10. 2. Xamroliev K.U Adabiyot oʻqitish jarayonida adabiy oʻlkashunoslik materiallaridan foydalanish. Nomzodlik dis... avtoreferati. – T., 1993. – 22 b.
11. 3. Usmonov J. Adabiyot muzeyi va dars. -- T.: Oʻqituvchi, 1987. – 88 b.
12. 4. Xalilov F. Yozuvchining hayoti va ijodiy faoliyatini oʻrganishda tasviriy sanʼat asarlaridan foydalanish. Til va adabiyot taʼlimi, 1998, 2-son. 28-34-betlar.

15- MODUL: FOLKLORGA OID DARS MASHG‘ULOTLARIDA AUDIO-VIZUAL MULTIMEDIA VOSITALARINI YARATISH USULLARI

REJA:

1. Xalq og‘zaki ijodiga bag‘ishlangan darslar uchun audio materiallar tayyorlash.
2. Folklorshunoslikka oid video materiallar uchun ssenariy yaratish.

Tayanch so‘z va iboralar: Multimedia vositalari, audiokolonka, mikrofon, videoproektor, Web kamera, TV tuner, SD-ROM, Windows Media Player, Winamp, Power Pont dasturi, video ikkilik, raqamli fotoapparat, rasmlar.

Multimedia vositalari apparat vositalari va dasturiy vositalar kompleksi bo‘lib, insonga tabiiy bo‘lgan turli-tuman muhitlar, ya’ni: tovush, video, grafika, matn, animatsiya kabilardan foydalangan tarzda kompyuter bilan muloqot qilish imkonini beradigan vositalardir.

Multimedia vositalari. Adabiyot o‘qitishda multimedia vositalaridan foydalanish, o‘qitish sifati va samaradorligini oshirishning eng samarali usullaridan biri hisoblanadi. Multimedia vositalari yordamida olib borilgan audio-video muloqot o‘quvchining darsga bo‘lgan qiziqishini va bilim olishga bo‘lgan xavasini oshiradi.

Multimedia vositalariga audiokolonka, mikrofon, videoproektor, Web kamera, TV tuner, SD-ROM va boshqalar kiradi.

Multimedia vositalari o‘quvchiga yakka tartibda shug‘illanish imkonini beradi. O‘quvchi o‘qituvchining bevosita ishtirokisiz ham materialni mustaqil uzlashtirishi mumkin bo‘ladi.

Hozirda multimedia so‘zi kundalik ilmiy-iqtisodiy faoliyatimizda juda ko‘p ishlatilmoqda. Ta’limga multimedia texnologiyalarini tadbiq etish uchun dastlab “Multimedia nima” degan savolga javob beramiz.

Turli kasbegalari bu atamani turlicha izohlamodalar. Ularning fikrlarini umumlashtirib, multimediaga shunday ta’rif berish mumkin.

Multimedia – bu informatikaning dasturiy va texnikaviy vositalari yordamida o‘quv materiallarini tenglovchiga to‘liq yetkazibberishning mujassamlashgan holdagi ko‘rinishidir.

Multimedia hozirda juda tez rivojlanayotgan zamonaviy axborot texnologiyalaridan bo‘lib, u quyidagi an’anaviy axborot turlarini: matn, jadval,

turli xil bezaklar, hamda original axborot turlarini: nutq , musiqa, telekadrlar, videofilmlardan parchalar, lavhalar, animatsiya ko‘rinishidagi axborotlarni o‘z ichiga oladi. Video va audio axborotlarni kompyuterda qayta ishlash va aks ettirish uchun markaziy protsessorning harakatchanligini, ma‘lumotlarni uzatish shenasining utkazish qobiliyatini, tezkor va video-audeo xotira hajmini, katta sig‘imli tashqi xotirani, kompyuter kirish chiqish kanallari bo‘yicha almashuv tezligini taxminan ikki baravarga oshirish talabetiladi.;

“Inson-kompyuter -inson” interfaol muloqotning yangi darajasining ta‘minlanishi nazarda tutiladi.

Multimedia vositalarining afzalliklari va uni ta‘limda qo‘llash muammolari. Hozirgi amaliyot shuni ko‘rsatmoqdaki, multimedia vositalari yordamida tinglovchilarni o‘qitish an‘naviy ta‘limdan ikki barobar samarali bo‘lmoqda.

Ta‘lim sohasida multimedia vositalari yordamida tinglovchilarga bilim berish afzalliklari quyidagilardan iborat:

-ta‘lim jarayonida berilayotgan materiallarni chuqurroq va mukammalroq o‘zlashtirish imkoniyatining mavjudligi;

-ta‘limning turli shakllaridan bir vaqtning o‘zida foydalanish imkoniyatining paydo bo‘lishi;

-boshqa fan soxalari bilan yaqindan alo qilish imkoniyati oshadi;

-dars jarayonida bilim olish imkoniyatining qisqarishi natijasida vaqtni tejash imkonining borligi;

Olingan bilimlarning o‘quvchi xotirasida uzoq muddat saqlanib qolishi va uni amaliyotga qo‘llash mumkinligi.

Multimediadan ta‘lim soxasida qo‘llashning ayrim muammolari ham mavjud. Jumladan:

-ta‘lim uchun zarur bo‘lgan o‘quv materiallarini hamda boshqa zaruriy ko‘rsatmalarni elektron qo‘llanma shaklida yoki o‘quv kompyuter dasturlari ko‘rinishida ishlab chiqish;

-ishlab chiqilgan o‘quv kompyuter dasturlari uchun multimedia elementlarini qo‘llash.

Multimediali o‘quv materiallarini ishlab chiqishda hozirgi Respublika ilmiy metodik markazida va uni ta‘lim jarayonida qo‘llash bo‘yicha tadqiqot ishlari boshlab yuborilgan. Bunga yetakchi mutaxassislar jalb qilingan va va har ta‘lim yo‘nalishi bo‘yicha ish olibborilmoqda.

Multimedia vositalari bilan ishlash. Video va audio multimedia vositalarini kompyuterda juda ko‘p dasturlar orqali ishlatiladi. Video, audio bilan ishlovchi dasturlar qatoriga, jumladan, Windows Media Player, Winamp va boshqalar kiradi.

Windows Media Player dasturini ishlatishni ko‘rib o‘tamiz. Windows o‘rnatilgan barcha kompyuterlarda Windows Media Player dasturi Windows bilan birgalikda urnatilgan bo‘ladi. Windows Media Player dasturini ishga tushirish uchun Windowsning Pusk tugmasi bosiladi. Keyin bosh menyudagi Programma menyusi ostidan Standartnoe qismiga kiriladi. Va Windows Media Player ishlatiladi. Ilgari qo‘yilgan narsani ochish paytida “o‘ng tugma” (bekor) degan xabar paydo bo‘lishi mumkin. Bu kompyuterning noto‘g‘ri qo‘shilganidan yoki saqlab qo‘yilgan narsa noto‘g‘ri saqlanganligidan darak beradi..

Video ikkilik. Ta`lim jarayonida video, audio lavhalarini namoyish qilishda keng foydalaniladi. Ekran katta televizorlarni katta ekran sifatida videoko'z orqadi materialni namoyish qilishda foydalanish mumkin.

Raqamli fotoapparat – seminaridagi yoki dars jarayonidagi olingan rasmlarni kompyuterda qayta ishlash orqali slayd, videoproektor, kodoskop yordamida namoyish qilish mumkin.

Taqdimot ishlari dasturlari

Makintosh va Windows muhitlarida ishlatiluvchi taqdimot dasturlari paketidan anchadan buyon mavjud dasturlar guruhini ajratib ko'rsatish mumkin. Bu guruhga Lotus firmasining Freelance Graphics, Software Publishing firmasining Harvard Graphics? Microsoft kompaniyasining Power Point dasturlari kiradi. Bu dasturlarni ishlab chiquvchilar har xil yangi rusumda ishlatiladigan vositalarni ko'paytirib imkoniyatlarini kengaytiradilar.

Makintosh va Windows muhitlaridagi yangi turdagi taqdimot dasturlari paketi multimedia vositalarini yanada to'liq ishlatishga mo'ljallangan. Bu dasturlar video va tovushli fayllarni qulay uzatish (import qilish), diagramalarda animatsiya vositalaridan keng foydalanish imkonini beradi.

Yangi turdagi taqdimot dasturlari qatoriga Makromedia firmasining Action hamda Gold Disk firmasining Astound dasturlari paketi kiradi.

Power Point dasturi MS OFFICE dasturlari tarkibiga kiradi. Undan foydalanish oson va qulay. Dasturni o'rgatuvchi o'quv dasturi, tayyor taqdimot namunalari, matn bilan ishlash vositalari, boshlovchilar uchun foydali yordam tizimi mavjud.

Power Point dasturi ichki multimedia vositalari bo'lmisada, bu vositalarni OLE -2 texnologiyasi yordamida kengaytirish va tuzdirish mumkin.

Astound dasturi yangi taqdimot dasturlari ichida eng yaxshilaridandir. U ishlatilishi soddaligi bilan ajralib turadi. Tovushli kliplar, harakatli tasvirlar va multimedyaning boshqa elementlaridan bir vaqtning o'zida baravar (sinxron) ishlatishga imkon beradi.

Taqdimot dasturlari ichidan OS/2 va Makintosh muhitida ishlovchi ixchamlashtirish, birlashtirish va dizayn vositalariga ega Abobe Persuasion dasturini Windows muhitida ishlovchi kuchli rasm chizish vositalari qulay boshqaruvga ega Novell Presentations dasturini, hamda slayd –ko'rgazmalar uchun Lifeboat Publishers firmasining Demo-it dasturini, taqdimotlar imkoniyatlarini kengaytirish uchun mo'ljallangan Macromedia firmasining Director dasturlarini alohida e'tiborga olish kerak bo'ladi.

ISPRING DASTURI VA UNING IMKONIYATLARI

Multimediali elektron o'quv kurslarni yaratish imkoniyatini beruvchi pedagogik dasturiy vositalar ichida yuqori reytingga ega bo'lgan iSpring dasturi haqida to'xtalib utamiz.

Ispring Free dasturi.PPT, .PPTX, .PPS, .PPSX formatdagi fayllarni Flash (.SWF) va HTML5 formatiga konvertatsiyalash imkoniyatini beradigan mualliflik

dasturi hisoblanadi.

Dastur orqali foydalanuvchilar Flash-roliklar va YouTube-video resurslarni PowerPoint taqdimot slaydlariga joylashtirishlari mumkin.

Xususan:

- Yaratiladigan elektron o'quv kontentlarni SCORM va TinCan ga utkazish imkoniyatini beradi, bu esa ixtiyoriy LMS (Learning management system) bilan integratsiyalashtirish mumkinligini.
- PowerPoint dasturida yaratilgan taqdimot faylining hajmini 97% gacha siqish imkoniyati mavjud
- PowerPoint dasturida yaratilgan taqdimot faylining hisoyalanişini ta'minlaydi

Folklor – ogʻzaki ijod. Xalq poetik ijodi yozuv paydo boʻlmasdan koʻp zamonlar ilgari yuzaga kelgan. Uning yaratilishi va tarqalishi jonli ogʻzaki anʻana bilan bogʻliqdir. Folklor asarlarining uzoq asrlar davomida ogʻzaki yaratilishi va ogʻzaki ijro etilishi uning shakl va mazmuniga taʼsir koʻrsatadi. Maʼlumki, ayrim tarixiy faktlarning toʻliq esda qolmasligi, zamon taqozosi bilan unutilishi natijasida ularning asardan tushib qolishi yoki oʻzgarishi mumkin. Folklorning ogʻzakilik xususiyati uning keng tarqalishiga, xalq orasida keng ommalashuviga sabab boʻladi. Ammo shu bilan birga, ogʻzaki ijod namunasi oʻtmish zamonlarda yozma tarzda mavjud boʻlmagani uchun uni ijro etuvchi shaxsning vafoti bilan yoʻq boʻlib ketishi ham mumkin. Folklor asari ogʻzidan -ogʻizga oʻtishi tufayli shaklan va mazmunan qanday oʻzgarishlarga uchramasin, bu hol uning gʻoyaviy-badiiy va ijtimoiy-estetik qimmatini tushirmaydi. Chunki unda ijodkor xalqning voqelikka munosabati aks etadi.

Folklor – xalq ijodi. Folklor xalq tomonidan asrlar davomida yaratilib avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga oʻtib kelgan jamoa ijodi mahsulidir. Maʼlumki, qadim zamonlarda ilk bor yuzaga kelgan folklor asarlari xalq tomonidan ijod qilingan va ijro etilgan. Keyinchalik esa talantli kishilar tomonidan yaratilgan. Ular oʻz ijodida qabila va urugʻ odatlari, dunyoqarashi, eʼtiqodi, tabiat bilan boʻlgan munosabatlari haqida hikoya qiladilar. Xalq kuychisi (baxshi, ertakchi, qoʻshiqchi) xalq jamoasi tomonidan yaratilgan asarlarni mexanik tarzda boshidan oxirigacha soʻzma-soʻz yod aytmaydi, balki unga ijodiy munosabatda boʻlib, oʻzidan nimadir qoʻshadi, boyitib boradi. Shuning uchun ham u kuylayotgan asarini hamisha «xalqniki» deb tan oladi. Demak, folklor asarlarida xalq jamoasi ijodi tushunchasi, hech mahal individual ijod rolini inkor etmaydi.

Ogʻzaki adabiyot, xalq ogʻzaki badiiy ijodi yoki «folklor» deb yuritiladi. «Folklor» termini birinchi marta XIX asr tadqiqotchisi Vilyam Toms tomonidan 1846 yilda qoʻllangan boʻlib, inglizcha folk – xalq, lore – bilim, donolik degan maʼnolarni bildiradi.

Folklor – sinkretik xususiyatga ega boʻlib, xilma-xil sanʼat turlariga xos elementlarni oʻziga mujassamlashtirgan. Uning baʼzi namunalari soʻz va kuy uygʻunligida ijro etiladi. Doston va termalarni doʻmbira joʻrligida kuylash anʼanviy boʻlsa, qoʻshiq dutor va childirma joʻrligida kuylanadi.

Xalq ogʻzaki ijodi asrlar mobaynida tarixning yoʻldoshi, uning aks sadosi boʻlib kelgan. Xalq turmushi, hayot tarzi, ruhiy dunyosining oynasi hisoblangan

folklor asarlari yillar bo'yi to'plangan ijodiy tajribalardan iborat badiiy-estetik qadriyatlardan biridir. Folklor asarlarini o'rganish va tartibga solish orqali xalq turmushi, orzu-istaklari haqida ma'lumotlar olish bilan bir qatorda badiiy fikr ibtidosi va uning rivojlanish qonuniyatlari, taraqqiyot bosqichlari, hayot hodisalarini badiiy tasvir ob'ekti sifatida his etish an'anasining estetik omillari, xalqona poetik fikr tavsifiga oid qimmatli ilmiy kuzatishlar olib borish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyoti poydevori. – Toshkent: 1997
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch– Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Imomov K., Sarimsoqov B. Va b. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: O'qituvchi, 1990
4. Masharipova Z. Xalq og'zaki ijodi. – T.: 2008.
5. Madayev O, Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: 2011.

16- MODUL: MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI O'RGANISHDA ELEKTRON JADVALLAR VA GIPERMATN BILAN ISHLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH

REJA:

1. Adabiyot darslarida xronologik jadval tuzish ko'nikmasini shakllantirish.
2. Gipermatn va undan adabiyot darslarida foydalanish yo'llari.

Tayanch so'z va iboralar: WWW, xronologik jadval, gipermatn, giper murojaat, gipermatnli hujjatlar, gipermedia hujjatlari,

WEB – DIZAYN (LOYIHA) WORLD WIDE WEB (WWW) – kompyuter tarmoqlaridan kerakli ma'lumotni ko'rishni *giper murojaat* deb ataluvchi usul bilan kompyuter tarmoqlarida joylashtirish usuli. WWW- World Wide Web nomi Tim Berusers – Lee (Gern laboratoriyasi) tomonidan kiritilgan. U boshqacha nomda butun dunyo “o'rgimchaklari” deb ham ataladi. Buning sababi, WWWda turli yo'llar orqali tegishli ma'lumotga yetib borish va uni ko'rish imkoniyati borligidir. WWWda nuqtalar rolini kompyuter o'ynaydi. Yo'llar sifatida telefon yo'llari ishlatiladi. Web sahifalar, odatda, HTML hujjat, HTML (Hyper Text Markup Language – gipermatnning belgilash tili) tilida yozilgan hujjat sifatida tayyorlanadi.

Bu holda yozilgan hujjatlarni tabiiy ko'rinishda keng ommaga tushunarli bo'lgan kompyuter ekranida tasvirlash uchun maxsus dasturlar ishlatiladi. Bunday dasturlar Browser (ko'ruvchi, sharhlovchi)lar deb ataladi. Xususan Windows tarkibida mavjud dasturlar sharhlovchi nomi bilan yuritiladi.

WWW (qisqacha – Web) sistemasida ma`lumotlar **gipermatnli** hujjatlar shaklida olinadi. Gipermatn boshqa matnli hujjatlarga yo`l ko`rsatuvchi matndir. Bu esa boshqa matnlarga tez o`tish imkonini beradi. Matnlar bilan bir qatorda WWW hujjatlarida rangli harakatdagi tasvirlarni, turli video kliplarni, umuman multimedia ma`lumotlarini ham beruvchi hujjatlar **gipermedia** hujjatlari deyiladi.

Web –Internet tarmoqlarida joylashgan fayllar to`plami bo`lib, ularning soni soat sayin ko`payib bormoqda. Bu fayllarda ma`lumotlarning uchratish mumkin.

Webning eng asosiy xususiyatlaridan biri unda turli matn, video, grafik ob`yektlarda **gipermurojaatning** mavjudligidir. Matnlarda *kalit so`zlar* deb ataluvchi so`zlar orqali dunyoning ixtiyoriy burchagida Internet doirasida joylashgan ma`lumotlarga murojaat qilish va u orqali ma`lumotlarni topish **gipermurojaat** deb ataladi. Ajratilgan so`z va iboralar – gipermatn aloqalari, qisqacha **giperaloqalar** deb yuritiladi. Bu giperaloqalar orqali boshqa hujjatlarga murojaat qilib, unda yangi giperaloqalarni yaratish mumkin. Shunday qilib, Web – gipermatnli sistema bo`lib, unda ma`lumotlar ixtiyoriy tartibda joylashadi. Uning na boshi na oxiri bor. Bunday ma`lumotlar faqat giperaloqalar bilan bog`langan xolos. Hozirda giperaloqalar faqat matndagi ajratilgan so`zlar bilangina emas, xatto tasvirlar, grafiklar, ularning qismlari orqali ham amalga oshirilishi mumkin.

Gipermatn (hypertext) – hujjatlarni yoki ma`lumotlar bazalarini tashkillashtirish usuli. Bunda hujjatlarning yoki axborotlarning tegishli qismlari (parchalari) bir-biri bilan ishoralar (links, hyperlinks) vositasida o`zaro bog`lanadi va foydalanuvchiga fikrlash yo`li bilan ushbu ishoralar bo`yicha tegishli hujjatlar yoki axborotga o`tish imkonini beradi. Ishoralar matn, grafik, audio yoki video formatda havola etiladi.

Mavzu: Navoiyning hayoti va faoliyati

1. Navoiy asarlari uning biografiyasini tiklashda muhim manba sifatida. Shoir zamondoshlari asarlaridagi ma`lumotlarning qimmati.

3. Navoiyning bolalik va o`smirlik yillari.

4. Navoiy samarqandda.

5. Navoiy asarlarining yaratilishi haqida umumiy ma`lumot.

6. Navoiyning siyosiy-ijtimoiy faoliyati, obodonchilik sohasidagi ishlari.

O`quv mashg`ulotining maqsadi: Navoiy hayoti va faoliyati haqida shoirning o`z asarlariga, zamondoshlari xotiralariga hamda keyingi davrda olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib bilim berish.

O`quv faoliyatining natijasi: 1. talabalar Navoiy asarlari uning biografiyasini tiklashda muhim manba ekanligini bilib oladilar. 2. Shoir zamondoshlari asarlaridagi ma`lumotlarning qimmatini to`g`ri tushunib oladilar. 3. Navoiyning bolalik va o`smirlik yillari haqida chuqurroq tasavvurga ega bo`ladilar. Navoiyning samarqanddagi faoliyati haqida kengroq tushunchaga ega bo`ladilar. 4. Navoiy asarlarining yaratilishi haqidagi fikrlarini yangi ma`lumotlar bilan boyitadilar. 5. Navoiyning siyosiy-ijtimoiy faoliyati, obodonchilik sohasida amalga oshirgan ishlari haqida batafsil ma`lumot oladilar.

Navoiy asarlari uning biografiyasini tiklashda muhim manba sifatida

Alisher Navoiy biografiyasini tiklashda zamondoshlari xotiralari, tarixchilar, tazkiranavislar bilan birga shoirning o`z asarlari ham muhim manba bo`lib xizmat

qi ladi. bu borada shoirning ilmiy-nasriy asarlarining o'rnini alohida e'tirof etish mumkin. jumladan, navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida o'z asarlarini qisqa-qisqa tavchif etadi. "Majolis un-nafois"da o'zining adabiyot olamiga kirib kelishi, shoirlar bilan muloqoti va ayrim she'rlarining yozilish tarixi va boshqa masalalar xususida so'zlaydi. "Xamsat ul-mutahayyirin", "Holoti pahlavon muhammad", "Holoti sayyid hasan Ardasher" asarlarida Navoiy o'z yaqinlari, ular bilan birga kechgan voqelikalar va albatta, o'zi haqida so'zlaydi. "munshaot"dagi maktublar yana, Navoiy faoliyati, u muloqot qilgan kishilar, davr hamda shoirning shaxsiy muammolari haqida ham ma'lumot beradi. navoiyning "Xamsa"si yoki devonlari debochasida ham biografik asosga ega ma'lumotlar anchagina.

Shoir zamondoshlari asarlaridagi ma'lumotlarning qimmati.

Navoiy zamondoshlari tomonidan yaratilgan asarlar, turli manbalardagi ma'lumot - ma'rifatlardir. bular sirasiga navoiy nomi ilk bor zikr etilgan asar – Abdurazzoq samarqandiyning "matlai sa'dain va Majmai ba'rain" ("ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning quyilishi"1470); muhammad Xovandshoh (Mirxond)ning "Ravzatus-safo", ("Safolik boqi")²; G'iyosuddin bin Humomiddin (Xondamir) ning "Xulosatul- axbor" ("Voqealar xulosasi"), "Habibus-siyar" ("Suyukli xislatlar"), "Makorimul-axloq" ("go'zal xulqlar"); Amir Davlatshoh binni Alovuddavlo Baxtishoh al-G'oziy Samarqandiyning "Tazkirotush- shuaro" ("Shoirlar tazkirasi"); Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang" dostonlari, "Bahoriston", "Nafohatul-uns"; Jomiyning mulozimi va shogirdlaridan Abdulvose' Nizomiy "Maqomoti Mavlaviy Jomiy" ("Mavlaviy Jomiy turmushi")⁵ va Abdulhafur Joriyning "Takmila va "Nafohatul-uns"ga qo'shimcha". hijriy 912 yil (1506-1507); Mu'iniddin Muhammad al-Zamjiy al-Isfizoriyning Rravzotul-jinnot fi avsofi madinai Hirot" ("Hirot shahri ta'rifida jannat bog'i" (1492); Husayn Boyqaroning "Risola", "Majolisul - ushshoq" ("Oshiqlar majlisi"); Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma"; Zayniddin Mahmud Vosifiyning "Badoe'ul-vaqoe'" asarlarini hamda Navoiy hayoti va faoliyati xususida qimmatli ma'lumotlar, ma'rifatlar berilgan boshqa bir qator mualliflarning kitoblarini kiritish mumkin. shular orqali, biz Navoiy hayoti va faoliyatini uning hayotga, insonga, vatanga va uning ona-tabiatga bo'lgan, shuningdek, so'z san'atiga, badiiy ijodga bo'lgan qaynoq muhabbatini, umuman, shaklu shamoilini to'la tasavvur etamiz.

Navoiyning bolalik va o'smirlik yillari, Navoiy Samarqandda

Alisher navoiy 1441 yil 9 fevralda hirot shahrida tug'ildi. uning otasi g'iyosiddin kichkina va bir necha qarindoshlari temuriylar saroyiga yaqin amaldorlardan edi. Alisher go'dakligidan temuriy shahzodalar bilan birga tarbiyalandi. 1447 yili, ya'ni shohruh mirzo vafotidan keyin nihoyatda keskinlashib ketadi. natijada ko'plab hirotliklar tinch o'lkalarga bosh olib ketishga majbur bo'ladilar. Alisherlar xonadoni ham iroqqa ko'chib, taft shahrida yashay boshlaydi. u yerda yosh Alisher mashhur tarixchi sharafiddin Ali yazdiy bilan uchrashadi. Oradan 2-3 yil o'tib, Navoiy hirotida o'qishini davom ettiradi. barcha shart-sharoitlarni yaratib berdilar. davrining mashhur musiqa ustasi Xoja Yusuf Burxondan musiqa ilmini o'rganadi, tarix, adabiyot, husnixat va boshqa sohalar bilan jiddiy shug'ullana boshladi. 12-13 yoshlaridayoq o'zi ham yaxshi

she`rlar yozardi... Navoiy taxminan 18-19 yoshlarida Abdurahmon jomiy bilan tanishadi. Abusaid zamonida shoir "hirotin samarqandga ixroj (surgun) qildi" (Bobur. "Boburnoma"). Samarqandda shoir va ilm tahsiliga kirishdi. samarqand madrasalariga qatnay boshlagan Navoiy ilm-fan, san`at va madaniyat ahli bilan yaqinlashdi va bilim saviyasi, is`tedodu qobiliyat, xulqu odobi bilan tez orada samarqand ahlining e`tiborini qozondi. Favoiiy taxallusi bilan she`rlar bitgan samarqand hokimi, ma`rifatparvar Ahmad Xojibek, Samarqand Akobirlaridan Fazlulloh Abullays va boshqalar navoiyga homiylik qila boshladilar. fayzulloh Abulays navoiyga mudarrislik qiladi va uni o`ziga farzand deb hisoblaydi. Samarqand markaziy Osiyoning yirik madaniy shaharlaridan edi. Shoir bu yerda o`z bilimini boyitdi, ko`plab iste`dodli shoir va olimlar bilan muloqotda bo`ldi.

1469 yili Husayn Boyqaro taxtga o`tirgach, uning taklifi bilan hirotga qaytdi.

Navoiyning obodonchilik sohasidagi ishlari

Navoiyning obodonchilik sohasida amalga oshirgan ishlari haqida "Vaqfiya" asarida batafsil ma`lumot beradi. Navoiy hirotning shuhratini dunyoga yoygan binolardan biri "Ixlosiya" madrasasini qurdirdi. Shu madrasa janubida "Xalosiya" nomli katta xonaqoh barpo etdi. Madrasaning g`arbida "Shifoiya" nomli bino qurilib, u yerda mashhur tabiblarni to`pladi. Masjidi jome` yonida "dorul-huffoz" ("qorilar uyi") gumbazi qad rostladi. Bulardan tashqari, Navoiy hirotning ichida "Nizomiya", Marvda "Xusraviya" nomli madrasalar qurdirgan. Hirot va boshqa shaharlarda 10dan ortiq xonaqoh, 20dan ortiq masjid qurilgan. Navoiyning qurilish ishlari butun Xuroson va uning shaharlarida olib boriladi. Navoiyning ixtiyoridagi mablag`lar hisobiga qurilgan binolarning soni ba`zi manbalarda uch yuzdan ortiq, deb ko`rsatiladi.

Navoiy asarlarining yaratilishi haqida umumiy ma`lumot

Alisher Navoiy, eng avvalo, ulug` lirik shoir. u bolaligidan umrining oxirigacha lirik she`rlar bitdi, o`zidan boy lirik meros ioldirdi.

Alisher Navoiy adabiy merosi o`z ichiga lirik, epik va ilmiy nasriy asarlarni oladi. 1465 yili Navoiy muxlislari uning she`rlarini jamlab, devon tuzadilar. U fanda "Ilk devon" nomini olgan. 1470-1476 -yillar orasida shoir "Badoe` ul-bidoya" ("Badiiylik ibtidosi") devonini tuzdi. "Badoyiul-bidoya" 842 she`rdan tashkil topgan. Unda 585 g`azal, 3 mustazod, 4 muxammas, 2 musaddas, 3 tarkibband, 46 fard mavjud. 1476 – 1483- yillar oralig`ida shoir faqat g`azallardan tartiblangan ikkinchi devoni "Navodir un-nihoya" ("Behad nodirliklar")ni tuzdi. Navoiy 1491 – 1498- yillar mobaynida maxsus to`rt devondan tashkil topgan lirik kulliyot - "Xazoyinul-maoniy" ("Ma`nolar xazinasasi") ni tartibladi.

Navoiy buyuk epik shoir-dostonnavis ham. Lirikada katta ijodiy tajriba trplagan shoir qisqa muddat ichida – 1483 – 1485 -yillari 51 misradan ortiq besh dostonni yaratdi. Ular "Xamsa" tarkibidagi besh doston: "Hayrat ul-abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab`ai Sayyor" va "Saddi Iskandariy" dir. 1501 yili "Lison ut-tayr" dostoni yozildi shoirning o`ndan ortiq ilmiy-nasriy asarlari mavjud.(5-ilovaga qarang).

Navoiyning o`ndan ortiq nasriy va ilmiy-nasriy asarlari katta shuhrat topdi. Ular: Navoiyning memuar-biografik xarakterdagi asarlari – "Holoti Sayyid Hasan

Ardasher”, “Holoti Pahlavon Muhammad”, “Xamsat ul-mutahayyirin”; ilmiy-filologik xarakterdagi asarlar – “Majolis un-nafois”, “Mezon ul-avzon”, “Mufradot”, “Muhokamat ul-lug`atayn”; tarixiy va diniy-falsafiy mavzuda bitilgan asarlar – “Tarixi muluki Ajam”, “Nasoyim ul-muhabbat”, “Tarixi anbiyo va hukamo”, “Vaqfiya” epistolyar xarakterdagi “Munshaot” asarlaridir.

Navoiy hayoti va ijodi bo‘yicha o‘tilayotgan mavzuda quyidagi jadvallardan foydalanish mumkin.

Xronologik jadval.

Muhim sanalar.

1441-yil 9-fevral	Alisher Hirot shahrida tug`ildi
1447-yil	Alisher oilasining Xurosondan Iroqqa ko‘chishi
1457-yil	Abulqosim Boburning Mashhadda vafoti. Navoiy Mashhadda qoldi
1464-yil	Alisher Hirotga qaytdi.
1465-yil	Navoiy Samarqandda
1469-yil	Husayn Boyqaro taxga o‘tirdi. Navoiyni muhrdorlik lavozimiga tayinladi.
1472-yil	Navoiy vazirlikka tayinlandi.
1487-yil	Navoiy Astrobotga hokim etib tayinlandi.
1488-yil	Navoiyning Hirotga qaytishi
1501-yil	3-yanvar Navoiyning vafoti

O‘quvchi va o‘qituvchi hamkorligida izohlar beriladi. Lug‘at so‘zlar doskaga yozib boriladi.

(O‘quvchilar daftarga)

Navo-kuy, ohang

Fano-o‘tkinchi, vaqtincha

Ash‘or-she‘rlar

Misra-qator

Bayt-2 misra

Devon-to‘plam

Zullisonayn- 2 tillilik

A.Navoiy hayoti va ijodi yoritilgan albom ko‘rsatiladi, so‘ng har bir guruh o‘z xotirasini sinash maqsadida al‘bomda ketma-ketlik asosida ko‘rganlari bo‘yicha matn tuzadilar.

Masalan: 3-tasvir. XV-XVI asrlar mashvarati, ya’ni she’riy majlis. Shuarolar o‘z o‘rinlarini egallaydilar.

Sozandalar qo‘lida tanbur. Bog‘da bazm avjida. Navoiy to‘rda.

Rasmlar asosida mushoira davrasi kichik sahna tayyorlanadi. (Mumtoz adabiyotlar namunalaridan ifodali o‘qiladi)

O‘qituvchi bilan birgalikda izoh beriladi.

O'qituvchi ball-belgili kartochkalar bilan baholab boradi. Doira –“5”, to'rtburchak- “4”, uchburchak-“3”

Vidiol glaz orqali ekranda boshqotirma ko'rsatiladi va mustaqil ish sifatida daftarga yozib, echiladi.

Navoiy asarlarida tasavvuf ilmi haqida suhbat qilinadi.

B o s h q o t i r m a Aruz vaznidagi she'riy misralar nomini toping.

M

a	s	n	a	v	i	y
u	s	a	l	l	a	s
u	r	a	b	b	a	
u	x	a	m	m	a	s
u	s	a	d	d	a	s
u	s	a	b	b	a	
u	s	a	m	m	a	

ikkilik
uchlik
to'rtlik
beshlik
oltilik
ettilik
sakkizlik

Dars xulosasi:

Dars A.Navoiy buyukligini, she'riyat mulkining sultoni, ulug' insoniylik fazilatlari aks etgan rivoyatlardan birining qisqacha bayoni bilan xulosalanadi.

(“Maktabdosh do'st”, “Bilimdon”, “Mir Alisher Navoiy”, “Sevgi dorisi”, “Mushoira” va boshqa rivoyatlardan)

Masalan, «Ari» rivoyatida shunday hikoyat qilinadi.

Alisher Husayn bilan birga o'ynagan, do'st bo'lishgan. Bir kun hovlida o'yin vaqtida ular oldiga ari uchib keladi. Husayn arini o'ldiradi. Alisher esariga achinib, uzoq vaqt xomush yuradi. Ro'rinadiki, Husaynda shohlikka, Alisherga esa mazlum xalqqa yonbosish ustun bo'ladi.

Uyga vazifa: Navoiy hayoti va ijodiga doir ma'lumotlar to'plash, g'azallaridan yod olish. “Xamsa” asarini o'qish.

Alisher Navoiy dostonlari.

1483-1485	"Xamsa" (beshlik) 51230 misra, besh dostonidan iborat.	
1483	1."Hayrutul abror" ("Yaxshi kishilarning hayratlanishi")	Falsafiy-ta'limiy
1484	2"Farhod va Shirin"	Ishqiy-qahramonlik

	3. "Layli va Majnun" 4. "Sab' ai sayyor" ("Etti sayyora")	Ishqiy-romantik Ishqiy sarguzasht
1485	5. "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori")	Qahramonlik dostoni
1498-1499	"Lison ut-tayr" ("Qush tili")	Falsafiy doston

Adabiyotlar ro'yxati

1. Mumtoz adabiyot namunalari. 1-jild. nashrga tayyorlovchilar H.Boltaboev, V.Rahmonov. – T: O'zmu nashriyoti, 2002.
2. Vohidov R., Eshonqulov H. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi. – T., 2006.
3. N.Komilov. Xizr chashmasi. – t., 2005.
4. N.M.Mallayev . O'zbek adabiyoti tarixi" 1- kitob. –t.1976.
5. O'zbek adabiyoti tarixi. –T.: Fan, 5 tomlik, 2-tom, 1972.

17- MODUL: JADIDCHILIK VA YANGI DAVR ADABIYOTIGA OID MA'LUMOTLARNI INTERAKTIV SINIF DOSKASI YORDAMIDA O'RGANISH.

REJA:

1. Jadidlar ijodini o'rgansishda interaktiv doska imkoniyatlari.
2. O'quvchilar bilimini nazorat qilishda interaktiv doskadan foydalanish.

Tayanch so'z va iboralar:

Interaktiv o'zaro aloqa – elektron pochta, e'lonlar elektron doskasi, onlayn mavzuli muhokamalar, chat, audioanjuman, videoanjuman, ma'lumotlar va fayllar bilan almashinish, umumiy tarmoq ilovasi va boshqalarni o'z ichiga olgan kompyuter bilan o'zaro aloqa qilish, «inson-mashina» muloqoti.

Interaktiv o'quv kurslari – o'zaro muloqot asosiga qurilgan vositalardan foydalanib tuzilgan kurslar.

Elektron interfaol doska va uning turlari

Elektron interfaol doska



Elektron interfaol doska (Interactive whiteboard) bu – ta'lim berishning zamonaviy vositasi bo'lib, kompyuter va proektordan iborat majmua tarkibida ishlaydi. Kompyuterning ishchi stolidagi tasvirlar proektor

yordamida interfaol doska yuzasiga tushiriladi. Bunda doska yuzasiga tushirilgan tasvirlar bilan interfaol usulda ishlash mumkin, ya'ni kompyuterning grafik interfeysini sensorli boshqarish, turli ob'ektlarni yaratish, oldin yaratilgan ob'ektlarni ochish, ularga tegishli o'zgartirishlar kiritish va h.k. Kiritilgan barcha o'zgartirishlar va yaratilgan yangi ob'ektlarni, ularga kelgusida qo'shimcha ishlov berish uchun kompyuter xotirasiga yozib qo'yish yoki tashqi axborot tashuvchi vositalarga ko'chirib olish mumkin.



Elektron interfaol doska (EID) maxsus elektron qalam (stilus, marker) orqali, shuningdek qo'l barmoqlari bilan ham boshqarilishi mumkin (bu interfaol doskaning qaysi texnologiyalardan foydalanib ishlab chiqilganligiga bog'liq bo'ladi). Bunda, interfaol doska va kompyuter o'rtasida ikki tomonlama aloqa o'rnatiladi, maxsus qalam (stilus, marker) yoki qo'l barmoqlari esa sichqoncha kabi ishlaydi.

EID darslarni yanada qiziqarli va ko'rgazmali tarzda o'tishga keng imkoniyatlar yaratadi. Mazkur doska yordamida o'qituvchi interfaol ta'lim resurslarni namoyish etishi, mustaqil ravishda dars ishlanmalarini tayyorlashi va o'quvchilarni doska bilan ishlashga faol jalb etish orqali darslarni yanada mazmunli va qiziqarli tashkil etishi mumkin. Interfaol doska yordamida bajarilayotgan barcha amallar tegishli fayllarda xotiraga olinishi va o'tilayotgan darsga tayyor elektron material sifatida o'quvchilarga tarqatib berilishi mumkin. Interfaol doskalarining dasturiy ta'minoti o'quvchilarni dars jarayoniga yanada faolroq jalb etadigan va yangi mavzu bo'yicha bilimlarni tezroq o'zlashtirishga yordam beradigan noyob usulubiy materiallarni yaratish imoniyatini beradi.

Elektron interfaol doska turlari

EIDlar proektorning o'rnatilishiga qarab to'g'ri proektsiyali va teskari proektsiyali doskalarga ajratiladi. To'g'ri proektsiyali EIDda proektor doskaning oldi tarafida bo'ladi, teskari proektsiyali EIDlarda esa - doskaning orqa tarafida bo'ladi.

Aksariyat EIDlar – to'g'ri proektsiyali doskalardir. Dars jarayonida proektor nurlari o'qituvchi va o'quvchilarga xalaqit bermasliklari uchun, bunday EIDlar bilan ishlashda, maxsus mustaxkamlovchi vositalar yordamida bevosita doska oldiga (tepasiga) o'rnatiladigan ultraqisqafokusli proektorlardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ulanish usuliga qarab EIDlar simli (faol) va simsiz (passiv) interfaol doskalarga ajratiladi. Faol interfaol doskalar kompyuter va ozuqa manbaalariga simlar orqali ulanadi. Passiv interfaol doskalarda esa xech qanday simlar bo'lmaydi va ularni

ozuqa manbaalariga, kompyuterga va poroektorga ulash talab etilmaydi.

Ishlash printsipiga ko'ra EIDlar "yumshoq" va "qattiq" elektron doskalarga ajratiladi:

"yumshoq" EIDlarda maxsus stilus yoki qo'l barmoqlari yordamida ishlash mumkin;

"qattiq" EIDlar esa faqatgina elektron stiluslar yordamida ishlaydi.

Ishlab chiqarish (tayyorlanish) texnologiyalariga ko'ra EIDlar quyidagi turlarga ajratiladi: sensorli, ultratovushli, infraqizil, elektromagnitli, mikronuqtali.

Sensorli interfaol doskalar

Sensorli interfaol doskalarda rezistiv matritsa – ya'ni interfaol doskaning plastik yuzasiga montaj qilingan, juda xam ingichka simlardan to'qilgan va qatlamlari orasida xavo bo'shlig'i mavjud bo'lgan ikki qatlamli sim to'r ishlatiladi. Doska yuzasiga tushirigan bosim oqibatida birinchi qatlam to'r simlari ikkinchi qatlam to'r simari bilan to'qnashadi. Sensorli texnologiyaga asoslangan interfaol doskalar, kompyuter sichqonchasing tugmasini bosish orqali ta'sir ko'rsatilgani kabi qo'l barmoqlari (yoki har qanday boshqa predmet) bilan doska yuzasiga tegish orqali ta'sir ko'rsatish amallariga javoban tegishli munosabat bildiradi.

Ushbu texnologiya maxsus elektron markerlardan foylanishni talab qilmaydi, ish jarayonida hech qanday nurlanishlardan foydalanilmaydi va tashqi to'siqlarga chidamli. Mazkur texnologiyaning kamchiliklariga quyidagilar kiradi – doska yuzasida barmoq yoki marker bilan tez xarakat qilinganda rezistiv matritsaning reaksiyasi biroz kechikadi, shuningdek, doska yuzasiga osonlik bilan zarar yetkazilishi mumkin.

Infraqizil va ultratovushli interfaol doskalar

Mazkur interfaol elektron doskalarda marker (stilus) xolatini aniqlash uchun infraqizil yoki ultratovushli datchiklardan foydalaniladi. Ayrim xolatlarda bunday datchiklar o'rniga marker (stilus)ning joriy xolatini yuqori darajada aniqlay oladigan infraqizil lazerlardan ham foydalaniladi. Infraqizil elektron interfaol doskalarda signallarni qabul qilish va uzatish vazifasini bajaruvchi infraqizil uskunalardan foydalaniladi, bunda interfaol doska yuzasida gorizontal va vertikal chiziqlardan iborat ko'zga ko'rinmas to'r paydo bo'ladi. Interfaol doska yuzasiga elektron marker tekkazilganda infraqizil nur yo'li berkitiladi va datchikga signal yetib bormaydi. Shunday qilib, marker bilan elektron doska yuzasiga ta'sir ko'rsatilgan nuqta koordinatalari aniqlanadi va keyingi ishlov berish uchun kompyuterga uzatiladi. Infraqizil elektron doska yuzasi qattiq antivandal qatlam bilan qoplangan bo'lib, unda marker bilan ham, qo'l barmoqlari bilan ham ishlash mumkin.

Elektromagnitli interfaol doskalar

Elektromagnitli interfaol doskalarda elektromagnit to'liqlarining izolyatsion materiallar orasidan o'tish hususiyatiga asoslangan texnologiyadan foydalanilgan. Elektromagnit to'liqlarini uzatish vositasi sifatida "elektron stilus" yoki "elektron marker" deb ataluvchi maxsus elektron qalamdan foydalaniladi.

Ushbu elektron qalam bilan interfaol doska ustiga chizilganda, qalam uchi tekkan joyda elektromagnit to'liqlari yuzaga keladi. Yuzaga kelgan elektromagnit to'liqlari doskaning X-Y koordinata simlari orqali qabul qilinadi. qabul qilingan axborotlar kompyuterga uzatilib tahlil qilinadi va elektron marker ta'sir etgan nuqtalarning koordinatalari hisoblanadi, axborotlarga ishlovlar berilib tegishli amallarning ijrosi ta'minlanadi.

Elektromagnitli interfaol doska ham infraqizil elektron doska yuzasi kabi qattiq anivandal qoplama ega, lekin bunday doskada qo'l barmoqlari bilan ishlash imkoniyati mavjud emas.

Mikronuqtali interfaol doskalar

Bunday interfaol doska yuzasiga maxsus tarzda, mikronuqtalardan tarkib topgan, ko'zga ko'rinmas koordinatali to'r tushirilgan. Aynan mazkur mikronuqtalarning o'zaro joylashishi elektron stilusga o'rnatilgan infraqizil datchik tomonidan noyob koordinata sifatida qabul qilinadi.

Mikronuqtali texnologiya asosida ishlab chiqilgan bunday elektron interfaol doskalar kompyuterga yoki tarmoqqa ulanishni talab etmaydi. Barcha ma'lumotlar interfaol doska tarkibiga kiruvchi elektron stilusga joylashtirilgan Bluetooth-o'zatgich yordamida kompyuterga uzatiladi va ularga tegishli ishlov beriladi.

Interfaol doskaning qattiq mustahkam yuzasi va unda elektronika uskunalarining mavjud emasligi ushbu doskani haqiqatdan ham juda chidamli (antivandal) qiladi.

Sensorli, elektromagnitli, ultratovushli va infraqizil texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol daskalar kompyuterga va ozuqa manbaalariga elektr simlari orqali ulanadi.

Elektromagnitli va mikronuqtali texnologiyalar asosida yaratilgan elektron interfaol doskalarda faqat maxsus stiluslar bilan ishlash mumkin.

Sensorli, ultratovushli va infraqizil texnologiyalar asosida yaratilgan interfaol daskalarda esa maxsus stilus bilan bir qatorda boshqa predmetlar, masalan qo'l barmoqlari bilan ham ishlash imkoniyatlari mavjud.

Interfaol qurilmalar



Interfaol qurilmalar shunday uskunaki, ular yordamida xoxlagan doskani yoki boshqa tekis yuzani interfaol proektsion ekranga aylantirish mumkin. Buning uchun mazkur qurilmani doska chetiga mustahkamlab kompyuter va proektorni ishga tushirish zarur bo'ladi.

Interfaol displeylar



Interfaol LCD-displeylar o'zida suyuqkristalli panel va axborotlarni kiritish qurilmasini mujassam etgan bo'lib, butun jarayonni maksimal tezkor boshqarish uchun yaratilgan. Bunda sichqonchani ulamasdan, qo'l barmoqlari yordamida kursorni boshqarish va fayllar yoki operatsion tizim bilan xoxlagan amallarni bajarish mumkin.

Ularning ishlash printsipti optik-sensorli texnologiyaga asoslangan. Interfaol LCD-displey burchaklarida joylashgan infraqizil datchiklar va maxsus kameralar ekran yuzasiga keltirilayotgan barmoq yoki boshqa predmetning ta'sir etish nuqtasi koordinatalarini aniqlaydi va unga mos ravishda kursor xarakatini muvofiqlashtiradi.

Interfaol displeylarning turli modellari bir vaqtning o'zida 2 tadan 10 tagacha bo'lgan ta'sir nuqtalarini aniqlashligi va qabul qilingan axborotlarga tegishli ravishda ishlov berishligi mumkin. Buning hisobiga foydalanuvchi nafaqat kursorni boshqarish, balki, bir vaqtning o'zida birnecha barmoqlarini ishga solib ob'ekt ustida ayrim amallarni ham bajarish imkoniyatini qo'lga kiritadi. Masalan, barmoqlarni ekran ustida bir biriga yaqinlashtirib tasvirning o'lchamini kichraytirish, yoki aksincha – kattalashtirish va boshqa turli amallarni bajarish mumkin.

Displeylar uchun interfaol qoplamalar



Interfaol qoplamalar plazmali va suyuqkristalli displeylarning ko'rkam tashqi ko'rinishi va tasvirlarining a'lo darajadagi sifatlarini saqlagan xolda ularni katta sensorli ekranlarga aylantiradi. Bunday qoplamalardan foydalanish sohasi juda ham keng: korporativ majlislar zali, o'quv auditorialari, savdo markazlari, transport terminallari, ko'rgazma zallari va h.k.

Interfaol qoplama datchiklari xoxlagan predmet bilan, ya'ni qalam, stilus yoki qo'l barmoqlari bilan ekranga ta'sir etilgan (tekkazilgan) xolatlarni sezadi va aniqlaydi.

Tegishli kalibrovka amalga oshirilgach, keyinchalik boshqa sozlash ishlari va servis xizmat ko'rsatish talab etilmaydi. Bu maqola saytda chop etilgan Eduportal.Uz (<http://eduportal.uz>) Ushbu maqola URL i: <http://eduportal.uz/uzb/article1533.html>

Mavzu: M. Behbudiyning hayoti va ijodi. "Padarkush" drammasi.

Darsning maqsadlari.

- a) Ta'limiy: Mavzuga doir ilmiy ma'lumotlarni o'quvchilarga etkazish.
- b) Tarbiyaviy: Estetik tarbiya bu orqali har bir o'quvchi badiiy-estetik qimmati bilan birga tarbiyaviy-ma'rifiy tomonlarini o'rganish.
- c) Rivojlantirish: Mavzu mohiyatidan kelib chiqib ish hayot bilan bog'lash.

V. Darsning turi: Aralash.

VI. Darsning metodi: Ana'naviy

VII. Fanlararo bog'lash: Ona tili, tarix, davlat tilida ish yuritish.

VIII. Qo'shimcha adabiyotlar: O'zbek adabiyoti kitobi, gazeta va jurnallar. Adabiyot o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi.

IX. Darsni jihozlash. Kadaskop, kichik test, kartatekalar, shoir portreti.

X. Darsning elementlari.

1. Tashkiliy qism: O'quvchilarni va sinfni darsga tayyorgarligi
2. Yu vazifasini so'rash.
3. Fikrlarni jamlash, o'quvchilardan o'tilgan mavzunu so'rash.
4. Yangi mavzu bayoni.
 - a) Behbudiy ma'rifatparvarligi nimada
 - b) XX asr o'zbek adabiyoti va madaniyati tarixida Behbudiy roli.
 - d) Drammaning asosiy g'oyasi va ahamiyati.

M. Behbudiy 1875 -yilda Samarqanda tug'ildi. U yoshligidanoq arab, fors, turk tillarini mukammal o'rgandi. Bolalikda unga tog'alari – muftiy Odilqori va qozi Muhammad Sidiqning ta'siri kuchli bo'ldi. Muhammadxo'ja qozi tog'asi yonida mirzolik qildi. O'z davrining peshqadam gazetasi "Tarjimonni" muttasil o'qib bordi. Voyaga etgach o'zining ham muftiy darajasiga ko'tarilishida va faol ijtimoiy-siyosiy ishlar bilan mashg'ul bo'lishda bu muhit katta rol o'ynaydi.

Asr boshida Behbudiy Arabiston va Turkiya safarlarida bo'lishi, Orenburg, Qozon, Moskva, Peterburg sharlariga borishi uning dunyoqarashida chuqur iz qoldirdi. Bu mamlakat va shaharlarda u ta'lim tarbiya maorif sohasiga katta qiziqish bilan qaradi. Turkiston sharoitidan farqlanuvchi maktab, oily ta'lim matbuot, teatr ishlarini, jamiyatni boshqaruv tizimini imkon boricha yaqindan o'rganishga intildi.

Bolalarni millat ehtiyojlariga moslab o'qitishni orzu qilgan Behbudiy Samarqandda bir qator yangi usuldagi maktablar ochadi. Xalqning dunyoqarashi milliy ongini yuksaltirishda matbuotning o'rni nihoyatda muhim ekanini anglab, "Samarqand" gazetasi va "Ouna" jurnalini nashr etishda bosh-qosh bo'ladi.

U o'zbek drammaturgiyasining asoschisidir.

Behbudiy o'zbek yozuvchilari ichida birinchilardan bo'lib 1911-yilda

“Padarkush” drammasini yozdi. U haqli ravishda o‘zbek matbuoti pedagogikasining asoschisi sanaladi/ zero, “Zarafshon” gazetasi 1922-yilda Behbudiyning “ Hashri maorif to‘risida vatanimizning birinchi qahramoni deyishi bejiz emas.

Yoshlarni Rossiya, Yevropaning markaziy shaharlariga, Arabiston va Turkiyaning mashhur oily o‘quv yurtlariga yuborib o‘qitish kerak, deydi Behbudiy.

Shundagina Turkiston qoloqlikdan qutula oladi.

Agar diqqat bilan e‘tibor bersa, Behbudiy bundan sal kam yuz yil avval aytgan bu fikrlar xuddi bugun aytilganday jaranglab turibdi. Zero, bu masalalar hozir ham o‘zining dolzarbligini yoqotgan emas.

Behbudiy uzoqni ko‘ra biluvchi, xalq hayotini dardini chuqur anglay oluvchi uning og‘irini engil qilishni hayotining mazmuni deb bilgan arbob edi.

Masalan, “Buxoro xonligiga cayyohat” (1912) nomli publisistik maqolasida u kelgusida, shubhasiz, Kattaqo‘rg‘on, Jizzax, Samarqand atrofidagi erlarni o‘zlashtirish kerakligini aytadi.

Behbudiy Turkistondagi jadidchilik harakatining rahbaridir. U jadidlar dasturining asoslarini tuzdi va matbuotda e‘lon qiladi. Behbudiy haqiqatdan ham dono kishi edi. Zero, uning bashorati to‘ri chiqqanini tarix ko‘rsatdi.

Xalq erki, huquqi mustaqilligi o‘z-o‘zidan emas, kurashda qo‘lga kiritilishi mumkinligi Behbudiy yaxshi bilar edi.

Behbudiy qarashlarida, ayniqsa, jamiyatiga taraqqiyotiga to‘sqinlik qilib kelayotgan eskicha urf-odatlarini aqidalarni isloh qilish takliflari Islom axloqini mustahkamlash g‘oyalari bilan chirmashib ketadi.

Xalqi, vatani uchun fidoiylarcha yashagan, mehnat qilgan Behbudiyning umri, hayoti ham mohiyat e‘tibori bilan shu xalq, shu vatan uchun fido bo‘ldi. U 1919- yilning bahorida Buxoro amrining Sharisabzdagi kishilari tomonidan xibsga olinadi va sho‘roning ayg‘oqchisi, jadid sho‘roga sotilgan, degan ayblar bilan Qarshi shahrida qatl etiladi.

“Agar bizning hayotimiz hurriyat va xalq baxt saodati uchun qurbonlik sifatida kerak bo‘lsa, biz o‘limni ham xursandchilik bilan kutib olamiz,” degan edi Behbudiy vasiyatnomasida.

O‘z davrining Fitrat, Cho‘lpon, Ayniy singari san’atkorlari Behbudiy o‘limiga marsiyalar bagishladilar.

Ayniy Behbudiyga bag‘ishlangan marsiyasida (1920) shunday deb yozgan edi.

Saning tarixi davroning, saning osori urfoning,

Saning noming, saning shoning jahon qoldiqcha qolmasmi?

Vatan avlodi yod etdi, sani hurmatda shod etdi,

Va lekin imtiqomingni ololurmi, ololmasmu?

Ayrim she‘riy marsiyalardan tashqari Behbudiyga bagishlangan katta janrdagi asarlari ham paydo bo‘ldi. Masalan, drammaturg Hojimud bu alloma qatl etilishi voqeasini markazda qoygan holda “Maorif qurbonlari” nomli pesa yozdi,

Biroq, ko‘p o‘tmay, mudhish davrlar boshlandi. Behbudiyga ashaddiy millatchi, sosializm dushmani tamg‘asi yopishtirildi. Uzoq yillar davomida uning nomi faqat salbiy ma‘nolardagina tilga olindi.

Mustaqillik davrga kelib Behbudiyga adolatli, haqqoniy munosabat boshlandi. Uning o'zbek xalqi tarixidagi orni, nomi tiklandi. Badiiy asarlari publisistik maqolalari chop etladigan boldi.

Beybudiy hayoti va ijodi haqidagi ushbu mujohazalar ham kop yillardan song davr sharofati bilan paydo bolgan dastlabki mushohadalardan biridir. O'zbek xalqining bu buyuk farzandiga kelgusida etibor yanada kuchayishi shubhasizdir.

Behbudiy «Padarkush» drammasini 1911-yilda yozadi, ammo uni nashr yetish oson bo'lmaydi. Asar matbuotda ilk bor «Turon» ro'znomasida 1912- yilda bosildi.

Dramma 1913- yilda kitob hoida o'zbek tilida nashr etildi. Pe'sa tezlikda Turkistonning ko'plab shaharlarida mashhur bo'lib ketdi. Samarqand, Toshkent, Buxoro singari o'nga yaqin shaharda sahnada uynaldi.

Asar 1914- yili Samarqandda «Oina» gazetasi bunday yozgan yedi: «Xalq nihoyat ko'p kelib, bilet yetmagani va joy yo'qligi uchun uch-to'rt yuz kishi qaytib ketdi. Uch so'm berib tikka turmoqqa ham rozilar bo'ldi».

«Padarkush» drammasining asosini ma'rifatparvarlik g'oyasi tashkil etadi. Xalq uqish, ma'rifat, ilm egallash bilangina qoloqlikdan chiqishi mumkin; turmushni yaxshilash natijasida jahonning taraqqiy etgan xalqlari darasiga kutarilishi mumkin.

Jamiyatdagi barcha badbaxtlik, barcha baxtsizlik zamon talab qilayotgan ilmlarni egllamaslik tufaylidir. Jaholat, madaniyatsizlik va boshqa jamiyki ilm ma'rifatda bepisandlik bilan qarashda, demoqchi bo'ladi. Muallif butun asari davomida «Padarkush» drammasi XX asr tongida o'zbek adabiyotida chchuqur iz qoldirdi, shakllanib kelayotgan yosh adiblarda kuchli ta'sir ko'rsatdi. Xususan, Qodiriy «Baxtsiz kuyov» drammasini Behbudiyning «Padarkush» asari ta'sirida yozganini uzi aytgan edi.

«Padarkush» drammasi ayrim kamchiliklardan ham xoli emas edi. Ayniqsa, ayrim qahramonlar harakati, xarakteridagi dalillash san'ati ba'zi urinlarda kuchsiz xususiyat qotillik epizodi sun'iyrok asarda rivoya g'oya doim ham qahramonlari xakteri, hrakatidan emas ko'proq muallif maqsadlarini tezrok ochishda intilishdan kelib chiqadi. Behbudiy bu asarda adabiyotimizda birinchilardan bo'lib, vatanda yashab turib bu vatan qolish muammosini ham ko'rib chiqadi va bu muammoda javob topida harakat qiladi. Bizlarni bewatan qilish mumkin bo'lgan narsa tarbiyasizlik va ilmsizlikdir, deyilar ekan, bu yerda gap qotillik bois uzoq o'lkalarda surgun qilinish va shundan kelib chiqadigan bewatanlik haqida borayotgan bo'lsada Behbudiy talqinida bu fikr anchagina tagzaminga ega ekanini sezib kelish mumkin.

M. Behbudiy birinchi avlodga mansub ziyolilarimizning ko'plariga ustozlik qilgan, ta'sir ko'rsatgan. Atoqli davlat arbobi professional revolyutsioner Fayzulla Xo'jayev Behbudiy talanti va qobiliyatiga, bilim doirasini kengligiga tan berib yozgan edi. «Buxoro va Turkiston jadid tashkilotlari tashkilotlari bir qancha qulayliklarga erishish uchun butun kuchlarini sarfladilar. Bu borada Mahmudxo'ja Behbudiy nomini eslamasdan o'tib o'lmaydi. Siyosiy, ijtimoiy faoliyati va bilimining kengligi jihatidan Turkistonning o'sha vaqtdagi jadidlaridan unga teng kela oladigan kishisi bo'lmasa kerak».

Guliston jurnali №10.1998 yil S.Ayniy “Qatl etilgan adib”. Adib portreti, tarqatma materiallar, kadaskop, materiallar.

18- MODUL: ISTIQLOL DAVRI ADABIYOTIGA BAG‘ISHLANGAN VIDEOKONFERENSIYA

REJA:

1. Adabiyot darslariga oid videokonferensiyani loyihalashtirish, rejalashtirish va boshqarish jarayoni.
2. Istiqlol davri adabiy ta’limida masofaviy ta’limning o’rni
3. Internetdan ta’lim jarayonida foydalanishdagi ba’zi muammolar
4. Videokonferentsiya
5. Videokonferentsiyani tashkil etish uchun qanday qurilmalar kerak?
6. Videokonferentsiya respublikamizda tashkil etilganmi?
7. Elektron konferentsiyalar. Telekonferentsaloqa

Tayanch so‘z va iboralar: telekonferentsaloqa, videotelefon, videotasvir, multimediali proektorlar va monitorlar, modem, kolonka, mikrofon, videokamera, vebkamera.

Telekonferentsiya Telekonferentsiya (teleconferencing) – ikki va undan ortiq guruh qatnashchilarining o‘zaro muloqotini tashkil etish uchun elektron aloqa kanallaridan foydalanish jarayonidir. Mavzuli fikr almashishlar moderator tomonidan boshqariladi. Telekonferentsiya jarayonida ovoz, tasvir yoki kompyuter ma’lumotlari uzatiladi. Telekonferentsiyaga jo‘natilgan xabar uning barcha qatnashchilariga yetkaziladi, ya’ni muloqot bir stol atrofidagi muloqot jarayoniga o‘xshaydi. *Telekonferentsiya o‘zida audiokonferentsiya* (audioconferencing), *videokonferentsiya* (videoconferencing) va *kompyuter konferentsiyalari* (computerconferencing) kabi texnologiyalarni mujassamlashtiradi. Hozirda kompyuter texnologiyalarining taraqqiyoti interfaol telekommunikatsiya texnologiyalarining yangi texnik imkoniyatlari videokonferentsiya va audiokonferentsiya kabi texnologiyalarning rivojlanishiga olib keldi. Interfaol masofaviy o‘qitish tizimining joriy etilishi videokonferentsiya texnologiyalari bilan hamohang ravishda istalgan masofada sinxron axborotlar almashinuvini ta’minlaydi. Hozirda fanlarni kompyuterlardan foydalanib o‘qitish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlaridan o‘quvchilarni shaxsga yo‘naltirilgan rivojlanishini, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali foydalanish mumkin. Pedagoglar kompyuterdan darsga metodik materiallarni tayyorlashdagina emas, balki fanni o‘qitishda zarur

kompyuter dasturlaridan foydalanishda, o'quvchilar bilan individual ishlash jarayonida ham foydalanadilar. Kompyuter dasturiy vositalariga kiritilgan interfeysning qulayligi, pedagoglarga yangi axborot texnologiyalarini yaxshi o'zlashtirishlari imkonini yaratadi. Bu bilimlarni uzatishda, malaka va ko'nikmalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega.

Kompyuter texnologiyalarining o'quv jarayonida asosli qo'llashning yana bir muhim jihati, real jarayonlar va eksperimentlarning kompyuter modelini yaratish bilan aloqadorligidir. Kompyuter yordamida ma'lumotlarni qayta ishlash, model va natijalarning namoyishi, ko'p hollarda, qimmat turadigan eksperimental qurilmalarga bo'lgan ehtiyojni o'rnini bosadi, ayrim hollarda (atom va kvant fizika, yarim o'tkazgichlar, kimyo, biologiya, tibbiyot va boshqa fanlardagi jarayonlarni modellashtirish) jarayonni namoyish etishning yagona usuli sanaladi. **Internetdan ta'lim jarayonida foydalanishdagi ba'zi muammolar** Internetdan ta'lim jarayonida foydalanish ba'zi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Internetdagi axborotlar hajmining juda kattaligi, umumiy tuzilmaning yo'qligi axborot qidirishni qiyinlashtiradi. Zarur axborotni qidirish jarayonida nazoratsiz tinglovchi noma'lum saytlarga (chat, anekdot, o'yinlar) kirib asosiy maqsaddan chetga chiqishi mumkin. Ta'lim sifatining oshishi tinglovchilarga yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini berish orqaligina emas, balki bunday texnologiyalar o'qish jarayonida qanday metodlardan foydalanishiga bog'liq. SHuning uchun o'qituvchining nazoratsiz o'qish jarayonini tashkil etish samara bermaydi. O'qituvchi nazoratini tashkil etishda INTERNET-muloqot bahslarida ishtirok qilgani uchun tinglovchini avvaldan e'lon qilingan rag'batlantirish tizimi (qo'shimcha ballar) samarali bo'ladi. Bunda tinglovchilarning o'zlari ham bahslar mavzularini taklif etishlari mumkin.

Videokonferentsiya Ta'lim tizimini isloh qilishdagi asosiy vazifalardan biri, Kadrlar tayorlash milliy dasturida ham ta'kidlanganidek, ta'lim tizimini zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari bilan ta'minlashga katta e'tibor qaratilgan; ta'lim tizimining barcha darajalarini to'liq miqiyosida kompyuterlashtirish; ta'lim maskanlarida lokal hisoblash tarmoqlarini tashkil qilish va global tarmoqqa ulash va hokazo. 1998- yilda ishga tushirilgan Trans-Osiyo-Yevropa optik tolali magistrali yordamida, bizning mamlakat ham oxirgi vaqtlarda yuzaga kelgan axborot vaakumidan chiqishga erishdi. Bu optik tolali magistral jahon axborot tizimiga bog'lanish imkonini yaratdi. Bu Respublikamizning shu jumladan Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi muhim omillardan hisoblanadi. Ta'lim tizimini isloh qilishda, rivojlangan mamlakatlarning yirik univesitetlari bilan aloqani mustahkamlash kerak bo'ladi, o'quv jarayonini boshqarish va tashkil etishda ularning ish tajribalarini o'rganish va bu yo'nalishda ilg'or texnologiyalardan foydalanish zarur. Bizning respublikamizda dunyoning etakchi universitetlari professor-o'qituvchilarining ma'ruzalarini eshitishni hohlovchi iste'dodli yoshlar juda ko'pchilikni tashkil etadi. Bunda ularga bu imkoniyatni yaratib berish, etakchi universitet va ilmiy markazlarga o'qitishga, tajriba oshirishga yuborish moliyaviy jihatdan juda katta muammo hisoblanadi. Bunda masofadan o'qitish tizi tizimi muammoni hal qilishda katta yordam beradi va moliyaviy xarajatlarni kamaytiradi. SHunga ko'ra,

Respublikamizda masofaviy o'qitishni video konferentsiya ko'rinishda va boshqa metodlar yordamida o'tkazish kelajagi porloq. 1999-2003 yillarda Toshkent davlat texnika universiteti va Navoiy davlat konchilik institutida Evropa ittifoqining TEMPUS-Tacis dasturi doirasida "O'zbekistonda masofaviy o'qitish" xalqaro ta'lim loyihasi muvaffaqiyatli bajarildi. Ushbu loyihada Yevropa ittifoqidan Gamburg-Xarburg texnika universiteti (Germaniya), Tventi univesiteti (Gollandiya) va Alborg univesitetlari (Daniya) ishtirok etishdi. O'zbekiston va Evropa ittifoqi davlatlari universitetlari hamkorligidagi masofaviy o'qitish loyihasi quyidagi maqsad va vazifalarni bajarishni o'z oldilariga qo'ygan edi:

- Evropa ittifoqi davlatlari universitetlarining yirik olimlari va mutaxassislari oliy ta'lim muammolari haqidagi ma'ruzalarini tashkil qili
- Evropa ittifoqi universitetlari yirik olimlari va mutaxassislari ishtirokida ilmiy va texnik muaommolar haqidagi videokonferetsiyalarni tashkil qilish;
- Seminar darslarini o'tkazish;
- Yig'ilishlar va konferentsiyalar o'tkazish;
- Yangi texnologiyalar va texnik vositalarning taqdimotini va namoyishini o'tkazish;

- Evropa ittifoqi davlatlari va Respublika OO'YU ilmiy-tadqiqot muammolariga bag'ishlangan hisobotlar va montoringlar o'tkazish;

- Innovatsion texnik muammolarni hal qilishda birgalikda ishlash;

Bu loyiha doirasida quyidagi uchta yo'nalish bo'yicha yuqori malakali kadrlarni tayorlash ham ko'zda tutilgandi:

- Telematika (axborot-kommunikatsiya texnologiyalari)

- O'lchov texnikasi

- Kimyo texnologiyalari (gaz va neft mahsulotlarini qayta ishlash)

Bu loyihani ishga tushirish oliy ta'limni isloh qilishga ko'maklashishiga yo'naltirilgan va bu quyidagi muhim ilmiy-amaliy vazifalarni echishga imkoniyat yaratib berdi:

- Ochiq ta'lim kontseptsiyasini qo'llash va ta'lim jarayoni uchun zamonaviy texnologiyalarni sinash va ularni rivojlantirish;

- O'quv jarayoniga innovatsiya texnologiyalarini qo'llash;

- Yangi axborot va kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanilgan holda masofaviy o'qitish tizimini takomillashtirish;

Masofadan videokonferentsiya tizimini qo'llash yordamida interaktiv o'quv darslarini olib borish imkoniyati yaratildi, ya'ni interfaol usulda ma'ruzalarni o'qish, seminarlar tashkil etish, savollarga javoblar va hokazo.

Interfaol forma – masofadan videokonferentsiya o'qitish tizimi, masofadan turib Internet yoki lokal tarmoq orqali o'qitishdan farq qiladi, xuddi radiodan va televideniya dan ma'ruza o'qish kabi. Masofadan videokonferentsiya tizimi – matnli axborotlar almashish, fayllar almashish imkonini beradi. Tashqi elektron doska qo'llashda o'qituvchi doskaga yozadi va bu videokonferentsaloqa ko'magida boshqa auditoriya tinglovchilariga ko'rsatiladi.

Elektron doskadan masofadan o'qitish tizimi foydalanuvchilari bir xil foydalanishlari mumkin, ya'ni bir doskaga chizilgan rasm boshqa auditoriyadagi doskalarda ko'rsatiladi. Dars olib borish jarayonida videokamera avtomat tarzda ma'ruza o'qiyotgan professor, talaba yoki savol beruvchi tomonga buriladi.

Darslarni masofaviy o'qitishning videokonferentsiya tizimidan foydalanish alohida talablar asosida tashkil etiladi. Birinchidan, o'quvchilar uchun ham o'qituvchi uchun ham alohidagi talablar qo'yiladi. Efir vaqtini tejash maqsadida, o'qituvchi avvaldan o'tadigan mavzularini taqdimot materiallar ko'rinishida tayorlab olishi talab etiladi. Masofaviy o'qitishning videokonferentsiya tizimida o'qituvchi o'zini xuddi sahnadagi aktyor kabi his etishi va tinglovchilar ham oldindan darsni o'zlashtirish jarayoniga tayyor turishlari talab etiladi. Tinglovchilarga ma'ruza bilan oldindan tanishib chiqish tavsiya etiladi. Ikkinchidan, masofadan o'qitishning videokonferentsiya tizimi o'rnatilgan auditoriya maxsus jihozlangan bo'lishi kerak: qorong'ulashgan xona, oval formadagi tinglovchilar stoli va terminal kamera qurilmasi to'liq xonani va elektron doskani ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

Masofadan o'qitishning videokonferentsiya tizimidan foydalanish ishtirokchilar uchun axborot almashishda qulaylik yaratadi va ortiqcha xarajatlarni qisqartiradi.

Videokonferentsiya – bu shunday kompyuter texnologiyasiki, u orqali foydalanuvchi shaxslar bir-birlarini real vaqtda ko'radi, eshitadi va ma'lumotlar bilan almashadi.

Videokonferentsiya tarixi 1964-yil AT&T kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan Videophone (real vaqtda ovoz va tasvirni almashish) qurilmasidan boshlanadi.

Videokonferentsiya o'tkazish uchun asosan ikkita shartni bajarish lozim:

- a) videokonferentsiyani amalga oshirish uchun zarur bo'lgan kompyuter (texnik) qurilmalari;
- b) videokonferentsiyani o'tkazish talabiga javob beruvchi aloqa kanallaridan foydalangan holda, muloqotga chiquvchilar bilan bog'lanish.

3.2 rasm. Videokonferentsiya qurilmalari. Videokonferentsiya nima uchun kerak degan savolga quyidagi sabablarni ko'rsatish mumkin. Insonlar kundalik hayotida olayotgan ma'lumotlarni 80-85% ni ko'rish orqali oladi. SHuningdek, boshqaruv ishlari, meditsina, masofaviy ta'lim va boshqa jabhalarda videokonferentsiyani ahamiyati juda muhim. Minglab kilometr masofadagi shaxslarni real vaqtda muloqotini oshirish ham vaqt, ham iqtisodiy tejamkorlikka olib keladi.

Videokonferentsiyani tashkil etish uchun qanday qurilmalar kerak ? Videokonferentsiyani amalga oshirishda ISDN, V.35, E1/T1 aloqa kanallaridan va

IP tarmoqdan foydalaniladi. ISDN aloqa kanali 256-512 kbit/s, IP tarmoq 512-1024 kbit/s tezlikka ega bo'lishi tavsiya etiladi. 200 - 300 kbit/s tezlikda tasvir tiniqligi va almashish o'rtacha holatda bo'ladi. Tasvir va ovozni almashish uchun maxsus videokodeklardan foydalaniladi. Videokodeklar PCI plata sifatida kompyuterga o'rnatiladi. Videokodeklar jo'natilayotgan ma'lumotlarni saqlaydi va kodlaydi, qabul qilayotganda esa asl holatiga qaytaradi. Agar aloqa tezligi past bo'lsa yoki videokodek ma'lumotlarni tahlil qilishda muammolar paydo bo'lsa, u holda tasvirda kadrlar tushib qoladi va ovoz kanalida uzilishlar paydo bo'ladi. Bu qurilmalardan tashqari videokonferentsiyani tashkil etishda quyidagi qurilmalar lozim bo'ladi: 1. **Ko'ptugunli videoservertlar (MCU, Multipoint Control Unit)**. Videoservertlar bir vaqtning o'zida bir necha tugunlarni o'zaro bir biri bilan bog'lab, tasvir va ovozlarni tez uzatishda qo'llaniladi. 3.3 rasm. *Ko'ptugunli videoservertlar*. Videoservertlar asosan ikki holatda ishlaydi: a) ovoz aktivligi bo'yicha - bunda barcha ishtirokchilar bir vaqtda faqat gapirayotgan tomon bilan muloqotda bo'laladi; b) ekran mayda bo'laklarga bo'lingan holda barcha ishtirokchilar bir-birlari bilan muloqotda bo'ladi.

2. **Maxsus videokameralar**. Bu qurilmalar tasvirni uzatish vositasi hisoblanadi. Hozirgi paytda Canon, Genius, Axis, Sony kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan kameralar sifati va imkoniyati jihatidan alohida ajralib turadi. Asosan kameralar vertikal bo'ylab 30 dan 90 gradusgacha, gorizontal bo'ylab deyarli 360 gradus ko'rish chegarasiga ega. RS-232 razyomi orqali ularni kompyuterga ulash bilan birgalikda, kameralar tarmog'ini ham hosil qilish mumkin. Tasvirlar Motion-JPEG formatida bo'lib, sekundiga 30 ta kadr almashiriladi. Foydalanuvchilar bu kameralarni kompyuter orqali yoki masofadan turib boshqarishlari mumkin. Boshqarish jarayonida tasvir tiniqligi, masshtabi, kamerani burish kabi amallarni bajarish mumkin.

3. **Kolonkalar va mikrofonlar**. Kolonkalar ovozni eshitish uchun mo'ljallanib, stereo kolonkalardan foydalaniladi. Kolonkalar quvvati xona kengligiga qarab tanlanadi. Mikrofonlar sifatida yuqori sifatli yakka va tarmoqqa ulangan mikrofonlardan foydalaniladi. Tarmoqqa ulangan mikrofonlar ketma-ketligi umumiy va alohida boshqaruvga ega.

4. **Modemlar**. Modemlar ma'lumotlarni uzatish va qabul qilish vositasi sifatida foydalaniladi. Rad, Linksys, UsRobotics kompaniyalarning IDSL modemlaridan keng foydalaniladi. Modemlar juft holatda maxsus ajratilgan tarmoq orqali aloqani ta'minlaydi.

5. **Multimediali proektorlar va monitorlar**. Bu qurilmalar tasvirni kattalashgan holatda ko'rish imkonini beradi. Bir vaqtda multimediali proektor va monitorlarga oddiy kompyuter monitorini ulashimiz mumkin. Asosan 27 yoki 29 dyuymli monitorlardan foydalaniladi.

Videokonferentsiya tizimini texnik qurilmalar va dasturiy vosita bilan ta'minlovchi VCON, Polycom, RADVision, Avaya kompaniyalari mahsulotlaridan foydalaniladi.

Videokonferentsiya respublikamizda tashkil etilganmi?

Toshkent davlat pedagogika universiteti VCON, Sanon, RADVision kompaniyalari tomonidan ishlab chiqilgan videokonferentsiya qurilmalari va

UZNET provayderi aloqa kanalidan foydalangan holda, respublikamizning bir qancha OTMlari bilan videokonferentsiya aloqasini amalga oshirmoqda. Jumladan, Toshkent axborot texnologiyalari, Moskva davlat universitetining Toshkent shahridagi filiali, Guliston Davlat universiteti, Buxoro oziq-ovqat va engil sanoat instituti, Navoiy davlat konchilik instituti, Toshkent Davlat yuridik instituti kabi OTMlarni misol keltirishimiz mumkin. **Elektron konferentsiyalar.** **Telekonferentsaloqa** Masofaviy ta`limda elektron konferentsiyalar o`rni haqida to`xtalib o`tamiz. Elektron konferentsiyalar (ularni kompyuterli konferentsiya deb ham ataladi) bu kompyuter monitorida bir-biridan turlicha uzoqlikda bo`lgan «konferentsiya» qatnashchilari tomonidan uzatilgan xabar yoki ma`lumotlarning matnini (eng kamida) olish imkonini beradi, bunda ish joyining qurilmalar bilan jihozlanishi elektron pochta kabi bo`ladi. Dasturiy ta`minot elektron konferentsiyadan foydalanish holatiga bog`liq. Yangi axborot texnologiyalarining telekonferentsaloqa va videotelefon vositalari o`qituvchi va talabalar o`rtasida ikki tomonlama aloqani o`rnatish imkonini ta`minlaydi. Bunda bir vaqtning o`zida videotasvirlarning, ovoz va grafiklarning 2 tomonlama uzatilishi amalga oshiriladi. Bularning barchasini mijozning (o`qituvchi va talabalar) har bir monitori ekranida 3ta oynada bir vaqtda kuzatish mumkin. Katta auditoriyada guruhli mashg`ulotlar davomida monitordagi tasvirni katta ekranda suyuq kristalli yoki boshqa proektsiya qurilmalari yordamida namoyish qilish mumkin. Bitta ish joyining qurilmaviy-dasturiy jihozlanish talablari: kompyuter, monitor, printer, videokamera, mos dasturiy ta`minot, klaviatura, manipulyatorli sichqoncha, modem.

Videotelefonlar videokonferentsaloqadan o`lchamning chegaralanganligi va vizual axborotni namoyish etish sifati va kompyuter ilovalarini real vaqtda ishlatish imkoni yo`qligi bilan farq qiladi. Bu sinf yangi axborot texnologiyalarining didaktik xossalari tasvir, ovoz, grafikani real vaqtda uzatish imkoni va talabalarga o`quv maqsadlari uchun ko`rsatish imkonini o`z ichiga oladi. Bu xossalari o`qitishning an`anaviy shaklida tuzilgan ma`ruza, seminar va nazorat tadbirlarini o`quv jarayonida to`la holicha qo`llash imkonini beradi.

Nazorat savollari

1. *Internetdan ta`lim jarayonida foydalanishda qanday muammolar uchraydi?*
2. *Videokonferentsiya nima?*
3. *Videokonferentsiyani tashkil etish uchun qanday qurilmalar kerak?*
4. *Videokonferentsiya respublikamizda tashkil etilganmi?*
5. *Elektron konferentsiya nima?*
6. *Telekonferentsaloqa qanday amalga oshiriladi?*

Foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O`zbekiston Respublikasining "Ta`lim to`g`risida" gi Qonuni. // Barkamol

avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; “SHarq”, 1997, 20-29 betlar.

2. O'zbekiston Respublikasining “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida”gi Qonuni. //Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –Toshkent; “Sharq”, 1997, 31-61 betlar.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002-yil 30-maydagi «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida»gi farmoni.

4. O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002- yil 6- iyundagi 200-sonli «Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish chora–tadbirlari to'g'risida»gi qarori.

5. A.Parpiev, A.Maraximov, R.Hamdamiyov, U.Begimkulov, M.Bekmuradov, N.Tayloqov. Elektron universitet. Masofaviy ta'lim texnologiyalari O'zME davlat ilmiy nashriyoti. -T.: 2008, 196 b.

6. Abdukadirov, Abdukaxxor Abduvakilevich. Masofali ukitish nazariyasi va amaliyoti. monografiya / A. A. Abdukadirov, A. X. Pardaev; red. M. Sodikova. - T. : Uzbekiston respublikasi fanlar Akademiyasi " FAN " nashriyoti, 2009. - 145 s.

19- MODUL: O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI O‘QITUVCHISINING SHAXSIY VA KASBIY AXBOROT MAYDONI

REJA:

1. Filolog o'qituvchining elektron portfoliosi va uning tarkibiy qismlari.
2. Shaxsiy va kasbiy axborot maydonini loyihalashtirish.
3. Elektron portfolio bilan ishlash va uni shakllantirish.

Tayanch so‘z va iboralar: *portfolio, portal, pedagog, monitoring, kasbiy faoliyat, analiz, ma'lumotlar to'plami*

Umumta'lim maktabi o'qituvchisining tadqiqotchilik faoliyati boshlanishida portfolio muhim rol o'ynaydi. **“Portfolio”** italyan tilidan tarjima qilganda “xujjatlar yig'ma jildi, mutaxassis yig'ma jildi”- degan ma'noni beradi. Portfolio bu, asosan, o'qituvchining o'z imkoniyatlarini namoyish qilish uchun mo'ljallangan ishlar to'plami bo'lib, uning asosiy mazmuni – o'qituvchiga barcha imkoniyatlardan foydalanish, uning kasbiy va aqliy o'sishiga ko'maklashishdan iborat.

Portfolioning bir qancha turlari mavjud bo'lib, **birinchi turi** – o'qituvchining erishgan natijalari portfoliosidir. U uch qismdan iborat bo'lishi mumkin: 1. “Hujjatlar”, 2. “Bajarilgan ishlar”, 3. “Bajarilgan ishlar to'g'risida fikrlar”.

Hujjatlar qismiga o'qishdagi va ish jarayonidagi shaxsiy yutuqlari kiradi (yorliq, diplom, sertifikat, guvohnomalar). Bu o'qituvchining erishgan natijalariga baho berish imkoniyatini beradi.

Ishlar qismi – bu o‘qituvchining ijodiy, tadqiqot va loyiha ishlarining to‘plami, uning o‘quv va ijodiy faoliyatining yo‘nalishlari ifodalanadi.

Bajarilgan ishlar to‘g‘risida fikrlar qismi – bu o‘qituvchining turli faoliyatga bo‘lgan munosabatining yozma tahlili (test xulosalari, retsenziyalar, rezyume va boshqalar) yig‘ib boriladi.

Portfolioning **ikkinchi turi** – reflektiv portfolio, u o‘qituvchining kasbiy rivojlanish dinamikasi o‘zida jamlaydi. Unda o‘qituvchining o‘z ishiga bergan bahosi va o‘quv ishlarining natijalari, jarayoni va maqsadlari tahlili o‘rin oladi. O‘z ish faoliyatiga baho berish ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun kuzatish kundaliklarini olib borish samarali vosita hisoblanadi.

Portfolioning **uchinchi turi** – muammolar portfoliosidir. Unda ma‘lum bir muammoni yechish maqsadida to‘plangan ma‘lumotlar, muammoni yechish jarayoni va natijalari yig‘ib boriladi. Portfolioning bu turi o‘qituvchining tahlil – sintez – baho berish darajasida anglatadi. Bunday portfolioda ma‘lumotlarni quyidagi yo‘nalishlar bo‘yicha yig‘ib borish tavsiya etiladi:

- muammoni o‘rganish uchun adabiyot ro‘yxati;
- kichik mavzular, muammo doirasi, tadqiqot rejasi;
- muhokamadagi nuqtai nazarlar;
- tsitatlar, aforizmlar;
- boshqa fanlar doirasiga integratsiya;
- tadqiqot natijalari asosida xulosalar;
- tadqiqot usullari;
- bashoratlar va istiqbol;

Bunday portfoliolarga material yig‘ish va uni tizimga keltirish o‘qituvchiga nafaqat ishni etarli darajada bajarishga imkoniyat beradi, balki ularning qiziqishlarini ilmiy darajagacha ko‘taradi.

Portfolioning **to‘rtinchi turi** – mavzuviy, biron katta mavzuni o‘rganish jarayonida yaratiladi. Bunday portfolioda asosan o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha qo‘shimcha adabiyotlardan olingan ma‘lumotlar, qo‘shimcha manbalar, mavzuga oid muammoli vaziyatlar yaratish uchun to‘plangan ma‘lumotlar o‘rin oladi.

Ona tili va adabiyot o‘qituvchisi quyidagi mavzular bo‘yicha portfolio tayyorlashi mumkin: “O‘tkazilgan mashg‘ulot to‘g‘risida mulohaza” portfolio (mavzusi bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarning reflektiv tahlili joylashtiriladi); “Javobsiz qolgan savollar”; “Grafik-organayzer”; “Sitata va aforizmlar”; “Mening kashfiyotlarim”; “O‘quvchilarimning ijodi”; “Men buni qachon va qaysi darsda ishlatishim mumkin”; “Qiyosiy tahlil: o‘quvchilar qanday foydalanishadi, men darsda qanday foydalanaman”; “G‘oyalar banki”; “Diversant: Mavzu bo‘yicha dalillar va ularga qarshi dalillar”; “Muvaffaqiyat rag‘bati: ish jarayonida kasbiy rivojlanishga yordam berdigan ma‘lumotlar”; “Parallel dunyolar: fanlararo va fan ichidagi aloqalar”.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, portfolio o‘qituvchining shaxsiy yutuqlarini to‘plash va baholash vositasi bo‘lish bilan birgalikda, o‘qituvchining bilim, ko‘nikma va malakalarini monitoringi uchun maxsus tashkil etilgan tizimiy dalillar to‘plami, o‘zini o‘zi bilish vositasi, nisbiy o‘shishni aniqlash (o‘ziga nisbatan o‘shish), fikrlash darajasining o‘zgarishini o‘lchash, o‘quv jarayoni

bo'yicha hisoboti hamdir.

Shaxsiy kompyuter afzalliklari:

– atrof-muhit sharoitlariga nisbatan maxsus talablar qo'yilmagan tarzda muxtor ishlatilishi;

– ishining o'ta ishonchliligi (5 ming soatdan ortiq ishlashi);

– arxitekturaning o'zgaruvchanligi, ya'ni fan, ta'limot, boshqaruv va maishiy turmush sohalarida turlicha qo'llanilishga moslasha oladigan o'zgaruvchanligi;

– foydalanuvchining maxsus professional tayyorgarliksiz ishlay olishini ta'minlovchi qulay operatsion tizim va shu kabi dasturiy ta'minotlarning mavjudligi.

Klaviatura – (nem. *klaviatur*, lat. *clavis* – kalit), muayyan tartibda joylashtirilgan klavishlar to'plami bo'lib, kompyuter ichiga sonli, matnli axborotni va boshqarish axborotini kiritish uchun mo'ljallangan.

PEDAGOGNING PORTFOLIOSI HAQIDA TUSHUNCHA

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini modernizatsiyalashtirish *ijodiy fikrlovchi, ta'limning zamonaviy metod va texnologiyalarini, pedagogik-psixologik diagnostika usullarini, aniq amaliy faoliyat asosida pedagogik jarayonni mustaqil loyihalash usullarini* qo'llay oladigan pedagoglar tarkibini shakllantirishni talab etadi.

Hozirgi kunda pedagoglarga nisbatan o'zining samarali faoliyatini tashkil qilishda o'quv, ilmiy hamda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni to'g'ri rejalashtirishi va amalga oshirishi, kasbiy pedagogik mahoratini uzluksiz oshirib borishda o'zgarib boruvchi zamonaviy talablarga tezkor ravishda moslashib borish kabi talablar qo'yilmoqda. Chunonchi, pedagog kadrlarning ta'lim-tarbiya jarayonlaridagi raqobatbardoshligi uning ilg'or ta'lim texnologiyalarini o'zlashtirish qobiliyati, o'zgaruvchan hamda oshib borayotgan kasbiy talablarga moslasha olishiga bog'liq.

Bugungi kunda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini pedagogik faoliyat hamda kasbiy kompetentlikning ajralmas qismi sifatida shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaralmoqda. Shu sababdan pedagoglarning kasbiy ma'lumotlar bazasi va talabalar bilan o'quv muloqotlarini elektron resurslar asosida tashkil etish pedagogik jihatdan muhim vazifalar qatoriga kiradi. Bunday vazifalar pedagog kadrlarning elektron portfoliosini ishlab chiqishni taqozo etadi.

“Portfolio” tushunchasi XV-XVI asrlarda G'arbiy Yevropadan kirib kelgan bo'lib, uyg'onish davrida arxitektorlar o'z buyurtmachilariga qurilish loyihalarini tayyor va homaki variantlarini "portfolio" deb nomlangan alohida papkada taqdim etishgan. Ushbu papkada taqdim etilgan hujjatlar talabgorda qurilish loyihasining kasbiy sifatleri haqida taassurot hosil qilgan.

Hozirgi vaqtda esa biznes olamida portfolio firmaning yutuqlarini ko'rsatish, fotosuratchi va fotomodellar sohasida esa – suratlar albomi sifatida ishlatiladi.

Portfolioni ta'lim sohasida qo'llash g'oyasi, 80-yillarning o'rtalarida AQSHda paydo bo'ldi. AQSH va Kanadadan so'ng, portfolio g'oyasi Yevropa va YAponiyada ommalashdi, XXI asrning boshlarida esa bu g'oya Rossiyada keng

tarqaldi va hozirgi kunda bu g`oya O`zbekistonda ham keng yoyilmoqda.

Portfolio (**ingl.** – portfel, zarur ishlar va hujjatlar uchun papka. **frans.** – bayon qilmoq, ifoda etmoq, tashimoq. **ital.** –hujjatlar solingan papka) – bu hujjatlar, ish namunalari, fotosuratlar, taqdim etilayotgan imkoniyatlarni tasavvur eta olish imkoniyatini beruvchi materiallar, mutaxassis xizmatlari to`plamidan iborat.

Pedagogning portfoliosi quyidagi imkoniyatlarga ega:

- pedagogning ma`lum bir vaqt oralig`ida erishgan kasbiy yutuqlari va faoliyat natijalarini qayd etish *usuli*;
- faoliyati davomida kasbiy sohadagi erishilgan yutuqlarini namoyish etuvchi *majmua*;
- pedagogning dars berayotgan fani bo`yicha o`quv materiallarini talabalarga yetkazib beruvchi *vosita*;
- pedagog va talabalar o`rtasidagi o`quv muloqotini ta`minlashga xizmat qiluvchi *tizim*;
- talabalar bilan teskari aloqani o`rnatishga xizmat qiluvchi hamda bilimlarni o`zlashtirish jarayonini monitoring qilish *tizimi*.

Pedagogning portfoliosi ta`lim muassasalari rahbariyati uchun o`qituvchilarning ish faoliyati unumdorligini monitoringini olib borish va yana ham muhim tomoni o`qituvchilarni o`z-o`zini kuzatish va o`z ustida ishlashi uchun muhim vosita hisoblanadi. Turli manbalardagi ma`lumotlarga ko`ra pedagog portfoliosi – bu o`qituvchining aniq faktlar asosida yozilgan pedagogik sifati va yutuqlari hisoblanadi. Bundan tashqari portfolioda o`qituvchining individual yutuqlari, turli loyihalarda qatnashganliklari, talabalarining fan olimpiadalari, tanlovlar, musobaqalarda g`olib bo`lganliklari qayd etib boriladi. SHu bilan birga pedagog portfoliosi pedagogik-psixologik diagnostika natijalari, talabalar uchun fanlar bo`yicha nazorat qilish topshiriq va testlarini qamrab oladi.

Portfolio joriy etilishi bilan pedagogik faoliyatni baholashning va o`zo`ziga baho berishning ko`p funktsiyali vositasi shakllanadi. Bunda portfolio qator pedagogik masalalarni yechishda yordam beradi[3]:

- ta`lim berishda yuqori motivatsiyani rivojlantirish;
- talabalarning mustaqil ta`limi va o`z ustida ishlashga intilishni oshirish;
- uzluksiz rivojlanishni rag`batlantiruvchi omilni joriy etish;
- bilimlarning samarali o`zlashtirilishiga intilish;
- pedagogik faoliyat natijalarini tashhis qilish.

Bundan tashqari portfolio o`qituvchiga o`z yutuqlarini yanada kengroq va xilmaxil taqdim etish imkonini beradi.

<http://www.uchportal.ru/>

«The Teaching Portfolio» kitobi muallifi Piter Zeldin fikriga ko`ra o`qituvchi

portfoliosi, kasb mahoratini shakllantirishdagi navbatdagi bosqich hisoblanadi. Portfolio – o‘qituvchining kasbiy faoliyatida turli pedagogik masalalarni hal eta olish malakalarini ko‘rsatuvchi, shuningdek o‘qituvchining professionallik darajasini baholashga qaratilgan materiallarni qamrab oladi.²¹

Portfolio quyidagi ko‘rinishlarda bo‘lishi mumkin:

- portfolio sayti (sayt ko‘rinishidagi portfolio);
- veb sahifa (biror sayt tarkibidagi shaxsiy sahifa);
- elektron taqdimot;
- natijalar papkasi.

Elektron portfolio ko‘rgazmaliligi, qulayligi, resurslarining aniq tuzilishiga egaligi bilan bir qatorda yana bir qancha o‘ziga xos xususiyatlar va afzalliklarga ega:

- zamonaviyligi;
- tezkorligi (kerakli o‘zgarishni tezda kiritish imkoniyati);
- funktsionalligi (katta sondagi ekspertlarga, hamkasb-mutaxassislarga, qiziquvchilarga o‘z tajribasini namoyish etish imkoniyati) hamda o‘z muvaffaqiyatlarini qayd etib borish, bir vaqtning o‘zida doimiy ravishda to‘ldirib borish mumkin bo‘lgan raqamli ta‘lim resurslarining tizimlashtirilgan mediatekasini yaratish imkoniyatining mavjudligi;
- effektivligi (o‘qituvchini o‘z-o‘zini baholashi, boshqaruvchi hamda talabalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatish);

Portfolioning taqdimot shakli ma‘lumotlarni ko‘rgazmali tarzda namoyish etishni amalga oshirsa, sayt-portfolio shakli esa ko‘proq ma‘lumot olish va izlash imkoniyatini beradi. Internet izimining o‘quv jarayoniga keng joriy etish bo‘yicha yaratilgan imkoniyatlar portfolioning sayt-portfolio shaklida yaratish va uning resurslarini doimiy yangilanib borishini markazlashgan holda tizimli yo‘lga qo‘yish orqali samara berishi mumkin. Shuning uchun portfolioni tarmoqda saytportfolio sifatida joylashtirilishi maqsadga muvofiq.

Portfolioning muhim jihati – pedagogning kasbiy kompetentligini baholash uchun amaliy faoliyatdagi natijalarini (bajargan loyihalari, talabalarining olimpiada va tanlovlarda qatnashganligi, olib borgan ilmiy izlanishlari kabilarni) namoyish etishdan iborat. Portfolio o‘qituvchiga o‘z ishlari natijalarini tahlil etish, umumlashtirish, tizimlashtirish, o‘z imkoniyatlarini ob‘ektiv baholash va qiyinchiliklarni bartaraf etishni rejalashtirish hamda yuqori natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

Portfolio resurslarini shakllantirishda quyidagi jihatlarga ahamiyat berish maqsadga muvofiq:

²¹ Peter Wallet. Information and communication technology in education in Asia. –Montreal: UNESCO UIS. 2014. – 35 p.

- tizimlilik;
 - taqdimotlilik;
 - yutuqlarni haqqoniy, to'g'ri baholash;
 - taqdim etilayotgan axborotlarning to'liqligi, aniqligi va ishonchliligi;
- ma'lumotlarning ob'ektivligi.

Shunday qilib, portfolio pedagogik faoliyatning turli xil ko'rinishlarida (o'quv, tarbiyaviy, ijodiy, metodik, tadqiqot) o'qituvchi tomonidan erishilgan yutuqlarini yuzaga chiqarish imkonini beradi.

Bir qancha mualliflar o'z maqolalarida elektron portfolioni bir nechta variantlarini taklif etishgan[4]:

- yutuqlar portfoliosi – ushbu portfolioda ahamiyat faoliyatdagi yutuqlarni tasdiqlovchi hujjatlarga qaratiladi;
- taqdimot portfoliosi – o'qituvchining eng yaxshi ishlari to'plami, ushbu portfolio yangi ishga kirayotganda, suhbatdan o'tish uchun yoki turli tanlovlarda qatnashish uchun kerak bo'ladi;
- hisobot ko'rinishidagi portfolio – biror-bir loyiha ishini tugatayotgan vaqtda bajarilgan ishlar va erishilgan yutuqlar haqida ma'lumot beradi;
- majmuaviy portfolio – yuqorida ko'rsatilgan portfolio ko'rinishlarini qamrab oladi va o'qituvchi portfoliosini namoyish etishga xizmat qiladi.

PEDAGOGNING ELEKTRON PORTFOLIOSI TIZIMI

[\(http://portfolio.bimm.uz/\)](http://portfolio.bimm.uz/)

Pedagogning elektron portfoliosi uning kasbiy ko'rsatkichlari bilan bir qatorda, pedagogik faoliyatni tashkil etish bilan bog'liq resurslar, talabalarning fan bo'yicha ma'lumotlarni olishlari, nazorat topshiriqlari hamda talabalar bilimini o'zlashtirish monitoringi natijalarini qayd etish imkoniyatini beruvchi tizim sifatida shakllantirildi.

Rasm 1. Elektron portfolioning bosh sahifasi ko'rinishi

Mazkur jarayonda pedagoglarning elektron portfolio yaratishdagi faoliyatini quyidagicha tashkil etish maqsadga muvofiq: birinchidan, pedagoglar portfoliosi dasturiy platformasi yaratiladi va uning imkoniyatlari bilan barcha pedagoglar tanishtiriladi;

ikkinchidan, pedagoglar o'zlariga tegishli kasbiy ma'lumotlar va ta'lim resurslarini shakllantirib dasturiy platformaga joylashtirishlari tashkillashtiriladi;

uchinchidan, elektron portfolioning axborot xavfsizligini ta'minlagan holda uning doimiy, uzluksiz faoliyatini yo'lga qo'yish, resurslarini muntazam yangilanib borishini ta'minlash, foydalanuvchilar uchun maxsus kirishlarni tashkillashtirish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligi huzuridagi oliy taʼlim tizimi pedagog va rahbar kadrlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish Bosh ilmiy-metodik markazi portali tarkibida “Pedagog portfoliosi” dasturiy platformasi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi (<http://portfolio.bimm.uz/>) (1-rasm).

Mazkur platformaning vazifasi oliy taʼlim muassasalari pedagoglarining yagona markazlashgan portfoliosini joriy etish, ular uchun kasbiy faoliyat natijalari va tegishli fanlari boʻyicha taʼlim resurslarini yaratish imkoniyatini yaratish va pedagogik faoliyatning kompleks monitoringini tashkil etishdan iborat. Portfolio uch qismdan tashkil topgan:

Birinchi qismda pedagogning malaka oshirish jarayonlari bilan bogʻliq maʼlumotlar joy olgan. Bu maʼlumotlar pedagog tomonidan kiritilmaydi. Oliy taʼlim tizimi pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish mintaqaviy va tarmoq markazlarida tinglovchi sifatida roʻyxatdan oʻtgan pedagoglarning maʼlumotlar bazasini shakllantirish jarayonida maʼlumotlar tizimga avtomatik tarzda yigʻilib boriladi. Bu maʼlumotlarga tinglovchi anketasi, uning kunlik davomati, kirish va chiqish testi natijalari, malakani himoya qilish ishi mavzusi va bali, qoldirilgan dars soatlari, olingan diplom, sertifikat yoki maʼlumotnoma nomeri va hokazolar kiradi (2-rasm).

Rasm 2. Pedagogning malaka oshirganligi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar Portfolioning ikkinchi qism pedagogning kasbiy faoliyatini yoritishga qaratilgan boʻlib, bu qismdagi maʼlumotlar berilgan login va parol asosida uning shaxsiy kabinetida tegishli boʻlimlarga shaxsan pedagog tomonidan davriy toʻldirilib boriladi (3-rasm).

Rasm 3. Kasbiy faoliyat natijalarini kiritib borish sahifasi

Bu maʼlumotlar asosiy va qoʻshimcha maʼlumotlarga boʻlingan. Asosiy maʼlumotlar pedagogning kasbiy faoliyatida erishgan yutuqlarini aks ettiruvchi quyidagi boʻlimlardan tashkil topgan:

- **Oʻquv va oʻquv - metodik faoliyati:**
 - oʻquv jarayonining meʼyoriy hujjatlarini ishlab chiqishdagi ishtiroki; dars beradigan fanlari roʻyxati; fanlarning namunaviy dasturlarini yaratishdagi ishtiroki;
 - oʻquv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishdagi faoliyati;
 - nashr etilgan darslik va oʻquv qoʻllanmalarining mavjudligi.
- **Ilmiy - tadqiqot faoliyati:**
 - ilmiy daraja va unvonining mavjudligi; monografiya va ilmiy maqolalar chop etilganligi;
 - Respublika va xalqaro miqiyosdagi ilmiy konferentsiyalardagi tezislari mavjudligi;
 - mablagʻ bilan taʼminlangan ilmiy-tadqiqot ishlaridagi ishtiroki; patentlar, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflarining mavjudligi;

➤ **Tashkiliy - metodik faoliyati:**

- umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha Respublika va Xalqaro olimpiadasi, sport musobaqasi va badiiy ko'rgazmalarda g'olib va sovrindor bo'lgan talabalarinig mavjudligi; ochiq ma`ruzalar tashkil etilganligi.
- Qo'shimcha ma`lumotlar portfoliodagi sahifaning personallashtirilishi bilan bog'liq bo'lib, quyidagilardan tashkil topgan:
 - portfolio sahifasidagi parolni o'zgartirish;
 - portfolio sahifasidagi rasmni o'zgartirish;
 - portfolio sahifasidagi anketa ma`lumotlarini o'zgartirish;

Portfolioning uchinchi qismida pedagoglar o'zlarining fanlari bo'yicha sillabus va boshqa o'quv materiallarini kiritib boradilar (4-rasm).

Rasm 4. Pedagogning ta`lim resurslari sahifasi ko`rinishi

Bu materiallardan faqatgina ruxsat etilgan talabalargina foydalana oladilar. Buning uchun talabalar ham albatta tizimga ro'yxatdan o'tgan bo'lishlari talab etiladi. SHuningdek, talaba va pedagog o'rtasida virtual muloqotni yaratish maqsadida "chat" (yozishmalar) tizimi ham joriy qilingan (5-rasm).

Rasm 5. "Chat (yozishmalar)" oynasi ko`rinishi

ELEKTRON PORTFOLIO BILAN ISHLASH VA UNI SHAKLLANTIRISH

Professor-o'qituvchilar o'zlarining elektron portfoliolariga (ularga berilgan maxsus login) kirganida quyidagi ishlarni amalga oshiradilar:

1. **"Pedagog"** menyusining **"Sozlovlar"** qismiga o'tadilar. **"Sozlovlar"** qismi olti punktdan iborat bo'lib, unda o'qituvchilar quyidagi amallarni bajaradilar:
 - a. **"Parolni o'zgartirish"** – elektron portfolio tizimidagi shaxsiy parolni o'zgartirish. Buning uchun **"Joriy parol"** maydoniga joriy parolni, **"YAngi parol"** va **"Parolni takrorlang"** maydonlariga o'rnatilmoqchi bo'lgan yangi parolni ikki marta kiritiladi hamda tasdiq kodini kiritib **"Parolni saqlash"** tugmasi bosiladi;
 - b. **"Rasmni o'zgartirish"** – portfolioda aks etadigan rasm blankasining o'rniga o'zining rasmini o'rnatish. Bunda ikki usul mavjud:
 1. **"Rasmni yuklash"** qismini tanlanadi va hajmi 512 Kb dan oshmaydigan ".jpg" formatdagi rasmni ma`lumot tashuvchi (kompyuter xotirasi, CD yoki DVD disk, flesh xotira) dan tanlab, **"saqlash"** tugmasini bosiladi;
 2. Agar kompyuter yoki noutbukda veb-kamera mavjud bo'lsa "Veb kameradan rasm tushirish" qismini tanlab, **"Capture"** so'ng **"Upload"** tegmalarini bosib rasm o'zgartiriladi.
 - c. **"Shaxsiy ma`lumotlarni tahrirlash"** – portfoliodagi anketa (anketa, kasbiy va qo'shimcha) ma`lumotlarini tahrirlash. Bunda har

bir maydonni diqqat bilan tanishib, xato yoki o'zgargan ma'lumotlar mavjud bo'lsa uni tahrirlab tasdiq kodi kiritiladi va "**Saqlash**" tugmasi bosiladi;

"Sozlovlar" menyusining keyingi uch qismi professor-o'qituvchining kasbiy faoliyati natijalari asosida to'ldiriladi.

- d. "**O'quv va o'quv-metodik faoliyat**" – bu bo'lim to'rtta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ular:
1. "Petentlar, ixtirolar va ratsionalizatorlik takliflari";
 2. "Model va dasturlar yaratishdagi ishtiroki";
 3. "Yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etishga doir o'quv-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqishdagi ishtiroki";
 4. "Nashr etilgan darslik va o'quv qo'llanmalar".
- e. "**Ilmiy tadqiqot faoliyati**" – bu bo'lim uchta tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ular:
1. "Monografiya va ilmiy maqolalar chop etilganligi";
 2. "Respublika va holqaro miqiyosdagi ilmiy konferentsiyalardagi tezislar";
 3. "Mablag` bilan ta'minlangan ilmiy-tadqiqot ishidagi ishtirok".
- f. "**Tashkiliy-metodik faoliyat**" – bu bo'lim ikkita tarkibiy qismdan iborat bo'lib, ular:
1. "Umumkasbiy va mutaxassislik fanlari bo'yicha Respublika va halqaro olimpiada, sport musobaqasi va badiiy ko'rgazmalarda g'olib va sovrindor bo'lgan talabalar";
 2. "Ochiq ma'ruzalar tashkil etilganligi".

Professor-o'qituvchida yuqoridagi faoliyat natijalaridan qaysilari mavjud bo'lsa o'sha qismni tanlaydi va shu faoliyat natijasi haqidagi ma'lumotlarni kiritish formasi hosil bo'ladi. Unda faoliyat turilaridan kelib chiqib birbiridan biroz farq qiluvchi ma'lumotlarni (Manba nomlanishi, nashr yili, hammualliflar soni) va tasdiqlovchi hujjat nushasini kiritish maydonlari mavjud bo'ladi. Ma'lumotlar va hujjat nushasini kiritib "**Saqlash**" tugmasini bosish orqali kasbiy faoliyat natijasi haqidagi ma'lumotlar to'ldirib boriladi.

2. "**Pedagog**" menyusining "**Fanlarim**" qismida professor-o'qituvchilar o'zlari dars berayotgan fanlari haqidagi ma'lumotlar, fan sillabusi va turli elektron mabalarni kiritishlari mumkin. Buning uchun dastlab "**Fan qo'shish**" tugmasini bosish orqali yangi fan haqidagi ma'lumotlarni kiritish formasiga o'tiladi. Ushbu formada "**OTM**", "**Kafedra**", "**Yo'nalish**", "**Fan o'qitiladigan til**", "**Fanning nomlanishi**" va "**Fanning sillabusi**"ni kiritilib "**Saqlash**" tugmasi bosiladi. Fan haqidagi ma'lumotlar kiritilgandan so'ng, fanlar ro'xatidan yangi kiritilgan fanni tanlanadi. Bunda ikkita "**Sillabus**" va "**Manbaalar**" nomli qismlardan iborat oyna ochiladi. Bu oynaning "**Manbaalar**" qismiga o'tib "**Manbaa qo'shish**" tugmasi bosiladi va fanga elektron formatdagi manbaalar (fanning o'quv va ishchi dasturlari, nazorat savollari, taqdimotlar, ma'ruza matnlari va h.) kiritiladi.

"**Pedagog**" menyusining "**Yozishmalar**" qismida professor-o'qituvchilar

o‘zlarining talabalari tomonidan berilgan savollarga javob berishlari yoki fikr almashishlari mumkin.

SHunday qilib, taklif etilayotgan elektron portfolio pedagoglarning kasbiy faoliyatlari monitoringini olib boorish, ilg`or pedagogik tajribalarni ommalashtirish, pedagoglar va talabalarning virtual muloqotini tashkillashtirish, ta`lim resurslaridan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratilishi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Bundan tashqari pedagoglarda ahamiyatli kasbiy natijalarni namoyish etish va tahlil qilish imkoniyatlari yaratiladi hamda portfolioda to‘plangan ma`lumotlar pedagogning kasbiy guvohnomasi sifatida shakllanadi.

Nazorat savollari:

1. Portfolio so‘zining ma`nosi nima?
2. Portfolio atamasidan dastlab qayerda va qaysi sohalarda qo‘llanilgan?
3. Portfolioning qanday turlari mavjud?
4. www.portfolio.bimm.uz portfolio tizimi qanday qismlardan tashkil topgan?
5. Xorijiy portfolio tizimlaridan qaysilarini bilasiz?

Adabiyotlar:

1. I.Aldjanova “O‘quv portfoliosi – bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish vositasi sifatida” Pedagogik ta`lim jurnali, 2012- yil 4-son, 46-bet.
2. S.Musaeva. Portfolioning maqsad va mohiyati || «Pedagogik ta`lim» jurnali, 2013 yil 1-son, 20-bet.
3. www.portfolio.bimm.uz– elektron portfolio tizimi.

